



MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS

COLLECTION OF SCIENTIFIC WORKS
OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE

Issue 2(13)

**Warsaw
2019**



MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS

ISSUE 2(13)

FEBRUARY 2019

Collection of Scientific Works

WARSAW, POLAND
Wydawnictwo Naukowe "iScience"
20th February 2019

ISBN 978-83-949403-3-1

MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS: a collection scientific works of the International scientific conference (20th February, 2019) - Warsaw: Sp. z o. o. "iScience", 2019. - 170 p.

Languages of publication: українська, русский, english, polski, беларуская, казакша, o'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերէն

The compilation consists of scientific researches of scientists, post-graduate students and students who participated International Scientific Conference "MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS". Which took place in Warsaw on 20th February, 2019.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

ISBN 978-83-949403-3-1

© Sp. z o. o. "iScience", 2019

© Authors, 2019

TABLE OF CONTENTS

SECTION: ARCHITECTURE

Жўраева Э. Э., Хайдарова М. А. (Самарканд, Ўзбекистан) БОЛАЛАР БОҒЧАСИ ХУДУДИНИ КЎКАЛАМЗОРЛАШТИРИШ.....	7
Нурмурадова Ю. Б., Жўрақулова З. А. (Самарканд, Ўзбекистан) ШАҲАРСОЗЛИҚДА ТАБИАТ ЁДГОРЛИКЛАРИНИ АСРАШ БЎЙИЧА ЛАНДШАФТ АРХИТЕКТУРАСИ НАЗАРИЯСИ.....	11

SECTION: ECONOMICS

Musayeva Shoirazimovna, Berdikulov V.B., Usmonova Dilfuza Ilkhomovna (Samarkand, Uzbekistan) THE WAYS OF DEVELOPING OF E-COMMERCE IN RURAL RETAILS....	15
--	----

SECTION: HISTORY SCIENCE

Araqulov Shahzod, Xudoyberdiyeva Mashhura (Jizzax, O'zbekiston) HAZRATI ZAYNULOBIDDIN ZIYORATGOHI HAQIDA.....	20
Kamalova D. Z., Narziyev A. Q. (Samarkand, Uzbekistan) O'RTA – OSIYO TARIXIY SHAXARLARINI QAYTA TIKLASHNI ASOSIY TAMOILLARI.....	22

SECTION: PEDAGOGY

Boymatov A. E., Elmurodova G., Toshboyev N. S. (Jizzax, O'zbekiston) DARS JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNIKANING O'RNI.....	27
Махманазарова Мафтуна Пирназар қизи (Карши, Ўзбекистан) ҚУРИЛИШ ЧИЗМАЧИЛИГИДА МАСШТАБЛАР ВА КОНСТРУКЦИЯЛАР ЭЛЕМЕНТЛАРИ" МОДУЛИНИ ЎҚИТИШДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРИНИНГ ЎРНИ.....	29
Садвакасова Н. А., Абишева Г. М., Калел Д. Е., Каражигитова Р. К., Кинаятова М. К. (Караганда, Казахстан) ПРОЯВЛЕНИЕ СТРЕССОВЫХ СОСТОЯНИЙ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ.....	33
Тожибоев Муҳиддин Абдурашидович, Эркабоев Бекмурод Сапарбой угли, Шамсиев Жамолiddин Малик угли (Джизак, Ўзбекистан) РОЛЬ КУРАТОРА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ВОСПИТАНИИ АКАДЕМИЧЕСКОЙ ГРУППЫ И ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ВОСПИТАТЕЛЬНЫХ РАБОТ.....	37

SECTION: PHILOLOGY AND LINGUISTICS

Atajonova Malohat Ilhamovna, Ahmedjanova Surayyo Xo'janiyoz qizi (Urgench, Uzbekistan) THE IMPORTANCE OF GRAMMAR IN COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING.....	40
---	----

Atajonova Malohat Ilhamovna, Qadamova Mehriniso Maqsud qizi (Urgench, Uzbekistan)	
THEORETICAL BASES FOR LEARNING VOCABULARY THROUGH SUBTITLED AUTHENTIC VIDEOS.....	44
Babayeva Irada (Tashkent, Uzbekistan)	
INTERACTIVE METHODS IN TEACHING LITERATURE.....	52
Babayeva Irada (Tashkent, Uzbekistan)	
REASONS FOR USING LITERARY TEXTS IN FOREIGN LANGUAGE CLASSES.....	53
Mohigul Esanova Qorjov qizi (Tashkent, Uzbekistan)	
5-SINF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING YOZMA NUTQINI OSHIRISH MALAKASINI SHAKLLANTIRISH.....	58
Seitbekova Dinura (Tashkent, Uzbekistan)	
REFLECTION OF NOTION "EVIL" IN THE ENGLISH PROVERBS.....	63
Seitbekova Dinura (Tashkent, Uzbekistan)	
USING SOCIAL NETWORKS IN TEACHING ENGLISH.....	66
Sharopova Feruza Valiyevna (Tashkent, Uzbekistan)	
O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'ZLASHTIRISHDA O'QUVCHILARNING YOZMA SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISH.....	69
Turayeva Muborak (Jizzakh, Uzbekistan)	
THE CONCEPT OF A CULTURE OF SPEECH AND MEANS OF EFFECTIVE COMMUNICATION.....	75
Turayeva Muborak (Jizzakh, Uzbekistan)	
THE IMPACT OF CULTURE OF SPEECH ON THE SPIRITUAL DEVELOPMENT OF MANKIND.....	80
Ubaydullayeva Umida Abdushukur qizi (Tashkent, Uzbekistan)	
TANQIDIY TAFAKKUR BADIY OCHQICH SIFATIDA.....	83
Ермекбаева Майгуль Уалихановна, Копбаева Сауле Утегеновна (Алматы, Қазақстан)	
КҮРДЕЛІ СЫН ЕСІМДЕРДІҢ ЖАСАЛУ ЖОЛДАРЫ.....	87
Ногаева Айнаш Закаряновна (Алматы, Қазақстан)	
ҚАЗАҚ ТІЛІНІҢ ЭТНОЛИНГВИСТИКАСЫН ОҚЫТУДА ҚОЛДАНЫЛАТЫН ЖАҢА ПЕДАГОГИКАЛЫҚ ТЕХНОЛОГИЯЛАР.....	89
Каромова Шоҳида (Қарши, Ўзбекистон)	
АБДУЛЛА ҚАҲҲОРНИНГ ҲИКОЯНАВИСЛИК МАҲОРАТИ.....	92
Равшанова Гулрухбегим Қахрамоновна (Қарши, Ўзбекистон)	
“ЮСУФ ВА ЗУЛАЙХО” ТУРКУМ ДОСТОНЛАРИДА ЯЪҚУБ АЛАЙҲИССАЛОМ ВА ЮСУФ АЛАЙҲИССАЛОМ ОБРАЗЛАРИ.....	95
Хурсандова Гулбахор (Қарши, Ўзбекистон)	
СЛОГ КАК ФУНДАМЕНТАЛЬНАЯ ЕДИНИЦА РЕЧИ.....	100
Ҳафизова Мухлиса Абдигани қизи (Ташкент, Ўзбекистон)	
ЛИРИКАДА БАДИИЙ ТАФАККУР.....	103

SECTION: PHILOSOPHY

Djasanova Sayyora, Razzoqova Go'zal (Jizzax, O'zbekiston)	
AYOLLAR JAMIYATNING – IMTIYOZLI QATLAMI.....	107

Mirkamilov Axror Maxmudovich (Jizzax, O`zbekiston)

DEMOKRATIK BOSHQARUVDA FUQAROLIK JAMIYATI VA
MAHALLANING O'RNI..... 112

Тоғаев Нодиржон Эргашевич (Самарканд, Узбекистан)

ЁШЛАРНИ МИЛЛАТПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШНИНГ
МАЪНАВИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ..... 115

SECTION: PHYSICAL CULTURE**Ахматова Х. М. (Тошкент, Ўзбекистон)**

МАМЛАКАТДА ЖИСМОНИЙ-ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РЕСУРСЛАРНИ
ОММАВИЙ СПОРТ АСОСИДА ТИЗИМЛИ ШАҚЛЛАНТИРИШ..... 119

Сатторов М. С., Соатов Э. М. (Тошкент, Ўзбекистон)

МУШАК КУЧИ ВА ТЕЗЛИК-КУЧ СИФАТЛАРИНИНГ ФИЗИОЛОГИК
АСОСЛАРИ..... 124

SECTION: PSYCHOLOGY SCIENCE**Тоштемирова Дилафруз (Джизак, Узбекистан)**

ДЕВИАНТНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ДЕТЕЙ В ПОДРОСТКОВОМ
И ЮНОШЕСКОМ ВОЗРАСТЕ..... 128

SECTION: TECHNICAL SCIENCE. TRANSPORT**Saxanova Liza Jamixatovna, Aytimbetov Yusupbay Mambetyarovich****(Nukus, Uzbekistan)**

USE OF WEB-TECHNOLOGY FOR SELF-IMPROVEMENT..... 130

Нурниязов Арман Арзубай улы,**Мэльсова Дилнора Амангелдиевна (Нукус, Узбекистан)**

МЕТОДЫ ЗАЩИТА ИНФОРМАЦИИ В ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ
СЕТЯХ ПРЕДПРИЯТИЯ..... 132

Нурниязов Арман Арзубай улы,**Мэльсова Дилнора Амангелдиевна (Нукус, Узбекистан)**

ПРИЕМНОЕ АБОНЕНТСКОЕ ОБОРУДОВАНИЕ ЦИФРОВОГО
НАЗЕМНОГО ТЕЛЕВИЗИОННОГО ВЕЩАНИЯ..... 135

SECTION: POLITICAL SCIENCE**Насириддинова О. (Тошкент, Ўзбекистон)**

МАҲАЛЛАЛАРДА УЮШМАГАН ЁШЛАРНИ ФАОЛ ТУРМУШ ТАРЗИГА
ИНТЕГРАЦИЯ ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ..... 138

Маматкулов Рустам, Абдурахимов Султон (Тошкент, Ўзбекистон)

АМИР ТЕМУР ВА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА ЕР ЭГАЛИГИ..... 142

Ҳамроев Санжар Самиевич (Ташкент, Узбекистан)

ДУХОВНОСТЬ ЧЕЛОВЕКА И САМОПОЗНАНИЕ..... 146

Киличев Абдор Баратович (Ташкент, Узбекистан)

ПОЛИТИЧЕСКАЯ УСТРОЙСТВО ИМПЕРИИ АМИРА ТЕМУРА..... 150

Сирожев О.О. (Тошкент, Ўзбекистон)

МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ҲАМКОРЛИКНИ МУСТАҲКАМЛАШДА
ТРАКСПОРТ-КОММУНИКАЦИЯ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
ЗАРУРИЯТИ..... 156

SECTION: SCIENCE OF LAW

Berdilo Rodica (Chişinău, Republica Moldova)

DEOSEBIRILE ŞI ASEMĂNĂRILE DINTRE IPOTEZA PREVĂZUTĂ LA LIT. A)

ALIN. (1) ART. 75 DIN CODUL PENAL AL ROMÂNIEI ŞI IPOTEZA PREVĂZUTĂ

LA ART. 146 DIN CODUL PENAL AL REPUBLICII MOLDOVA..... 161

SECTION: ARCHITECTURE

**Жўраева Э. Э., Хайдарова М. А.
(Самарканд, Ўзбекистан)**

БОЛАЛАР БОҒЧАСИ ҲУДУДИНИ КЎКАЛАМЗОРЛАШТИРИШ

Аннотация: Мақоланинг асосий мақсади болалар боғчаси ҳудудини кўкаламзорлаштириш ишларини илмий асосда ташкил этиш. Ёш болалар учун яшил экинзорлар нафақат эстетик, балки психологик аҳамиятга ҳам эга эканлиги. Болалар боғчаси ҳудудига ландшафтлар яратилиб, болалар боғчалари қиёфасини бутунлай ўзгартиришга ҳизмат қилади.

Основной целью статьи является организация работ по озеленению детского сада на научной основе. Для детей младшего возраста зеленые культуры являются не только эстетическими, но и психологически важными. На территории детского сада создан ландшафт, который полностью изменит внешний вид детских садов.

The main purpose of the article is to organize work on greening the kindergarten on a scientific basis. For younger children, green cultures are not only aesthetic, but also psychologically important. A landscape has been created on the territory of the kindergarten, which will completely change the appearance of the kindergartens.

Мустақилликка эришган дастлабки кунларимиздан бошлаб, ўсиб келаётган ёш авлодни ҳар томонлама етук, маънавий баркамол инсон қилиб камол топтириш – жамиятимизнинг устувор вазифаларидан бири сифатида эътироф этилди. Бу борада келажакимиз пойдевори бўлган ёшларни комил инсон қилиб тарбиялашда мактабгача таълим муассасаларининг ўрни бекиёсдир.

Бугунги кунда асосий муаммолардан бири – болалар боғчаси ҳудудини кўкаламзорлаштириш ишларини илмий асосда ташкил этишдир.

Ўзбекистонда ўсимликларнинг иқлимлаштирилиши яхши йўлга қўйилганлиги сабабли болалар боғчалари ҳудудларини кўкаламзорлаштиришда янги юқори манзарабоп хусусиятга эга бўлган дарaxтлар турларини ва буталарини кўпайтиришга имкон беради, умуман янгича бўлган ландшафтлар яратилиб, болалар боғчалари қиёфасини бутунлай ўзгартиришга ҳизмат қилади.



Ёш болалар учун яшил экинзорлар нафақат эстетик, балки психологик аҳамиятга ҳам эга. Ранглар бойлиги, гулларнинг уфори, барглار шивирлаши – буларнинг барчаси микроиклим яхшиланиши баробарида болаларга, унинг кайфияти ва асабларига ижобий таъсир кўрсатади.



Болалар боғчаси ҳудудида қуйидаги майдонча ва иншоотларни жойлаштириш тавсия этилади: ўйинлар учун умумий майдонча, болалар учун алоҳида майдончалар, айвонча, ухлаш ва сояда ўйнаш учун чорбоғ, ҳайвонлар бурчаги, сабзавот боғчаси, мева – резавор боғ, бассейн, ҳўжалик ховлисида иборат бўлиши лозим. Ҳудуднинг баланси тахминан қуйидагича: яшил экинзорлар 60%, майдончалар – 20%, аллеялар ва йўлакчалар – 8%,



иншоотлар – 12%, 1 гектар майдон ҳисобига – 150-180 та дарахт ва 2000-2500 та бута экилиши мумкин. Майдоннинг ташқи чегарасида дарахт ва буталардан икки қаторли қилиб ҳимоя экинзорлари барпо этилиши тавсия этиш мумкин. Болалар майдончаларини ўзаро ажратишда баландлиги 1,2 метр бўладиган уч қаторли яшил тўсиқлардан фойдаланилади. Майдончаларни соялатиш учун кенг, қалин шох-шаббали дарахтлар экилиши лозим бўлади (яшил тўсиқлар қаторида ёки майдончанинг ўзида), шунингдек, ўсимликлар чирмашиб ўсадиган устунлар ясалиши тавсия этиш лозим. Болалар майдончаларидаги

куёшли ва соя жойлар нисбати шундай тақсимланиши керак-ки, соялатилган жойлар эрталабки вақтда умумий очиқ майдоннинг 1/3, кечки пайтда эса – ярмидан кўп бўлмаган қисмини эгаллаши лозим. Жануби-ғарбий ва жануб томондаги ойналарни ва деворларни кенг шох- шаббали дарахтлар билан соялатиш мақсадга мувофиқдир. Гуллар бинога кириш олдида, ота-оналар кутиш жойларида бадантарбия ва умумий ўйин майдончалари олдида экилади.



Бир йиллик гулларни йўлакчалар ёнига экиш мақсадга мувофиқ, бунда болалар гулларга сув қуйишлари мумкин. Кўп йиллик гулли ўсимликлар асосан гуруҳлаб газонга экилади. Ҳайвонлар ва қушлар учун майдонча, шунингдек, хўжалик ҳовлиси майдоннинг ичкари қисмига жойлаштирилади



ҳамда дарахт ва буталар билан ажратилади. Режалаштирилган барча қисмлар бир-бири билан ўзаро 1,5 метр кенгликдаги йўлакчалар билан боғланади. Дарахт ва буталарнинг турлари ранг-баранг бўлишини назарда тутиш лозим, чунки бунда болаларнинг ўсимлик дунёси билан танишиш имкони туғилади.



Шунингдек, улар таркибида кўп йиллик ва узоқ вақт гуллайдиган бир йиллик ўсимликлар кўпроқ бўлиши лозим.



Заҳарли баргли ва мевали ўсимликлар масалан, сумах (татун), тиканли ўсимликлар (гледичия, жийда) ҳамда ҳудудни ифлослантирувчи (терак, заранг, чинор, дарахтларнинг оналик ўсимликлари) дарахт ва буталар сафидан чиқариб ташланади. Болалар боғчасида экиш учун фитонцидлик хусусиятларига эга бўлган ўсимликларни (виргин арчаси, қрим қарағайи, япон сафораси ва бошқалар) ҳамда ҳавони ионлаштирувчи (қанотчали эман, соқолли қайин ва бошқалар) дарахтларни экиш алоҳида муҳим аҳамиятга эга.

ФЙДАЛАНИЛАГН АДАБИЁТЛАР РЎЙАТИ

1. А. Қ. Қайимов Д. Ж. Турок. Аҳоли яшаш жойларини кўкаламзорлаштириш. Тошкент 2012.
2. К. Д. Рхимов. Ландшафт архитектураси. Тошкент 2018.
3. Интернет маълумотлари.

УДК 712

Нурмурадова Ю. Б., Жўрақулова З. А.
(Самарканд, Ўзбекистан)

ШАҲАРСОЗЛИҚДА ТАБИАТ ЁДГОРЛИКЛАРИНИ АСРАШ БЎЙИЧА ЛАНДШАФТ АРХИТЕКТУРАСИ НАЗАРИЯСИ

Аннотация: Мақоланинг асосий мақсади- табиий ландшафтлардан фойдаланиш, ўзгартириш ва максимал равишда асраш масалалари ҳақида. Архитектуравий-ландшафт масалаларини тизимлаштириш, уларнинг иерархиясини аниқлаш, ва ушбу масалаларни ечиш тамойиллари ва услубларини аниқлаш учун объектларнинг илмий асосланган типологиясига эга бўлиши муҳимлиги. Кўкаламзорларнинг санитар-гигиеник, эстетик, рекреацион ролига эътибор қаратилган.

Основная цель статьи - использование, изменение и максимальное хранение природных ландшафтов. Важность наличия типологии на основе науки объектов для определения принципов и методов решения проблем архитектуры и ландшафта, их иерархии. Он фокусируется на санитарно-гигиенических, эстетических, рекреационных аспектах оазиса.

The main purpose of the article is the use, modification and maximum storage of natural landscapes. The importance of having a typology based on the science of objects for determining the principles and methods for solving problems of architecture and landscape, their hierarchy. It focuses on the sanitary, aesthetic, recreational aspects of the oasis.

Табиатни асраш масаласи бўйича, ландшафт архитектураси назариясида атроф-муҳитни ўзгартиришни бошқариш асосларини ишлаб чиқиш энг долзарб ҳисобланади. Жамият нафақат ноёб табиат ёдгорликлари ва боғ-парк санъатини авайлаб-асраши, балки уларни ривожлантириш масалалари билан ҳам шуғулланиши лозим. Табиатни асраш тамойиллари ҳар бир архитектуравий-ландшафт объектларини шакллантиришнинг асосида туриши лозим. Бу тамойиллар ландшафтни лойиҳалашда мавжуд табиий ҳолатни асраш ва яхшилашда, дастур бўйича фойдаланиш жараёнида архитектуравий-ландшафт объектини мукаммаллаштиришда, ҳамда “объект-муҳит” тўғри ва тескари динамика имкониятларини ҳисобга олишда ва умумий табиий-антропоген ҳолатларни ўзгартиришда намоён бўлади.

Шундай қилиб, асосий мақсад- табиий ландшафтлардан фойдаланиш, ўзгартириш ва максимал равишда асраш масалалари бобида келишув (компромисс)ни топишдан иборат. Буни туристик рекреацион фаолиятнинг ривожланиши енгил тасдиқлайди. Масалан, 70-80 йилларда айнан рекреацион бонг шаҳардан ташқаридаги дам олиш жойларида ландшафтни ҳаддан ташқари фойдаланишидан асраш мақсадида табиий бойликни баҳолаш ва лойиҳалашнинг янги услубларини талаб қилди. 90-нчи йилларда дала ҳовлиларининг қурилиши кўпайиши шаҳарга яқин жойлашган ноёб ландшафтларни асраш муаммосини келтириб чиқди. Архитектуравий-

ландшафт масалаларини тизимлаштириш, уларнинг иерархиясини аниқлаш, ўзаро келишув ва ушбу масалаларни ечиш тамойиллари ва услубларини аниқлаш учун объектларнинг илмий асосланган типологиясига эга бўлиш муҳимдир. Типология-бу нафақат қандайдир объектларни синфларга бўлиш, балки илмий англаш услуги, объектлар ривожланиши қонуниятларини ўрганиш, уларнинг янги турларини пайдо бўлиши ҳамдир. Ташкиллаштирилган фазовий архитектуравий-ландшафтнинг алоҳида элементларини ажратиб, биз бино ва иншоотлар архитектураси, шаҳар ва қишлоқлар, дам олиш зоналари, парклар ва бошқалар ҳақида гапира оламиз. Аммо ҳар қандай архитектура объектини кўриб чиқаётганда ҳам, уни яратиш ва фойдаланишнинг табиий башоратларидан (ижтимоий-иқтисодий омиллар орқали ёки тўғридан-тўғри) ажратиб бўлмайди. Ландшафт муҳити ҳақида яхлит архитектуравий объект-антропоген муҳит ва кам ўзгартирилган табиий ландшафт каби қараш, ландшафт типологиясида янгилик ҳисобланади. Натижада биз типология бўйича қандай объектлар (парклар, ўрмон парклари ва бошқалар) кераклигини эмас, балки ландшафт архитектураси ва ландшафт лойиҳалаш объектлари ҳисобланган яхлит очик муҳитлар концепциясини кўриб чиқамиз. Замонавий тизимли-экологик нуқтаи назардан муҳитнинг бирон-бир элементи, ҳаттоки аниқ муддат мобайнида ландшафт объекти ҳисобланмагани ҳам архитекторнинг касбий фаолиятида эътибордан четда қолмаслиги лозим. Келажакда бу элементлар объект бўлиб хизмат қилиши эҳтимоли борлиги ва яхлит тизимга таъсир этиши мумкинлиги учун ҳам улар эътиборсиз қолдирилмайди. Типологиянинг асосини, умумий қараганда, фақат архитектуравий ландшафтни территориал зоналаштириш ташкил этадигандай кўринсада, амалиётда у етакчи ҳисобланмайди. Битта территория (масалан, республика территорияси) архитектуравий-ландшафт масалалари иқтисодий шаҳарсозлик, композицион ва бошқа кўплаб масалалар билан боғлиқ ҳолда туманни комплекс режалаштириш объекти ҳисобланиб, бир вақтнинг ўзида-агарда республиканинг алоҳида қўриқланадиган ландшафтлари схемаси, ёки республиканинг дам олиш ва туризм схемалари ишлаб чиқилса, махсус архитектуравий-ландшафт лойиҳалашнинг объекти бўлиши мумкин. Шу нарсани биз мураккаб ижтимоий-фазовий ва ландшафт тизими ҳисобланган-шаҳар ҳақида ҳам айтишимиз мумкин. Биз унинг аниқ тизимларидан бири, масалан, сувли яшил зонасини ажратганда уни жуда чуқур ўрганиб, мустақил объект сифатида лойиҳалаймиз. Объектларнинг типологияси ва архитектуравий-ландшафт масалаларини тизимлаш учун гуруҳларнинг икки даражасини ажратиш лозим: 1) ландшафт архитектори факатгина ҳаммуаллиф бўлган, ландшафт масалалари иқтисодий, ижтимоий, режавий ва кўплаб бошқа масалалар билан бир қаторда турган архитектура ва шаҳарсозлик объектлари гуруҳи; 2) ландшафт архитектори мутахассислар жамоасида берилган объект ечимининг дастур ва услубларини аниқловчи етакчи вазифада бўлади, бу гуруҳ объектларида ландшафт масалалари бирламчи ҳисобланади. Биринчи гуруҳ объектларига- муҳит элементи сифатида туманни режалаштириш лойиҳаларининг комплекс ва соҳавий схемалари ишлаб чиқиладиган давлат, республика, туманлар территориялари; бош режа ва батафсил режавий лойиҳалари тузилаётган аҳоли жойлари, фуқаролик ва шаҳарсозлик комплекслари мансубдир. Иккинчи гуруҳга тегишли

объектларнинг умумий шаҳарсозлик таркибига мансуб архитектуравий-ландшафт масалаларини куйидагича изохлаш мумкин:

- халқ ҳўжалиги комплекси ва ландшафт муҳитининг ўзаро таъсири муаммоларини ечиш;

- муҳитнинг турли функциявий объектлар жойлашувига муносабатини аниқлаш;

- ландшафтни батафсил лойиҳалаш ва зоналарга бўлиш;

- ландшафтларнинг режавий фаолият давомида ўзгаришлари натижаларини башорат қилиш;

- экология, муҳитни асраш ва гигиеник ҳамда эстетик сифатини яхшилаш талабларидан келиб чиқиб, муҳитни архитектуравий-ландшафт ташкиллаштириш; ландшафт ва қурилмалар ўзаро алоқасининг уйғунлиги.

Архитектуравий-ландшафт фаолиятига хос объектлар анча ривожланган типологияга эга. Ташкил этиладиган объектларнинг ландшафт вазифалари турларга бўлингани каби, улар билан ишлаш босқичлари ҳам (дастурни ишлаб чиқариш, лойиҳа олди тадқиқотлари, лойиҳалаш, лойиҳани амалга ошириш, фойдаланишга топширгандан кейинги назорат) турларга бўлинади. Ландшафт архитектурасида етакчи услублардан бири бутун архитектуравий ижодиётда самарали бўлган тизимли-ландшафт ёндашуви ҳисобланади. Бу услубнинг маъноси бутун объектни эмас, балки инсон фаолияти натижасида ва табиат қонунлари асосида доимий ўзгарувчи архитектуравий-ландшафт муҳитининг лавҳалари (tizim oсти)ни лойиҳалаш, қуриш ва қурилганини назорат қилишдан иборат. Регионлар ва йирик шаҳарсозлик тузилмаларида тизимли –ландшафт услуги аллақачон фаол фойдаланилпти. Аммо қурилмалар комплексини яратишда, айниқса алоҳида иншоотлар, ҳатто баъзида боғ-парк объектларда унинг аҳамиятига ҳали етарли ўрин ажратилмаяпти. Ландшафт лойиҳалашнинг экологик услуги ландшафт компонентлари- рельеф, ҳовузлар, оқовалар, ўсимликлар ва бошқалар орасидаги устувор муносабатларни аниқлаш ва табиий жараёнлар динамикасига муносиб яшаш муҳити лавҳаларини лойиҳалаш вазифасини бажаради. Архитекторлар доимий ўзгарувчан табиий материаллардан фойдаланиб, очиқ муҳитларни ташкиллаштиришади. Архитектор ҳар томонлама эгаллаган билимларига асосланиб, ўзининг ижодида ландшафт ҳолатини излаётганда унинг яхши сифатларини кўрсата олганидагина, инсон ва ландшафтнинг уйғунлигига эришиши мумкин.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, замонавий ландшафт архитектураси бир томондан этногенез (миллий илдизлар) ва анъанавий маданиятни асраш ва ривожлантиришга йўналтирилган умумдавлат муҳитини ташкиллаштиришининг махсус шакли бўлса, бошқа томондан- микрорайон, маҳалла, аҳоли пункти даражасидаги инсон яшаши конкрет (аниқ) муҳитининг лойиҳалаш воситасидир. Ўтган тарихий даврларда бебаҳо боғ-парк санъати ёдгорликларининг “буюртмачиси” ва кейин эгалари бадавлат хонадон соҳиблари бўлган. Замонавий шароитларда боғ-парк ансамблининг “буюртмачиси” ва эгаси ташкилотлар, юридик ва жисмоний шахслардир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Белочкина Ю. Ландшафтный дизайн. "Фолио", Харьков, 2006.
2. Рахимов К. Д. Ландшафт архитектураси. Дарслик, Тошкент, 2018.
3. Верзилин Н. По садам и паркам мира. М.: Учпедгиз, 1956.

SECTION: ECONOMICS

Musayeva Shoirazimovna, Berdikulov V.B., Usmonova Dilfuza Ilkhomovna
(Samarkand, Uzbekistan)

THE WAYS OF DEVELOPING OF E-COMMERCE IN RURAL RETAILS

Annotation: *This article discusses the use of e-commerce in the development of retail trade in rural areas. The authors studied the B2B e-commerce model (business-to-business) in rural retail networks and proposed a mechanism for their use in the supply chain.*

Key words: *retail trade, rural trade, electronic commerce, ecommerce sales*

(Problems of digitalization in the formation of an innovative economy in our country and ways to solve them)

Today, the question of raising the standard of living of the population has become the main goal of the reforms being carried out in the country. As the President of the Republic of Uzbekistan emphasized: "Everyone who lives in our country is free, peaceful and flourishing, regardless of nationality, language or religion-our main goal"¹. To achieve this goal, the importance of the uninterrupted provision of the population with necessary goods and services, and the satisfaction of the daily needs of the population, is growing. Improving the provision of food and non-food products of the rural population is one of the urgent problems of our time. The retail network of retailers, individual entrepreneurs in rural areas deals with this important issue. According to preliminary data, in January-November 2018, retail trade turnover amounted to 116681.5 billion Soums, which is 105.3% compared to the corresponding period of the previous year. 13.5% of retail trade turnover (15,742.3 billion Soums) was provided by large trade enterprises, and 86.5% (100,939.2 billion Soums) were provided by small enterprises, including 12.3% by unorganized enterprises². In cases where large trading enterprises are served mainly in urban areas, trade in rural areas is mainly carried out by small enterprises, including outlets, dekhkan markets and trading complexes.

Improving retail trade in rural areas and increasing its efficiency is a pressing issue not only in our country, but throughout the world. Studies show that there are more than 7.8 million unorganized outlets in 640,000 villages in India.³ Similar studies were conducted in England, the Russian Federation and other countries. Indicators of urban and rural retail turnover can be found in the following table.

¹ Application of the President of the Republic of Uzbekistan to the Oliy Majlis. People's Word, December 29, 2018 - 1b.

² Electronic source. https://stat.uz/uploads/docs/express/en/ichki_savdo_noyabr20181.pdf. Check-in time is 22.01.2019 y.

³ Dev Narayan Sarkar, Kaushik Kundu. The economic and social importance of unorganized retailers in rural India. Journal of Rural Studies : www.elsevier.com/locate/jrurstud 43 (2016) 159-172.

Table 1

Indicators of retail trade turnover in the Republic of Uzbekistan for 2013-2017 years⁴

№	The name of indicators	2013	2014	2015	2016	2017
1	Retail trade turnover, bln.sum. of that	36946	47011	58137	71184	88071
	In urban areas	27368	34597	44515	54385	67357
	In rural areas	9578	12266	13621	16799	20714
2	Share of goods turnover in rural areas, %	25,9	26,1	23,4	23,6	23,5

Retail services in rural areas are characterized by a number of characteristics, the most important of which is the low concentration of consumer demand in rural areas. In general, urbanization in the country has a low level of well-being in urban areas. and a sharp increase in the number of cities. Features of consumer demand in rural areas The main goal of this system is to have a unique retail environment in each of the individual regions. In each district and region there is a combination of retailers that are not replicated, such as stable trade in consumer demand, shopping complexes and unorganized economic entities. Their peculiarity over the years has been determined by various factors. At the same time, retail sales in rural areas in the room need to make fundamental changes.

Another aspect of rural retail services is the fact that the population is often a buyer and a seller. Rural people are interested in the sale of their own farm or produce, and at the same time, the purchase of necessary consumer goods. As a result, the retail environment creates a unique environment that combines the behavior of buyers and buyers.

In our opinion, the development of e-commerce is of great importance for the development of the retail system. The legal basis of this form of business has become clear today thanks to the country's legislation and government decisions. The development of e-commerce in rural trade depends on the development and implementation of organizational and methodological approaches.

The Law of the Republic of Uzbekistan "On Electronic Commerce" states that "the purchase and sale of goods (works, services), carried out in accordance with the agreement concluded using information systems, is electronic commerce". This term shows some difficulties and ambiguities for rural retailers. The problem is that in the process of satisfying the needs of consumers, the problem lies not in concluding a contract, but in corrections and additions in the process of its implementation. In order for a consumer to quickly and efficiently complete a customer's order, it is necessary to focus on strengthening electronic communications, and not on an electronic contract. In this regard, the mechanism of electronic communication proposed by us will be considered as "electronic commerce".

⁴ The table is based on the data of the State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. www.stat.uz

The widespread development of e-commerce in rural areas requires two main forms - B2B (business to business) and B2C (business to consumer). In this article, we will focus on e-commerce B2B, taking into account the complexity and scale of the problem.

The first type of e-commerce involves electronic communication between resellers. It is well known that the effectiveness of retail sales largely depends on the rapid delivery of consumer goods. Retail is a key issue that determines the efficiency of trading companies. The chain of transmission usually includes several intermediate segments, that is, intermediate. It will be useful for all interested parties to make rapid progress in this chain, reduce the number of reduction operations, perfectly distribute product routes and ultimately reduce transaction costs.

As it turns out, in rural trade, the B2B mechanism can be divided into two groups: commercial organizations that communicate with customers, and intermediary trade organizations that do not serve customers. What's the difference? The difference can be seen primarily in the economic interests and obligations to the buyer. The economic interests of retailers of the first type are to reduce inventory and accelerate turnover while maintaining the range of product range. Execution of direct sales contracts with customers will imply obligations on the quality of goods and the content of commercial services in these organizations.

This tool can be separated from commercial organizations by reducing the cost of processing goods, greater customer service, products for large parties and the cost of branding. The commitment of these enterprises to end customers is much lower.

Based on this, it is necessary to overcome the conflict of interest in e-commerce among rural retailers.

We believe that it is important to focus on several issues for the implementation of electronic commerce in the supply chain:

1. Explain the goals of digitizing activities and divide them into specific tasks;
2. Clearly define the spectrum of participants in the numerical system, separate their powers and responsibilities;
3. Development and implementation of e-commerce technologies and tools;
4. Evaluating the effectiveness of e-commerce in general and specific indicators.

When introducing the B2B e-commerce system in rural retail networks, the economic benefits of the participants are high, and the commercial goals are about the same, that is, reducing the cost of goods movement. Therefore, the implementation of this system will depend only on the resolution of organizational issues. In the case of e-commerce, you can speed up the movement of goods, reduce retail sales, distribute prices and more.

In our opinion, this process can be carried out at three levels:

- e-commerce between the entrepreneur and the local intermediary;
- individual entrepreneur - retail business - e-commerce in the network of regional dealers;
- retail trade - the organization of wholesale trade - electronic trade between direct manufacturers or their representatives.

There may be many views on the above processes, but the commercial scheme is about the same. The process of the first level is the easiest and serves to digitize the relationship of a local agent, which offers a wide range of products for a wide range of enterprises. The introduction of special e-commerce technologies, including block and cryptographic, is not required. Business entities can build strong relationships through ordinary websites or social networks. This system assumes that payments and payments are made through traditional channels.

Second-class e-commerce is used to unite many organizations. As a result, participants have different interests, priority distribution and distribution of goods. In this system, the question of where to form a brand and how to create a commercial range is a priority. In this connection, it will be necessary to create an electronic information center and a logistics center for storage and delivery of goods. This system is complex and highly efficient first. It should be noted that this system also has regional significance and does not imply the establishment of strong relationships with manufacturers.

The third level of e-commerce in retail covers not only rural but also commercial enterprises of the city, and also provides access to all manufacturers throughout the country. In this system, much attention is paid to the formation of a unified information base of all wholesale enterprises of the republic. At the same time, all units of the consumer goods assortment are included, which will allow for the search and delivery of necessary goods throughout the country. At this level of electronic communications, criteria are used to identify the participant, approve the application and ensure quick and accurate mutual reporting. Therefore, it is imperative that electronic information systems meet the requirements and use advanced information protection technologies.

The system is distinguished by its complexity and high efficiency, as before **(Photo 1)**. It should be noted that this system also has regional significance and does not imply the establishment of strong relationships with manufacturers.

This e-commerce system also includes not only outlets and outlets, but also merchants in dehqan markets and in shopping centers.

There are many factors that influence the widespread use of e-commerce in rural areas in Uzbekistan. The first is the lack of Internet speed, cost, and limited network capabilities. As it turned out, our country ranks 115th. Full implementation of e-commerce is a faster reform of the information system and bringing modern technologies in line with the capabilities of all consumers.

The second factor is the lack of knowledge about e-commerce of our entrepreneurs. Both retail and wholesale customers today are not ready for electronic communications.

In our opinion, today the development of e-commerce in rural retailers is an important task for the development of the Internet in order to provide knowledge and skills on the theory and practice of e-commerce from entrepreneurs. We consider it necessary to organize retail sales and personal trainings for commercial entrepreneurs.

Photo 1




Photo 1. E-commerce-based retail structure to improve the efficiency of rural sales services

1 - personal visit to a commercial enterprise; 2 - order via electronic communication channels; 3rd purchase (order); 4- electronic reservation for replenishment; 5 - delivery of goods; 6 - electronic contract of permanent replenishment of stocks; 7 - delivery of goods directly through the dealer or dealer network; 8 - electronic contract for the supply of agricultural products.

The use of e-commerce services in rural areas to improve the economic efficiency of commercial enterprises will lead to the full satisfaction of the needs of the population at the local level.

SECTION: HISTORY SCIENCE

**Araqulov Shahzod, Xudoyberdiyeva Mashhura
(Jizzax, O'zbekiston)**

HAZRATI ZAYNULOBIDDIN ZIYORATGOHI HAQIDA

O'zbeklar ongida muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar to'g'risidagi qarashlar va ularni muqaddas deb bilish juda uzoq tarixga ega. Xususan, o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarida, tarixiy manbalarda ziyoratgohlar bilan bog'liq ko'plab ma'lumotlar, afsona va rivoyatlar mavjudligi azaldan bunday madaniy meros ob'ektlari xalqimiz turmush tarzida muhim o'rin tutganligini anglatadi.

Tarixdan ayonki har qanday xalqning tarixiy maskanlari, jumladan, ziyoratgohlari shubhasiz o'sha xalqning turmush tarzi qay tarzda tarkib topganligini ko'rsatadi. Ularni ilmiy o'rganish karomatlari to'g'risidagi tadqiq etish esa o'sha xalqning o'tmishi qanday kechganligini aniqlashga yordam beradi.

Xususan, Forish tumanining eng chekka, Navoiy viloyati Nurota tumani bilan chegaradosh hududda Mojurum qishlog'idagi ziyoratgoh [1]. Mahalliy aholi o'rtasida ziyoratgoh va unga nomi berilgan Hazrati Zaynulobiddin to'g'risida quyidagicha rivoyat bor. "Hazrati Zaynulobiddinni islom dinini targ'ib qilib yurgan vaqtlarida otasi ko'z o'ngida dushmanlar o'ldiradi va u kishining tanalari Mojurum qabristonida va boshlari CHustda", u kishining karomatlari to'g'risidagi boshqa bir rivoyatda, "Bu avliyo sifat kishini tanalari faqat nomoz o'qiyotgan vaqtlarida bo'shashadi boshqa paytlarda belbog'larini echmasa u kishiga o'q yoki qilich zarbi ham ta'sir qilmagan" [2] deyiladi. Ziyoratgoh va unga nomi berilgan hazrati Zaynulobiddin to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash mobaynida bir qancha axborotchilar bilan suhbatlashdik ammo, ular bu shaxs to'g'risida etarlicha aniq ma'lumotlarni berisha olmadi. Lekin ziyoratgoh to'g'risida, asli ushbu qishloqlik bo'lgan Rustamjon Rahmatullozodaning "Ajdodlar merosiga ehtirom" deb nomlangan, 2006 yil "Fan" nashriyotida nashr etilgan risolalarida bir qancha aniq ma'lumotlar berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayxon Beruniy nomidagi SHarqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan "Xazinat ul-asfiyo" kitobida keltirilishicha musulmon olamida ikki zot Zaynulobiddin degan laqab olgan. Bu laqabni birinchi bo'lib hazrati Ali ibn Husayn ibn Ali Murtazo olganlar. U zotning kunyalari – Abulhasan, laqablari Zaynulobiddin bo'lib 36 yoki 38 hijriy yilda Madinada tug'ilganlar, onalari bibi SHahribonu Eron podshosi YAzdijardning qizi bo'lganlar. Nomi zikr etilgan kitobda keltirilishicha, imom Ali ibn Husayn kechasi nomozni tahajjud o'qiyotganlarida shaytoni la'in ajdaho suratiga kirib, u kishini namozdan to'xtatish uchun kirib keladi. U zot unga e'tibor ham qilmaydilar, oqibatda ajdaho oyoqlariga nish uradi. Ammo hazrat oyoqlari qattiq og'rig'iga va shishganiga qaramay, namozni tark qilmaydilar. Oloho taolo u zotga uning shayton ekanligini ma'lum qiladi. SHunda u zot "la havla"ni o'qib, uni tarsaki bilan uradilar, u tutunga aylanib g'oyib bo'ladi. SHu onda g'aybdan "yo Zaynulobiddin" degan ovoz keladi, shundan so'ng u kishiga Zaynulobiddin laqab bo'lib qoladi ("Xazinat ul-asfiyo", 31-bet).

Ikkinchi Zaynulobiddin degan laqabni olgan zot hazrat Hasan ibn Ali ibn Abu Tolibning 24-avlodlari, ya'ni hazrat Alining 25-avlodlarining ismlari – Alouddin, laqablari – Zaynulobiddin. Hazrati Zaynulobiddin ayni yigitlik davrlarida Nogur yo'lida otasining ko'z oldida yo'lto'sarlar qo'lida shahid bo'ladilar ("Xazinat ul-asfiyo", 124-bet). Taqriban 895 yilda tug'ilib, 915 yillarda shahid bo'lganlar. "Xazinat ul-asfiyo"da keltirilishicha, Sayid Alouddin, Sayid G'avsul-a'zam Abdulqodir Jiloniyning 12-avlodlari hisoblanadi. Hazrat Abdulqodir Jiloniy hazrat Hasan ibn Ali ibn Abu Tolibning 12-avlodlaridir. Hazrat Abdulqodir Jiloniy 562 hijriy yilda tug'ilganlar va to'qson yili, etti oy, to'qqiz kun umr ko'rganlar. Bu ulug' zotning to'qqiz farzandlari bo'lib, to'qqiz farzandlarining hammalari ulug' maqomlarga, zohiriy va botiniy ilmlarga ega bo'lganlar. To'rtinchi o'g'illari shayx Tojiddin Abdurazzoq bo'lib, u zot besh farzand ko'rganlar: 1. SHayx Abu Solih. 2. SHayx Abulqosim. 3. SHayx Abdurahim. 4. SHayx Abulmahosin. 5. Sayid Jamolulloh.

Shayx Sayid Jamolulloh buvalari Abdulqodir Jiloniyga juda ham o'xshashligidan hazrat G'avsul A'zam mazkur nevaralarini juda yaxshi ko'rganlar. SHu boisdan SHayx Sayid Jamolulloh buvalarini duolari barokotidan uzoq umr ko'rganlar. Bu zot ko'pincha Samarqandda yashaganlar ("Xazinat ul-asfiyo", 109-bet). Samarqand viloyati Urgut tumanida G'avs (G'us) degan qishloq va ziyoratgoh bor. Modomiki Sayid Abdulqodir Jiloniy hazratlarining nabiralari Samarqandda yashaganlari haqida aniq ma'lumot bor ekan, demak, bundan u zotning avlodlari Urgutga kelib istiqomat qilganlari haqiqatdan uzoq emasligi kelib chiqadi. Endi Mojurumdagi hazrati Zaynulobiddinga kelsak u zotning bobolari Samarqand va undan keyingilari Urgutda istiqomat qilgan bo'lsalar, bu zotning ham Mojurumga kelgan bo'lishlari mumkinligi ayon bo'ladi [3, 4-7].

Yuqorida keltirilgan dalillardan ziyoratgoh Hasan ibn Ali ibn Abu Tolibning 24-avlodlari, ya'ni hazrat Alining 25-avlodlari bo'lgan ismlari – Alouddin, laqablari – Zaynulobiddin nomi bilan bog'liq degan xulosaga kelish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Дала тадқиқотлари. Фориш тумани, Можурум қишлоғи. Ҳазрати Зайнулобиддин зиёратгоҳи. 2016 йил апрел.
2. Рахимов Жўрабой. Можурум ҚФЙ раиси. 2016 йил, апрел.
3. Рустамжон Раҳматуллозода. Аждодлар меросига эҳтиром. - Т.: 2006.

Kamalova D. Z., Narziyev A. Q.
(Samarkand, Uzbekistan)

O'RTA – OSIYO TARIXIY SHAXARLARINI QAYTA TIKLASHNI ASOSIY TAMOILLARI

Аннотация: В статье рассмотрены вопросы традиционных и современных принципов реставрации исторических городов Средней Азии.

Annotation: The article deals with the issues of traditional and modern principles of restoration of the historical cities of Central Asia.

Mamlakatimiz o'z mustakilligiga erishgach tariximiz va qadriyatlarimizni tiklashga katta e'tibor berilmoqda. Istiqlol yillarida Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Shahrisabz, Qarshi va poytaxtimiz Toshkentning yubileylari jahon miqyosida keng nishonlandi.

O'rta osiyo shaharsozligi me'morchiligida shuningdek hozirgi me'morchilik uslublari ishlab chiqarish an'anaviylik, milliylikni yangi uslublari tarixiy, hozirgi va kelajak shaharsozligini muhim masalalaridan biridir. O'rta Osiyo shaharsozligi tarixida an'anaviylik nomoyon bo'lmaganda hozirgi va kelgusi shaharsozlik shakllanishi biz uchun yuqori pog'onada asosli ishonch bo'ladi. Mana shunday ishonchni ustuvor an'analari samarasida yaratiladi deb ta'kidlagan edi rus sosiologiya maktabining namoyandasi V.M. Xvostov. An'analarning bir qancha ko'rinshlarini va xillarini uchratishimiz mumkin bo'lgan uslublar me'morchilikda milliy va umumisoniy qadriyatlar bilan uyg'ulashganigina ajdodlardan avlodlarga yetib keladi va uning qadr - qiymati o'tgan asrlar davomida turlicha bo'lgan. Tadqiqotcholarining ma'lumotlarida ko'ra o'tgan asrlardagi o'zarishlar progressiv xarakterda nomoyon bo'lsa, keyingi asrlarda buning aksi regressiv xarakterda shakllanishi amalga oshirilganligi ko'rsatilgan.

O'rta Osiyo shaharsozligi shakllanishi ma'lum davrda paydo bo'lgan an'analari shakllanishi keltirilgan tamoyillarini ko'rsatishimiz kerak. Va bular shakllangan tamoillar asosidagi uslublar shaharlar aholisi foydalanishi uchun qulay o'z davri talablarga javob beradigan, aholi uchun paydo bo'lgan masalalar javob berishga imkoniyat yaratadi. Biz tarixiy shaharlarni qayta tiklash jarayonida ushu tamoillardan foydalanishimiz va yangi uslublar bilan uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Zamonaviy me'morchilik haqiqiy an'analardan biri bu haqqoniylikda namoyon bo'lganligidir. Hozirgi davrdagi zamonaviy me'morchiligimiz jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, g'oyaviy va badiiy talablarga haqqoniylik darajasida haqiqiyiligi namoyon qilishi kerak. Biz bulardan an'analardan foydalanib ta'moillarga asosanib, me'morchilik uslublaridan qayta tiklash jarayonida nomoyon qilishimiz uchun biz jamiyatimiz yuqori cho'qqisidagi iqtisodiy va ijtimoiy tomondan badiiy, estetik, milliy uslubdagi tarixiy shaharlar loyihalarini yaratishimiz bizning buyuk tariximizni o'z asarlarimizda nomoyon qilishimiz kerak. An'anaviylik va yangi zamonaviy uslublardan me'yorida qo'llash tarixan shakllangan shaharlarimizni ta'mirlash va qayta qurish ishlarida natijasida ular bilan asrlar davomida avloddan avlodga mustahkam yekazishimiz bu bizning muvoffaqiyatimiz bo'lishi mumkin. Milliy me'morchilik uslublarining yangilanib borishi bu aholi foydalanishi uchun qulaylik

darajasining oshib borayotganini ko'rsatadi. Shaharsozlikning yangi uslub, ta'moillar, an'analar aholi uchun kerakli qulay va obod markazlar yaratilishining asosi hisoblanadi. Ayni vaqtda bularning hammasi industrial texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishirilib foydalanilish aqilli binolar, aqilli shaharlar qurilishi jarayonida amalga oshirishni ta'minlash zamonaviy shaharsozlikda muhim ahamiyatga egadir. Shaharsozlik sohasida bu uslublar mustahkamligi va qurilish mahsulotlari milliy badiiy va estetik uslublarini namoyon qilishda qo'llanilishi an'alarimizning asosini tashkil qiladi. O'tgan asrda ko'p qo'llanilgan funksionalizm me'morchilik uslubi salbiy fikr yuritishdan mumkin, lekin, lekin bu uslubni qayta tahlil qilib ushbu yangi uslublar ishlab chiqib kelajakdagi loyihalarimizda qo'llashimiz mumkin. Buning uchun biz bu uslub asosini milliy me'morchilikimizga umumiylik va osonlik muhitlar uchun qulay sharoit turli davr vaziyatlariga mos keladigan darajada o'zgarish imkoniyatiga bo'lishi zarurdir.

Shaharsozlik shakllanish an'analarni darajasini o'rganishda zamonaviy me'morchilikda ushbu an'analarni ma'lum hudud yoki ma'lum shaharga aloqadorligi muhimdir. Bu turdagi arxitekturaviy va dekorativ uslublardan foydalanish orqali mahalliy va hududiy imkoniyatlarni ta'minlashnlanishi, ya'ni muhitni yaratilishda moliyaviy, ijtimoiy, tabiiy, iqlimiy va milliy xususiyatlardan foydalanishni bildiradi. Anashunday asosida rivojlanib borgan an'alar umumiy xususiyatga namoyon bo'lib, me'morchilik sohasini uslubiy pog'onasida ko'rinadi. Shuningdek me'moriy an'analarni tadqiq qilishga qaratilgan izlanishlar insonlarga shodlik baxsh etishi bilan birga madaniy me'rosimiz kelajak avlodga yetkazishda ham o'z hissasini qo'shadi.

O'tgan davr amaldagi me'rosidan foydalanish zaruriyati va imkoniyati me'moriy uslublarning yangicha g'oyalari bilan bilan chambarchas bog'liqdir. Me'morlar o'z loyihalarini o'tgan davr me'morchilik namunalarga taqqoslash bilan ko'radilar. Ayni vaqtda eng murakkab masalalardan an'alar va yangicha o'zgartirishni asrlar davomida rivojlangan shaxarlarni ta'mirlashda va qayta qurish jarayoni kiritish mumkin. Bir qancha tadqiqotchilar ushbu masalalar boyicha bir qancha ilmiy tadqiqotlar davomida yuqoridagi masalalarga turlicha yondashishgan. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra o'tgan davr shaharsozlik va me'morchilik na'munalarni yaratilish xususiyatlari bilan progressiv xarakterda bo'lganligi sababli hozir ham keng me'qiyosda qo'llanilishini keltirib o'tishimiz mumkin. Me'moriy merosni zamon bilan hamnafas ijodiy o'zlashtirilishi V.Ki aytgan edi. Lekin shuni aytish kerakki tarixiy shaharlarni ta'mirlash va qayta qurish jarayonida bir qancha qarshiliklarga uchradi. Nazariy bilimlar tomondan taklif etilgan loyiha, uslub va qoidalar qurilish jarayonida o'z tasdig'ini topmaydi. Asrlar davomida rivojlanib shakllangan shaharlarni qayta tiklash va zamonaviy umumiy me'morchilikda bir turdagi qoidalardan foydalanib bo'lmaydi. O'tgan asrlar davomida shakllangan shaharlarni qayta tiklash va qurishda tarixiy muhitni namoyon qiluvchi hajmiy va fazoviy elementlar eng muhim vaqtda, zamonaviy umumiy me'morchilikda aholining turmush tarzidan kelib chiqib, ular uchun qulay va ularning talabiga javob beradigan va har bir shaharning o'ziga xos jihatlarini saqlab qoluvchi unsurlar asosiy hisoblanadi. Bir qancha tadqiqotchilarning ma'lumotlarida keltirilishicha O'rta Osiyo o'tgan asrlar davomida shakllangan shaharlar qiyofasi yangilanib turuvchi zamonaviy imkoniyatlarini kelajak avlodga yetkazish maqsadida tarixiy shaharlar qiyofasiga namoyon qiluvchi loyihalarini yaratishimiz maqsadga muvofiqdir. O'rta

osiyo shakllangan ko'hna shaharlar qiyofasi va muhitni qayta tiklash va qurilishida biz milliy an'analardan foydalanish va ularni yangilangan usulda an'nlarni zamonaviy me'morchilikda qo'llanilishi hozirigi zamon shaharsozlik qurilishida foydalanishimiz lozim [2].

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikgi o'z tarixiy shaharlarining qayta tiklanishiga turtki bo'ldi. Yurtimiz ming-ming yillik me'morchilik va shaharsozlik namunalari qayta tiklandi va ta'mirlandi. Madaniy va manaviy merosimiz qayta tiklandi.

Samarqand shahrining 2750 yillik, Buxoro, Xiva va Termiz shaharlarining 2500 yillik, Shahrisabzning 2700 yillik, Toshkent shahrining 2200, Marg'ilon shahrining 2000 yillik yubileylari o'tkazildi. Ajdodlarimiz Soxibqiron Amir Temur, Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy kabi bir qancha dunyo tanigan kishilarning maqbaralari mamlakatimizning bosh me'mori – O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning boshchiligidagi yuqori darajada restavratsiya qilindi, tubdan qayta qurildi va yangidan tiklash ishlari olib borildi.

O'rta Osiyo hududidagi O'zbekistondagi tarixiy shaharlarni qayta qurish va tamirlash shaharsozlik soxasining murakkab masalalaridan hisoblanadi. O'tgan asrlarda paydo bo'lgan tarixiy shaharlarni qayta qurish va tamirlash chet el shahar va davlatlarida kuzatilgani singari, shaharlarning moddiy - fazoviy muxitini yangilash va qayta qurish qaratilgan. Yuqorida keltirilgan barchasi shaharsozlik uslubining obida va yodgorliklaridan qo'llanilishi va ularni saqlash jamiyatimiz tezlik bilan o'zgarib boryotgani ijtimoiy-funksional jihatdan mustahkam himoyaga talablariga javob berish maqsadini o'zida mujassam etadi. Qayta qurish va tiklash jarayoni shahar tarixi, iqlimi, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlariga ko'ra turli davlatlarda bir biriga o'xshamagan tarzda amalga oshiriladi. Shunindek shahar rivojlanishining xo'jaligining ilmiy-texnik, iqtisodiy, qayta qurishning ijtimoiy-siyosiy ko'rinishida nomoyon bo'ladi.

Shaharlarni qayta qurish, tiklash ishlari boshlanishidan avval tarixiy me'moriy obida va binolarni qayta tamirlash tikash loyihasiga muvofiq qayta qurish jarayonida shaharning me'moriy ko'rinishini qayta tiklash, tamirlash, yoki yangicha zamonaviy ko'rinishda shakllantirishni qayta qurilish, tamirlash jarayoni va uning loyixasining mukammal bo'lishligini ta'minlash, qurilish ashyolarining sifati kabi bir qancha jarayonlar o'z ichiga oladi. Qayta ta'mirlash va qurish ishlari shaharning bosh rejasi, binolarning qurilish uslubi, muhandislik va texnik asbob – uskunalarining muddatini o'tab bo'lishi yoki yaroqsizligi kabi ko'plab uchraydigan, yangicha zamonaviy talablar asosida paydo bo'ladi. Shahar aholisi yaxshi hayot kechirishi va shaharsozlik, me'morchilikning shakllanishi uchun shaharda istiqomat qiluvchi aholining bir qancha kasb – hunar bilan shug'ullanishi uchun imkon darajada sharoit yaratish va bu yaratilgan shaharsozlikning yuqori qadr – qimmatga ega bo'lgan me'moriy me'rosini asrab avaylash va shaharsozlikning zamonaviy yangiliklarni shahar qurilishining hamma bino inshootlarida qo'llashni shahar markazlarida qayta qurish juda murakkab masaladir.

O'rta Osiyo hududida joylashgan O'zbekistondagi tarixiy shaharlarni qayta qurish va ularni tiklashdan maqsad ko'p asrlik tarixga ega milliy qadriyatlarimizni nomoyon etuvchi me'moriy merosimizni kelajak avlodlarimizga mustahkam yetkazish, aholini ish bilan ta'minlanishi, madaniy hordiq olish, bizning buyuk ajdodlarimiz bunyod qilgan tarixiy shaharlarimizga ega ekanligimiz, ularni dunyo

The ethics of speech communication begins with the observance of the conditions for successful speech communication: with a benevolent attitude towards the addressee, demonstration of interest in the conversation, "understanding understanding" - a mood for the interlocutor's world, sincere expression of his opinion, and sympathetic attention. This requires expressing one's thoughts in a clear form, focusing on the recipient's world of knowledge. In idle talk spheres of dialogue in dialogues and polylogs of an intellectual, as well as "game" or emotional nature, the choice of the topic and the tone of the conversation are of particular importance.

Signals of attention, participation, correct interpretation and sympathy are not only regulative cues, but also paralinguistic means - facial expressions, smile, glance, gestures, posture. A special role in the conversation belongs to the view. Thus, speech ethics are the rules of proper speech behavior based on moral norms and national-cultural traditions.

Ethical norms are embodied in special etiquette speech formulas and expressed in statements by a whole ensemble of multi-level means: both full-valued word forms, and words of incomplete parts of speech (particles, interjections).

The main ethical principle of verbal communication - respect for parity - is expressed, starting with a greeting and ending with a farewell throughout the conversation.

Speech culture is the ability to correctly speak and write, as well as use language means in accordance with the goals and conditions of communication. Speech is correct, which is consistent with the norms of the literary language (pronunciation, grammar, vocabulary). Genuine culture of speech is achieved by the skillful and appropriate use of vocabulary of different styles, a variety of syntactic constructions; Oral speech is especially valuable wealth of intonation. It is necessary to have a clear idea of the stylistic gradation of linguistic elements, of their various uses.

For the successful implementation of communicative tasks, an understanding of the areas of communication is necessary. In the typology of functional varieties of language, the language of fiction and colloquial speech occupy a special place. Formal, business, scientific and journalistic are distinguished as functional styles, which by their language organization have significant differences from both the language of fiction and from colloquial speech.

Support, or rather the core, the skeleton of the Russian literary language is the literary norm. In the process of active language policy in science, ideas about the normalization of the language, its codification, deviations from the literary norm, errors and language variants were formed.

REFERENCES:

1. V. von Humboldt., Izbranniye trudy po yazykoznaniyu. Translated from German/obshaya redaktsya G.V.Ravishvili; posleclovie A. V. Gulygin and V.A.Zveginstev – M.,: OAO Progress, 2000
2. V.V.Vorobiev. Linguoculturologya (teoria i metody) Monografia.- M.:Izdatelstvo RUDN, 1997
3. Scollo, M. Mass media appropriations: Communication, culture, and everyday social life. PhD diss., University of Massachusetts Amherst, Amherst, MA. – 2007
4. Wilmot, W. W. Dyadic communication: A transactional perspective. NY: Random House. – 1980
5. Watzlawick, P., Beavin J. H. & Jackson D. D. Pragmatics of human communication. NY: W. W. Norton. - 1967

Turayeva Muborak
JSPI
(Jizzakh, Uzbekistan)

THE IMPACT OF CULTURE OF SPEECH ON THE SPIRITUAL DEVELOPMENT OF MANKIND

Summary: *Speech culture and literary language are closely interrelated. The ability to clearly express your thoughts, speak competently, the ability not only to attract attention with your speech, but also to influence listeners, knowledge of speech culture is a peculiar characteristic of professional fitness for people of various professions: diplomats, lawyers, politicians, teachers, radio workers and television, managers, journalists, etc. It is important to have a culture of speech to own everyone who, by the nature of their activities, is connected with people, organizes and directs their work, conducts business negotiations, educates, cares about health, and provides various services to people. The choice of the necessary language tools for this purpose is the basis of the communicative aspect of the culture of speech.*

Keywords: *culture, language, research, quality of speech, literary language, communication*

The culture of speech is a multi-valued concept. One of the main tasks of the culture of speech is the protection of the literary language, its norms. It should be emphasized that such protection is a matter of national importance, since a literary language is exactly that which unites the nation in terms of language. Creating a literary language is not easy. It cannot appear by itself. The leading role in this process at a certain historical stage of the country's development is usually played by the most advanced, cultural part of the society.

Language is a mirror of culture, it reflects not only the real world surrounding a person, not only the real conditions of his life, but also the public self-consciousness of the people, their mentality, national character, lifestyle, traditions, customs, morality, value system, world outlook, vision of the world.

Language - treasury, pantry, piggy culture. It stores cultural values - in vocabulary, in grammar, in idioms, in proverbs, sayings, in folklore, in artistic and scientific literature, in the forms of written and oral speech.

If we consider language from the point of view of its structure, functioning and ways of mastering it (both native and foreign), then the sociocultural stratum, or cultural component, turns out to be part of the language or the background of its real existence.

At the same time, a cultural component is not just some cultural information communicated by language. This is an inherent property of the language, inherent in all its levels and all branches. Language and society are closely related to each other. As there can be no language outside of society, so a society cannot exist without a language. Their influence on each other is mutual. The culture of speech is an indicator of culture, both of an individual and of society as a whole. The more careful the attitude to the cultural heritage accumulated by mankind, including the attitude to the Russian language, the longer the national culture will be preserved.


Modern language development is influenced by two conflicting forces: on the one hand, there is a clearly visible active line of influence on the literary norm on the part of the released potential of conversational speech, its promotion to the public sphere, to mass communication. And this power is supported by the processes of borrowing foreign words, caused by the inclusion of Russia in the global economic, political, cultural system. On the other hand, there is an equally strong, although perhaps less noticeable, impact on the literary language of the norms and language standards of the nationalized language of the times of totalitarianism.

As a result, we are dealing with a general decline in the cultural and verbal level, which naturally affects the daily language life of society, the “state” of the language.

The object of the research is the problem of forming a culture of speech of a person.

The subject of research is the culture of speech and the culture of communication as the best way to achieve your communication goals.

We put forward the following tasks:



Speech activity occupies an important place in the life of a modern person; without it, neither a mastery of professional knowledge, nor general cultural development is inconceivable. The ability to conduct a dialogue becomes one of the main characteristics of a person as a social phenomenon.

Analysis of scientific literature on linguistics, cultural studies, and pedagogy show that the notion “culture of speech” is interpreted as possession of the norms of the literary language in its oral and written form, in which the selection and organization of linguistic means are used to ensure the greatest effect in achieving the objectives of communication.

The term culture of speech is significant. "The culture of speech is a set of knowledge and skills that provide the author of speech with an uncomplicated construction of speech statements to optimally solve communication problems. The culture of speech is a combination and system of properties and qualities of speech that speak of its perfection. The culture of speech is a field of linguistic knowledge of system of communicative qualities of speech".

Three components were established: normative, communicative and ethical. At the same time, such qualities of speech as emotionality, expressiveness, figurativeness, intuitiveness play an important role for the disciplines of the cultural cycle. It is advisable to highlight the aesthetic component of the culture of speech. Based on the foregoing, the culture of speech consists of four components: normative, communicative, ethical and aesthetic

The normative aspect of the culture of speech is one of the most important, but not the only one. He assumes knowledge of literary norms and the ability to apply them in speech. However, the effectiveness of communication is not always achieved by one accuracy. It is important to consider to whom the text is addressed, to take into account the awareness and interests of the addressee.

The concept of speech quality is important. The qualities of speech are the properties of speech that ensure the effectiveness of communication and characterize the level of the speaker's speech culture. Philology distinguishes the speech culture of the individual; speech culture of society.

The speech culture of the individual is individual. It depends on the erudition in the field of speech culture of society and is the ability to use this erudition. The speech culture of the individual borrows a part of the speech culture of society, but at the same time it is wider than the speech culture of society. Proper use of language implies its own sense of style, faithful and sufficiently developed taste.

Of course, within the framework of the science of speech culture, not only examples of a high level of knowledge of literary norms and rules of communication are considered, but also cases of violation of norms both in the speech activity of an individual and in the speech practice of society. Successful communication between people requires the communicative competence of the participants in such communication. Communicative competence is a combination of knowledge, skills and skills of adequate reflection and perception of reality in various situations of communication. The basic concepts of the culture of speech are also such concepts as literary language, norms of the language, style, language standard, language personality, types and forms of speech, speech etiquette.

REFERENCES:

1. Arutyunova N. D. Yazyk // Russkiy yazyk. Entsiklopediya. M., 1997
2. Rojdestvenskiy Y.V. Lektsii po obshemu yazykoznaniyu. M., Dobrosvet, 2000
3. Sokolova V. V. Kultura rechi i kultura rechi I kultura obsheniya. M.: Prosvesheniye, 1995
4. Carbaugh, D. Cultural discourse analysis: The investigation of communication practices with special attention to intercultural encounters. Journal of Intercultural Communication Research. – 2007
5. Keltner, J. W. Interpersonal speech-communication: Elements and structures. Belmont, CA: Wadsworth. 1970

Ubaydullayeva Umida Abdushukur qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
(Tashkent, Uzbekistan)

TANQIDIY TAFAKKUR BADIY OCHQICH SIFATIDA

Annotatsiya: *Tanqidiy fikrlash - keskin o'zgarishlar dunyosi bo'lgan axborot asrining muhim talablaridan biridir. Ta'lim oluvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirishda adabiyot darslarining o'rnini beqiyos. Ushbu maqolada badiiy asar tahlili jarayonida tanqidiy tafakkurni shakllantirish, shuningdek, tanqidiy fikrlashning badiiy asar mohiyatini tushunishdagi o'rnini xususida fikr yuritildi.*

Tayanch so'zlar: *Tanqidiy fikrlash, badiiy asar, badiiy tahlil, obraz.*

Annotation: *Critical thinking is one of the most vital (crucial/important) necessities of the information age, the world of sharp changes. The role of literary (literature) lessons in the formation of critical thinking in the students is remarkable (incomparable). This article is devoted to explain the role of critical thinking in the analysis of literary works as well as the role of critical thinking in understanding the essence of art.*

Key words: *Critical thinking, literary work, literary analysis, image.*

Har qanday davlatning rivojlanishi uning intellektual salohiyatiga bog'liq. Intellektual salohiyat xalqaro andozalarda zamonaviy taraqqiyotni ta'minlay oladigan mustaqil fikrli, malakali, yuksak insoniy fazilatlariga ega kadrlarni tayyorlash mezonini deb qaraladi. Bugungi jadal rivojlanayotgan axborot asri o'sib kelayotgan yosh avlodni tez o'zgaruvchan sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlashni taqazo etadi. Axborotlar girdobi ortib borayotgan hozirgi davrda zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri atrof-olam voqea-hodisalarini mustaqil tahlil qila oladigan shaxsni kamol toptirishda namoyon bo'ladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish hamma zamonlarda ham dolzarb masala bo'lib kelgan. S.H. Yaminova adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ssenariy o'qitish usulidan foydalanish [1]; Q.P. Husanboyeva adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari [2]; B.X. Xodjayev umumta'lim maktabi o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirishning didaktik asoslari [3] yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishgan. M. Mirqosimovning doktorlik ishi o'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan.[4]

Adabiyot o'qitish metodikasi sohasida bu masala ayrim metodist olimlarimizning ishlarida muayyan darajada o'rganilgan. Q. Qo'ldoshev [5], S. Matjonov [6], B. To'xliyev [7], R. Niyozmetova [8] kabi olimlarning tadqiqotlarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishga oid qarashlar mavjud. A. Boltayeva "Adabiyot darslarida tanqidiy tafakkurni rivojlantirish negizida o'quvchilarni badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga o'rgatish metodikasi" mavzusida tadqiqot olib bormoqda. Biroq adabiyot darslarida o'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish masalasi alohida tadqiqot obyekti sifatida hali to'liq o'rganilmagan.

Demokratik jamiyatda erkin va tanqidiy fikrlay oladigan shaxslar qadr-

qimmatga ega bo'ladilar. O'z navbatida ular boshqalarning intilish va fikrlarini qadrlay oladilar. [9: 84]

Tanqidiy fikrlashbu - aqliy faoliyatning eng yuqori darajasi bo'lib, unda tahlil, taqqoslash, izohlash, qo'llash, tortishuv, yangilik, muammolarni hal qilish yoki fikrlash jarayonini baholashga alohida e'tibor beriladi.

Badiiy asar tahlili jarayonidagi muhokamalarda asar, odam yoki hodisa, ularning o'zaro aloqasi yoki munosabatlari ochiladi. Ma'lumki, badiiy asar insonning ichki dunyosi, fikr, tuyg'u va tushunchalariga ta'sir ko'rsatadi. Ichki mantig'i kuchli bo'lgan badiiy asargina kitobxon ruhiga jiddiy ta'dir ko'rsatishga qodir bo'ladi. O'quvchilar asar qahramonlari timsolida, ularning xatti-harakatlari asosida odamni taftish qilishadi, faoliyatiga, tuyg'ulariga tayanib shaxsini baholashadi, munosabat bildirishadi. Shu tariqa asarning ichki mantig'i, haqiqatlari, inson shaxsi o'quvchining o'zi tomonidan kashf qilinadi. Asar va muallif baholanadi. O'quvchida munosabat paydo bo'ladi. Aslida tanqid to'plangan qator ma'lumotlar asosida tahliliy muhokama qilishdir. Bolani shunday belgilarni qidirishga va ularni tahlil qilishga o'rgatish o'quvchini jiddiy fikrlashga, ehtiyotkorlik bilan mulohaza yuritishga moyil qiladi.

O'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishda savol va topshiriqlar katta ahamiyatga ega. Savol berish, ayniqsa, yaxshi savol berish – tanqidiy fikrlash uchun juda muhim. O'qituvchi badiiy asar tahlilida muammoni aniqlaydi va bu muammoning sabablarini aniqlashga qaratilgan savollarni o'rta tashlaydi. To'g'ri tuzilgan savollar javoblarda turlichalikni yuzaga keltiradi va sinfda munozarali muhit paydo bo'ladi. O'quvchilar asar qahramonlarini tanqidiy baholash barobarida o'z-o'ziga ishonchni ham rivojlantirib boradi. Har bir o'quvchi, kitobxon asarni o'zicha o'qiydi, o'zicha tushunadi, o'zicha his etadi va o'zicha xulosa chiqaradi. O'quvchilar o'rtaida bir asar yuzasidan o'zaro o'xshash fikrlar bo'lishi mumkin bo'lgani kabi mutlaqo bir-biriga to'g'ri kelmaydigan qarashlar bo'lishi ham mumkin. Bu holatda o'qituvchi qarama-qarshi fikrlarni ham hurmat bilan eshitish ko'nikmasini rivojlantirib borishi kerak.

Badiiy asar qahramonlarini o'rganish, ularni tahlil qilish davomida o'quvchilarning har bir obrazga nisbatan munosabati, uning xatti-harakatlarini baholovchi hukm – xulosasi yuzaga keladi. Holatlar, kechinmalar, harakatlarning haqiqiy va tabiiy tarzidagi tasviri kitobxonda ham tabiiy tuyg'ularni hosil qiladi yoki tabiiy ravishda g'azab-nafrat hissini qo'zg'ab, ezgulikni ulug'lashga chorlaydi. Masalan, akademik litseylarning III bosqichida o'rganish uchun berilgan Said Ahmadning "Qorako'z Majnun" hikoyasiga e'tibor qaratilsa, adib bor mahoratini, mavjud imkoniyatlarni qahramon dunyosidagi iztirobli kechinmalarni tabiiyligicha tasvirlashga yo'naltirgan. Til imkoniyatlarining ma'lum qismi o'sha iztiroblar iskanjasidagi inson qiyofasini ko'z oldimizda gavdalandirishga xizmat qilgan bo'lsa, boshqa bir qismi uning ruhiy holatini tasvirlashga, kechinmalar, tuyg'ular ruhini to'raligicha ifoda etishga qaratilgan. Bosh qahramon Saodat aya dunyosidagi iztiroblar chuqurlashgan chog'da kechinmalardagi murakkablikni, hislar quyunini ifoda qiladi. Farzandlari taqdiridan kuygan Ona kechinmalari va asar mohiyatini ochishga xizmat qiluvchi sadoqatli jonivor – Qorako'z Majnunning tasviri kitobxonga ta'sir ko'rsatadi.

Hamma dardga chidab kelayotgan Onaning yakka-yu yagona o'g'lining bo'ynida xoch tasviri tushirilgan bo'yintumorni ko'rgandagi ahvoli, alami, iztirobi tasviriga o'quvchilar diqqatini tortish muhim, chunki qahramon ruhiyatida sodir

bo'layotgan o'zgarishlarni, kechinmalarni o'quvchilar o'z qalbi orqali his etadi. Asarni sinchiklab o'qisak, yana bir muhim nuqta: ongsiz mavjudot – Qorako'z Majnunning o'z bekasi Saodat ayaga sadoqati timsolida insoniyatga xos qusurlar ayovsiz fosh etiladi.

Asar tahlili davomida o'quvchilarga quyidagi topshiriqlarni berish mumkin:

Bo'riboyni qilmishining asl negizlari va Ona iztiroblarining sabablarini izohlang.

Qorako'z Majnun tasviri va asarda uning zimmasiga yuklatilgan vazifa xususida mulohaza yuritng.

Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasining 8-sinfda berilgan "Qochoq" parchasini yodga oling hamda undagi Ona bilan "Qorako'z majnun"dagi Ona timsollarini qiyoslab, ularning umumiy va farqli jihatlarini yoritishga harakat qiling.

Shuningdek, o'qituvchi o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilishi ham maqsadga muvofiq:

1. Bo'rixon nima uchun o'zbekka o'xshamay qolgan? Uning e'tiqodida qanday bo'shliqlar bor deb o'ylaysiz?

2. Saodat ayaning Bo'rixonning bolalikdagi kiyimlarini olovga tashlashida qanday ma'no bor?

3. Hikoyadagi "...Kampir shu jilmaygancha ichidagi muz erimay osongina jon berdi" degan gapga e'tibor bering. Saodat ayaning "ichidagi muz" nima edi?

4. Itning o'limiga kim aybdor?

5. Inson va hayvonlarning tabiati haqida gapiring.

Fikrlar tinglanadi, qo'llab-quvvatlanadi va dars yakunida fikrlar umumlashtiriladi.

Shunday qilib o'quvchilarda adabiy tahlil orqali tanqidiy tafakkurni shakllantirish didaktik, psixologik va metodik tamoyillarga tayanishni taqazo etadi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asar tahlili, obrazlar ruhiyatini chuqur o'rganish va mushohada qilish o'quvchilarda fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Tanqidiy tafakkur asar tahlilida badiiy ochqich sifatida xizmat qiladi. Demak, o'quvchida tanqidiy baholash, tahliliy tafakkur rivojlangani sari badiiy asar mag'zini, qahramonlar ruhiyatini va asardan ko'zlangan maqsadni yanada teranroq anglay boshlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yaminova S. H. O'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda ssenariy o'qitish usulidan foydalanish: Pedagogika fanlari nomzodi...dis. – T.: 1997. – B. 168.
2. Husanboyeva Q. P. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari: Diss. ...ped.fan.dok. – T., 2007. – B. 262.
3. Xodjayev B. X. Umumta'lim maktabi o'quvchilarining mustaqil fikrlashini shakllantirishning didaktik asoslari (5-7-sinf tarix darslari misolida: Pedagogika fanlari nomzodi...diss. – T., 2009. –B.174.
4. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari. Ped.fan.doktori...diss. – T., 1995.
5. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: O'qituvchi, 1996. – B. 67.
6. Matjonov S. Kitob o'qishni bilasizmi? – T.: O'qituvchi, 1993. – B. 47.

7. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – B. 58.
8. Niyozmetova R. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish metodikasi. Monografiya. – T.: Fan, 2007. – B. 89.
9. Tulenov J. Hayot falsafasi. – T.: O'qituvchi, 1997. - B. 183.
10. Mirqosimova M. Badiiy asar tahlili. – T.: 2007.
11. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. –T.: Kamalak, 2016.

УДК 45(019.7)

Ермекбаева Майгуль Уалихановна, Копбаева Сауле Утегеновна
(Алматы, Қазақстан)

КҮРДЕЛІ СЫН ЕСІМДЕРДІҢ ЖАСАЛУ ЖОЛДАРЫ

Summary: *Ways to create complicated adjectives*

Резюме: *Способы образования сложных имен прилагательных*

Қазақ тілі білімінде заттың әр түрлі сынын, сапасы мен белгілерін білдіріп, зат есімдермен тіркесіп, есімді сөз тіркестерінің арнаулы бағыныңқы сыңарын құрайтын сын есім сөз табы зерттеушілер назарынан тыс қалған емес. Осы уақытқа дейін қазақ тілінде сын есімдердің сөз табы ретінде алатын орны, сапалық сын есімнің шырай категориясы, сын есімнің семантикалық топтары, синтаксистік қызметі мен тіркесімділік қасиеті біренеше зерттеу жұмыстарына арқау болған.

Қазақ тілі білімінде күрделі сын мәселесін алғаш көтерген Қ. Жұбанов. Күрделі сын есімдердің ішінде тіркескен сын есімдер тілімізде кеңінен қолданылады. Күрделі сын есімдер деген атау алғаш А. Ысқақов пен К. Аханов еңбектерінде қолданылып, ғылыми айналымға түсті. Қазақ ССР Ғылым академиясының «Қазіргі қазақ тілі» кітабында да күрделі сын есімнің жасалу жолдарының тек мынадай түрлері ғана берілген:

1) Негізгі және туынды сындардың қосарлануы арқылы жасалады (үлкенді – кішілі, таулы – тасты т.б.).

2) Таза сын есімдердің өзара тіркесуі арқылы жасалады (қара көк, көк ала, сары ала т.б.).

3) Сын есім мен туынды сын есімнің тіркесуі арқылы жасалады (сары тонды, көк көйлекті т.б.).

4) Сын есімдер мен басқа есімдердің тіркесуі арқылы күрделі сын есім жасалады (бидай өңді, жұмыс басты, көп балалы). Ғ. Әбуханов «Сын есімдер морфологиялық құрамына қарай жалаң және күрделі болып екіге бөлінеді. Екі не бірнеше сөздер тіркесіп, немесе қосарланып айтылып, бір нәрсенің сындық белгісін білдіріп тұрса, күрделі сын есім дейміз», - деп айтумен шектелген.

Ж. Шәкенов күрделі сын есімдердің мынадай бес түрлі:

1. Сапалық сын есім мен сапалық сын есімнің тіркесуі арқылы жасалған күрделі сын есімдер. Мысалы: қызыл күрең, ақ құба, ақ көк, қара сұр, ақ боз, торы ала, т.б.

2. Екі сын есімнің бірігуі арқылы жасалған күрделі сын есімдер. Мысалы, қарапайым, арамтамақ, кішіпейіл, жарымжан т.б.

3. Екі сын есімнің кірігуі арқылы жасалған күрделі сын есімдер. Мысалы, құралақан, жармес, жалаңаш т.б.

4. Алғашқы сыңары негізгі (сапалық) соңғысы -ты, - ті, -ды, -ді, -лы, -лі, -тай, -тей, -дай, -дей жұрнақтары арқылы жасалған туынды сын есімдер болып келетін күрделі сын есімдер. Мысалы, ұзын бойлы, қара мұртты, ашық өңді, салпы ерінді т.б.

5. Қосарлану арқылы жасалған күрделі сын есімдер. Мысалы, үлкен – үлкен, биік – биік, шикілі – пісілі, ұзынды - қысқалы, т.б. жасалу жолдарын көрсетеді.

А. Ысқақов 1964 жылы зерттеу еңбегінде тіркескен сөздерді «лексикалық тіркес» деп атап күрделі сөздердің құрамында қарастырған.

ПАЙДАЛАНЫЛҒАН ӘДЕБИЕТТЕР:

1. Сауранбаев Н. Қазақ тілі. Алматы, 1953
2. Қазіргі қазақ тілі, Алматы, 1954
3. Шәкенов Ж. Қазақ тіліндегі күрделі сөздер мен тұлғалар. Алматы, 1991

УДК 58(69.2)

Ногаева Айнаш Закарянвна
(Алматы, Қазақстан)

ҚАЗАҚ ТІЛІНІҢ ЭТНОЛИНГВИСТИКАСЫН ОҚЫТУДА ҚОЛДАНЫЛАТЫН ЖАҢА ПЕДАГОГИКАЛЫҚ ТЕХНОЛОГИЯЛАР

Резюме: В данной статье рассматривается проблема применения педагогических технологии при изучении этнолингвистики.

Summary: This article considers the problem of ethnolinguistic education of younger generation in modern Kazakhstan

Этнолингвистика - этнос болмысын оның тілі арқылы танып білу мақсатынан туындаған лингвистиканың (тіл білімінің) жаңа да дербес саласы. Ол-этностың инсандық һәм дүнияуи табиғатын тереңнен танып-білу үшін басқа емес, тек тіл феноменінің өзіне ғана тән ғажайып мүмкіншіліктері мен қазына байлығын зерделеп зерттеуді мақсат ететін ғылым. Осыған байланысты этнолингвистика — «этнос», «этнос болмыс», —этнос тілі, не —тіл әлемі деген ұғым-түсініктерге ерекше мән береді. Өйткені, бұлар жай термин ғана емес, бір таяқтың екі басы сияқты, бір-біріне етене қатысты, бірінсіз бірінің күні жоқ бір тұтас құбылыстың көрінісі іспетті. Проф. М.М. Копыленконың пайымдауынша, —этнолингвистика термині ғылым әлемінде ең алғаш шетел ғалымы Б.А. Уорфтың идеясы негізінде этнография мен социология ғылымдарының аралығынан туындаған болып танылады. Ал бұл идея Э.Сепирдің тіл фактілерін этнос мәдениеті мен жеке тұлға тұрғысынан қарастыратын теориясымен сәйкес болғандықтан, ғылымда —Сепир-Уорф болжамы деген атпен де белгілі болып келеді. Алайда этнолингвистика идеясын әр қырынан және әр деңгейде қарастырып келе жатқан ғалымдар (мәс., В. Гумбольдт, В. Вундт, А. А. Потебня, Г. Шухардт, Ф. де Соссюр, Бодуэн де Куртенэ т.б.).

Тілді кейде көп бұлақтан бастау алып, арнасына сыймай, асып-тасып жатқан шалқар дарияға теңейтініміз, шынында да, оның мәңгілікті қалайтын, жасай бергісі келетін, жасаған сайын жасара беретін (Ғ. Мүсірепов) ғажайып құбылыс екеніне байланысты болса, этнолингвистиканың дүниеге келіп, өзін болашағы зор ғылым саласы екенін көрсете бастауы, оның ана тіліміздің, міне, осы бір қасиеті мен құдіретіне байланысты.

Тіл тамыр сияқты өткенімен бірге даму керек екенін сезіне отырып, тілдің

диахронды тұрғыда зерттеп, зерделеу, оны бүгінгі күннің талабына сәйкес оқыту талаптарымен үйрету - алдымызда тұрған міндет. Қалай болған жағдайда да: қазақ этнолингвистикасының бүгінде өзінше түйген ой-тұжырымы, өзінше бағамдап, бағдарлауы, өзіме тән деп айта алатын ерекшеліктері жоқ емес. Солардың біразын санамалап өтейін.

1) Қазақ этносының ұлттық бейнесін, өзіндік болмысын толық та түбегейлі түрде тек оның тіл байлығы – —тіл әлеміі арқылы ғана жан-жақты танып білуге болатындығы.

2) Қазақ этнолингвистикасы алдына қойған мақсаттың үддесінен шығу үшін этнос тіліне қатысты көптеген қоғамдық пәндермен де, лингвистика салаларымен де бірлесе отырып, өзара сыбайласа, іліктесе әрекет ететін, бірақ олардың бірде-біреуінің шылауында жүрмейтін, пәнаралық қызмет атқарып, «қолбала» да болмайтын, өзіндік үрдісі мен принципін сақтаушы әмбебап ғылым.

3) Қазақ этнолингвистикасы қазақ тілінің лексикалық байлығын мүмкін болғанша (жетер жеріне жеткізе) түгел қамтып, індетте зерттеуді мақсат етеді.

4) Қазақ этнолингвистикасының тағы бір принципі – лексикалық байлықтың мазмұны мен мән-мағынасын этностық таным тұрғысынан толық ашу, этнос болмысына қатысты бағалы мағлұматтар мен құнды деректерді түгел сөйлету, тілдің өзіне тән бояу-нақышымен бейнелі де көркем түрде суреттеу.

5) Қазақ этнолингвистикасының мықтап ұстанатын принциптерінің тағы бірі - жүйелілік. Педагогикалық технологиялар көп түрлі болуына қарамастан, олардың іске асуының екі ғана жолы бар. Біріншісі – теориялық негізде орындалуы (В. Б. Беспалько, В. В. Данилов, В. К. Дьяченко және т.б.), екіншісі – тәжірибемен жүзеге келуі (Е. Н. Ильин, С. Н. Лысенкова, В. Ф. Шаталов және т.б.).

Дамытушы оқу технологиясы мектеп тәжірибесіне енген оқу іс-әрекеттері арасындағы аса танымал (Л. С. Выготский, Л. В. Занков, Д. Б. Эльконин және т.б.). Ғалымдар дәлелдегендей, педагогика бала дамуының өткеніне емес, болашағына бағытталуы тиіс. Қазақ тілінің саласы этнолингвистиканы оқытудағы инновациялық технологияларды ұтымды пайдалану мақсатында ізденіп көрдік. Қазір әдістеме ғылымында оқытудың жаңа технологиясы деген ұғым кеңінен қолданылуда. Оқыту технологиясы мен әдістеме ғылымы бір-бірімен тығыз байланыста. Екеуінің де мақсаты бір, яғни оқытудың тиімді жолдары. Оқу процесіндегі негізгі инновациялық технологиялар: Кейс-технология, WEB технология, коммуникациялық технология, ақпараттық технология, интерактивтік әдіс технологиясы, мультимедия технологиясы, телекоммуникация немесе электронды оқыту технологиясы.

Ғалым Қ. Қадашева былай дейді: —Жаңаша жаңғыртып оқыту, жоғары белсенділікті дамыту және деңгейлік оқыту әдістемелерін жоғары дәрежеде дамыту оқытудың техникалық және электронды құралдарын жан-жақты пайдаланғанда ғана толық орындалады. Бірақ оқытудың жаңа техникалық және электронды құралдарын тиімді пайдалану оқытушының шеберлігіне байланысты. Мультимедиялық үйретуші бағдарламалар тіл үйретуде өте тиімді.Тіл үйренушіге көріп және есту арқылы есіне сақтауға, таныс емес сөздерді ұғынуға көмектеседі. Әдіскер-ғалым Қ. Қадашева былай дейді: «Тыңдап-түсіну, көріп-байқау құралдарын қолданғанда сабақтың негізгі үш түрі айқындалады:

- оқулық бойынша өтілетін материалды бекіту және қорытынды;
- өмірдегі шындықпен жақындастыру және танымын арттыру;
- үйренушінің қабілет белсенділігі қызметіндегі сөйлеуді жандандыру.

Қазіргі заман талабына сай әр түрлі техникалық құралдармен жабдықталған кабинеттерде тіл үйретуді талап етеді. Сондықтан, мультимедиялық

кабинеттерді, интерактивтік тақтаны пайдалану бұл –заман талабы. Ғалым Қ. Қ. Қадашева былай дейді: «Тілді жаңаша жаңғыртып оқытуда оқытушы-түсіндіруші, ал үйренуші-тыңдаушы немесе оқытушы-үйренуші деген ұғымды мүлдем жояды. Оқытудың бұл түрінде тіл үйренуші оқыту объектісінен білімді меңгеруші, өзі тілді үйренуді іске асыратын субъект қызметіне көшеді». Яғни, оқытушы бақылаушы бағыт беруші ролінде болады. Тілді жаңаша жаңғыртып оқытуда талап та, қарым-қатынас та өзгереді. Кез -келген оқыту технологиясы іс-әрекеттің қарқындығы мен белсенділігін арттырғандығымен де, кейбір технологияда бұл құралдар басты идеяны және нәтиже тиімділігінің негізін құрап, жеке тұлғаның жетілуіне, дамуына бағытталған. Олар: проблемалық оқыту технологиясы, коммуникативтік технология, дамыта оқыту технологиясы, пікірсайыс, ойын әдістері т.б. Белгілі ғалым Ф. Оразбаева былай деп көрсетеді: ...тілдік қатынасты игеру тек тілдік ортаға қатысты тақырыптарды соған сәйкес лексикалық минимуммен сөйлеу үлгілерін сөйлем әрекеттерін үйретумен іске асады. Тілдік қатынас ешуақытта грамматиканы жеке үйретумен жүзеге аспайды. Адамға қажет тақырып, сөйлем, тұрақты тіркес, мәтін арқылы ұсынылып, грамматика сол тілдік қатынастың қажетіне қарай сұрыпталғанда ғана нәтиже береді.

Жаңа әдістерді пайдалануы – бүгінгі күннің талабы. Жаңаша жаңғыртып оқыту, интерактив әдістер, жаңа технологиялар тіл үйренушінің танымдық, білімдік белсенділігін тудыруға, уәждемесін тудыруға бағытталған. Қазақ тілін үйренуде бұл әдістер арқылы елеулі нәтижелерге жетуге болады. Бірақ бұның бәрі оқытушының шеберлігіне байланысты, оқытушы үнемі ізденісте болуы қажет.

ӘДЕБИЕТТЕР:

1. Қайдар Ә. Қазақ тілінің өзекті мәселелері: Актуальные вопросы казахского языка. Алматы: Ана тілі, 1998. – 304 б.
2. Қадашева Қ. Қазақ тілі: оқытудың тиімді әдістемелері. – А. 2000.

Каромова Шоҳидаъ
Қарши давлат университети
(Қарши, Ўзбекистон)

АБДУЛЛА ҚАҲҲОРНИНГ ҲИКОЯНАВИСЛИК МАҲОРАТИ

Аннотация: Ушбу мақолада Абдулла Қаҳҳор инсон образини чизишда, одам характери яратишда адабиётнинг умумий ва азалий қонунларига амал қилади ва ҳикоялар мисолида ёритиб берилган.

Калим сўз: адабиёт, образ, ҳикоя, жанр, ҳажвиёт, эстетик тарбия, табиат тасвири.

Annotation: In this article, Abdulla Mukhtar was the author of the book, the human rights of the general public and the laws of law, and the stories of the stories.

Key words: Literature, Abstract, Story, Genre, Fiction, Aesthetics, Nature Image.

Ҳар бир халқнинг маънавий юксалишида ўша халқнинг истеъдодли ижодкорлари яратган маданий мерос катта рол ўйнайди. Айтиш жоизки, улкан сўз санъаткори Абдулла Қаҳҳорнинг адабий мероси халқимиз маънавий тафаккурини комилликка етакловчи чўққиларидан биридир.

Абдулла Қаҳҳор хилма-хил жанрдаги асарлари билан она юртимизнинг яқин ўтмиш тарихи ва ўз даврининг тўлақонли манзарасини, замондошларимизнинг юсак фазилатларини фақат ўзигагина хос бўлган сиқик ва табиий ҳамда бой тафаккурга эга бўлган ижодий услубда тасвирлаб адабиётимизда мактаб яратди, унга янги нафас олиб кирди.

Адиб ҳикоя жанридаги ўзига хос реалистик тасвир услубини йирик насрий асарларида ҳам намоён этди. Адиб роман ва қиссаларида ҳам тарихимизнинг муҳим тараққиёт босқичларидаги халқ ҳаёти ва долзарб мавзуларни мумтоз тасвирлашнинг бадиий сабоғини берди.

Дарҳақиқат, бугунги мустақиллик даври адабиётимизда бадиий ижодда Абдулла Қаҳҳорнинг ҳақ сўзни айтиш анъаналари ва қутлуғ башоратининг бўй кўрсатаётгани қувонарлидир.

А. Қаҳҳор ҳикоячилиги адабиётимизда муҳим ўрин тутди. Бу биринчидан. Иккинчидан, адиб ҳикоячилик мактабини яратган ёзувчилардан. Ва, ниҳоят, учинчидан адабиётнинг асосий мақсади хусусияти бўлмиш инсон характери яратиш ҳикоя жанрида ўзгача табиатга эга. У айнан ана шу жанрида инсон характери яратиш санъатини намоиш этган ёзувчи.

Абдулла Қаҳҳор ўз ижодий изланишларида рус классиги Чеховдан таъсирлангани, ундан кўп нарсани ўрганганини бот-бот эслайди. Ёзиш услуби бобида Чеховдан жуда кўп нарса ўрганганини эътироф этади.

Унинг чертма, жаранглаб турган кафтдеккина ҳикоялари ўзининг чиройлилиги, ҳаққонийлиги ва турмушни чуқур акс эттириши билан ўқувчини ўзига асир қилади.

Абдулла Қаҳҳор ҳикоя жанрининг қонун-қоидаларини эгаллаш устида жиддий изланишларда бўлиб, ҳажвий ҳикояларга кўпроқ мурожаат қилган экан, бунинг муайян сабаблари бор эди.

Биринчидан, адиб ижодга кириб келган даврда, яъни 30-йилларда ҳажвий адабиётда эскилик сарқитларини фош қилишда, янги инсонни тарбиялашда, янгича яшаш тарзини тасдиқлашда муҳим қурол бўлиб хизмат қилишда муҳим рол ўйнаган. Халқ ҳажвиёт бобида пайдо бўлган ҳар бир бадиий юксак асарни иштиёқ билан кутиб оларди.

Иккинчидан эса Абдулла Қаҳҳор истеъдодининг ўзига хослиги туфайли ҳажвиёт бобида қалам тебратган.

Ҳажвга, кулгига мойиллик унга ташқаридан ёпишган ёки ҳаётий тажриба туфайли ортирган бисот эмас, туғма хислатдир. Ҳажвиётга мойиллик унинг қониди мавжуд, қолаверса, унинг фикрлашидаги ўзига хосликдан туғилган.

Абдулла Қаҳҳор ҳажвий ҳикояларида юксак идеалдан келиб чиқиб, янги ҳаётга доғ бўлаётган ҳар қандай иллатни, кишилар онгидаги эскилик сарқитларини фош қилади. Бу ҳикоялар халқнинг ҳаёти, янги ахлоқи, янгича яшаш тарзи, янги савияси учун ифтихор туйғуси билан суғорилган. Адиб халқимиз эришган ютуқларни янада кўркамроқ кўриши, одамларнинг янада гўзалроқ бўлишини истайди. Шунинг учун ҳам уларни тарбия-ҳикояларнинг асосий муаммосини ташкил қилади.

Дарҳақиқат ўтган асрнинг 30-йиллари ўрталарида Абдулла Қаҳҳорнинг ҳикоянавислик санъати барқ уриб гуллади. У шундай ҳикоялар яратдики, улар бугун ҳам, истиқлол йилларида ҳам аҳамиятини йўқотгани йўқ, замондошларимизга эстетик ва маърифий тарбия бермоқда.

Адиб ҳикояларини мазмун ва жанр хусусиятларига кўра икки гуруҳга ажратиб таҳлил этиш мумкин. Буларнинг бир гуруҳини ўтмиш ҳақидаги ҳикоялар ташкил қилса, иккинчи гуруҳ ҳикояларининг бош қаҳрамонлари замондошларимиздир.

Абдулла Қаҳҳорнинг ўтмиш фожиаларига бағишланган ҳикоялари катта талант эгаси бўлган ёзувчининг ҳаёт воқеликларини санъаткорона умумлаштириши натижаси ўлароқ майдонга келди. Мана шу умумлаштириш кучи билан бу ҳикоялар ўзбек адабиёти тарихида Абдулла Қаҳҳор характер ва трагик ҳолатларни яратишда ҳар бир асарида ўзига хос ижодий йўлдан боради.

Яқин ўтмишдаги ўзбек воқелиги “Анор”, “Ўғри”, “Бемор” каби ҳикояларда акс этган. Кейинчалик эса, адиб ўтмиши мавзуида яна “Даҳшат” ҳикоясини яратди.

“Даҳшат”да Абдулла Қаҳҳорнинг тасвирий услуби ҳам бошқача. Бу асарда ёзувчи пейзаж воситаларидан фойдаланади. Умуман, пейзажга нисбатан Абдулла Қаҳҳор хасис ёзувчилардан. У ўринли-ўринсиз равишда асарга табиат тасвирини кирита бермайди. Баъзи ёзувчилар табиат манзараларининг бевосита гўзаллигини китобхонга етказиш мақсадида пейзажни тасвирлаб кетишади. Шу мақсадда асардаги бош воқеанинг умум оқимидан чеккага чиқиб кетишлари ҳам бўлади. Баъзи ёзувчиларнинг асарларида ўринсиз, мураккаб, китобхонга ҳеч қандай завқ бермайдиган пейзажлар ҳам учраб қолади. Абдулла Қаҳҳор ижодида бундай ҳолни кўрмаймиз, балки пейзажга нисбатан, юқорида айтганимиздек, унда қандайдир камсуқумлик бор.

Бу усул асосан қаҳрамонлар ҳаракат қиладиган муҳитни жонлантириш учун ишлатилади. Абдулла Қаҳҳор ҳам кўпгина асарларида пейзаждан шу

мақсадда фойдаланади. Бироқ уни асарнинг асл ғоясини ифодалаш йўлида бош омиллардан бири сифатида ҳам ишлатиш мумкин экан

Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг ғоявий мазмуни ўз даври мафкурасининг тор қолипларидан ташқарига чиқди. У ўз ҳикояларида умумбашарий масалаларни кўтариб чиқа олди.

Ёзувчининг иккинчи гуруҳ ҳикоялари мазмун ва материаллиги кўра замонавий ҳикоялардир. Уларни ўз навбатида икки тоифага ажратиш мумкин. Буларнинг бир тоифаси ҳажвий, иккинчи тоифа ҳикоялар эса изчил реалистик услубда ёзилган асарлардир.

Абдулла Қаҳҳор бу ҳикояларида турли-туман нуқсонларни танқид этган. Бу нуқсонлар ҳар қандай жамиятда бўлиши мумкин бўлган умумбашарий иллатлардир. Жаҳон адабиёти жамиятдаги бу нуқсонларга қадим-қадимдан қурашиб келган.

Адиб ҳикояларида ҳажвий характерлар ғоят ёрқин чизилган. Характерлар доим ҳаракатда.

Абдулла Қаҳҳорнинг ҳажвий ҳикоялари тилининг мукамаллиги билан ҳам ажралиб туради. У ижодининг охирига қадар ҳам ҳажвий ҳикоялар ёзишдан тўхтамади. Ҳар жиҳатдан китобхонга манзур бўлган “Тўйда аза” ҳикояси бунинг исботидир. Адибнинг изчил реалистик услубда ёзилган ҳикояларининг кўпчилиги уруш йилларида ва урушдан кейинги даврда яратилган. Энг муҳими Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари вақт синовидан ўтиб бугун ҳам яшашда давом этмоқда.

Абдулла Қаҳҳор бутун фаолияти давомида шундай одамлар характери яратдики, улар аллақачон ҳар бир адабиёт мухлисининг маънавий ҳаётида катта ўрин тутувчи фигураларга айланган. Унинг қаҳрамонлари ичида жозибаси, маънавий кучи, ақли билан қалбимизни мафтун этадиган гўзал одамлар ҳам, нодонлиги, калтафаҳмлиги, эгрилиги билан нафратимизни кўзғайдиган бадбашара, хуниқ одамлар ҳам бор. Ёзувчи яратган қаҳрамонларнинг кўпчилиги китоб саҳифаларидан чиқиб, ҳаётга кириб кетди, уларнинг номи турдош номларга айланди.

Абдулла Қаҳҳор инсон образини чизишда, одам характери яратишда адабиётнинг умумий ва азалий қонунларига амал қилади. Бу қонунлар асардаги қаҳрамоннинг ҳаққоний ва табиий бўлишини, инсоний жозига эга бўлишини, ички дунёси кенг очилишини тақозо қилади. Абдулла Қаҳҳор асарларида буларнинг ҳаммаси бор, бироқ булар ўзига хос шаклда, бошқа ёзувчиларда учрамайдиган тарзда намоён бўлади.

ҲОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎХАТИ

1. Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. Беш жилдлик.Т., Ғафур Ғулум номидаги Адабиёт нашриёти, 1987 й.
2. Абдулла Қаҳҳор замондошлари хотирасида.Т., 1987 й
3. Тўраев Д. Абдулла Қаҳҳор сабоқлари. “Моҳият” газетаси, 2007 йил 10 апрель
4. Шарофиддинов О. Абдулла Қаҳҳор. Китобда: “XX аср ўзбек адабиёти” Т., “Ўқитувчи” нашриёти, 1999 й

Равшанова Гулрухбегим Қахрамоновна
Қарши давлат университети
(Қарши, Ўзбекистон)

ЮСУФ ВА ЗУЛАЙХО" ТУРКУМ ДОСТОНЛАРИДА ЯЪҚУБ АЛАЙҲИССАЛОМ ВА ЮСУФ АЛАЙҲИССАЛОМ ОБРАЗЛАРИ

Аннотация: Ушбу мақолада "Юсуф ва Зулайхо" туркум достонларидаҳақида, Яъқуб алайҳиссалом ва Юсуф алайҳиссалом образлари таҳлили, достон матнларининг матний-қиёсий масалалар талқини ёритиб берилган.

Калит сўз: афсона, ривоят, қисса, достон, туркий адабиёт, образ, сабр-тоқат, матонат, яхшилик, анъана.

Annotation: This article describes the interpretation of the images of "Yusuf and Zulaykho", the analysis of the images of Ya'qub al-Yusuf and Yusuf, interpretation of literary texts of poetic texts.

Key words: legend, narrative, story, epic, Turkish literature, image, patience, goodness, tradition.

"Юсуф ва Зулайхо" ҳақидаги афсона ва ривоятлар қадим-қадимдан Шарқ халқлари орасида кенг тарқалган бўлиб, бу машҳур қисса турли даврда етишиб чиққан юзлаб шоирлар диққатини ўзига жалб этди. Шунинг натижасида мазкур мавзу насрий ва назмий йўл билан кўплаб янги воқеалар билан бойитилган ҳолда, алоҳида асар кўринишида қаламга олина бошланди.

IX асрдан бошлаб, Шарқда 150 дан ортиқ "Юсуф ва Зулайхо" достон ва қиссалари вужудга келди. Буларнинг энг машҳурлари қаторида Абул Муайяд Балхий, Фирдавсий, Шаҳобиддин Амъак, Шоҳин Шерозий, Абдуллоҳ Ансорий, Хожа Масъуд Ироқий, Абдурахмон Жомий ва бошқаларнинг қисса-достонларини кўрсатиш мумкин. Юқорида зикр этилган шоиру адиблар ўз адабий тажрибалари мисолида "Юсуф ва Зулайхо" кечинмалари асосида йирик ҳажмли асар яратишнинг анъанага айланиши учун асос солдилар.

Шунингдек, туркий адабиётда ҳам "Юсуф ва Зулайхо" ҳақида 50 га яқин асар яратилган. Жумладан, Қул Али ("Қиссаи Юсуф"), Носириддин Рабғузӣ ("Қиссаи Юсуф Сиддиқ алайҳис-салом"), Дурбек ("Юсуф ва Зулайхо"), Ҳайдар Хоразмий, Мулла Юсуф Ёркандий, Нозим Ҳиравий, Сайқалий, Хиромий, Салоҳий, Андалиб ("Туркийи Юсуф-Зулайхо"), Ҳозиқ каби ижодкорлар қисса ва достонлар битганлар.

Маълумки, Шарқ халқлари орасида кенг тарқалган, юзлаб шоирлар томонидан насрий ва назмий кўринишларда қаламга олинган гузал Юсуф ҳақидаги қиссаларнинг генезиси илоҳий-муқаддас китоблар – Таврот, Забур, Инжил ва Қуръони Карим билан боғлиқ равишда ўрганилиши тадқиқот учун энг мақбул йўлдир. Таврот ва Забур қадимги яҳудий (иброний) тилида яратилган бўлиб, Исо пайгамбар дунёга келишига қадар битилгандир.

Юсуф ва Зулайхо ҳақидаги қисса ва достонларда ижодкорларнинг ғоя-мақсадларини юзага чиқарувчи етакчи образлардан ташқари кўплаб қисқа эпизодларда номоён бўлувчи тимсоллар борлигини ҳам кўриш мумкин. Ўз

ўрнида улар муайян ғоя ва мақсадни равшан ифодалашга ҳисса қўшади. Шу жиҳатдан уларни икки гуруҳга ажратиб таҳлил қилиш мақсадга мувофиқдир.

Достонлардаги етакчи образлар сифатида Яъқуб, Юсуф ва Зулайхолар белгиланади. Иккинчи гуруҳга мансуб қаҳрамонларга эса Юсуфнинг оғанилари, Жаброил, Доя, Миср Азизи, Молики Райён, Молики Тожир ва бошқалар киради. Достонларда Яъқуб пайғамбар образи марказий ўринлардан бирини эгаллайди. Деярли барча воқеа-ҳодисалар айнан шу образ билан боғлиқ ҳолда кечади. Жумладан, ака-укалар ўртасидаги зиддиятлар, фарзандларнинг кўрган-кечирганлари, умуман, асарнинг тугуни ва ечими шу образ – Яъқуб билан узвий боғлиқликда ўтади. Шунингдек, ота ва фарзанд, ака-укалар ўртасидаги муносабатлар, улар билан рўй берадиган барча саргузаштлар негизи ҳам Яъқуб алайҳис-саломга бориб тақалади.

Қиссалардаги Яъқуб образини кузатар эканмиз, барча ижодкорларда шу тимсолни яратиш билан боғлиқ икки жиҳат кўзга ташланади. Яъни уларда Яъқуб ҳам ижобий, ҳам маълум даражада салбий қиёфада гавдаланади. Бироқ асарларда мазкур тимсолнинг салбий жиҳатларига эмас, балки ижобий хислатларига кўпроқ урғу берилган. Шу жиҳатдан, аввало, унинг ижобий томонларини кўрсатиб ўтиш ўринлидир. Қисса ва достонларнинг ҳаммасида Яъқуб биринчи навбатда пайғамбар сифатида, яъни инсониятни ҳақ йўлга, ҳидоятга бошловчи, илоҳий сифатларни ўзида мужассам этган сиймо сифатида тасвирланади. У ахлоқий-маънавий баркамол, камтарлик ва меҳнатсеварликни ўзига одат қилган шахс, фарзандларини ҳам шунга ўргатган ота қиёфасида номоён бўлади. Дурбек чизгиларига диққат қилинг:

Бор эди Канъон улусида мудом,
Ҳазрати Яъқуб алайҳиссалом.
Халқ уза пайғамбари барҳақ эди,
Дин йўлида ҳокими мутлақ эди.
Келтирур эрди анга ваҳю далил,
Тенгри таоло қошидин жабраил.
Тенгрининг амрин сўрар эрдим удом,
Жумлаи умматларига субхушом.
Ўз ирисолатда бўлуб эрди пир,
Бор эди ўғлонлари бас дилпазир. [1, 26 бет]

Яъқуб сиймосининг достонлардаги бу хусусияти асл манбалар, яъни илоҳий-муқаддас китоблардан кўчганини пайқаш қийин эмас. Мазкур манбаларга эътибор қаратсак, Яъқубдаги айнан мана шу хусусиятлар бирламчи ўринни эгаллайди. Масалан, Қуръондаги биргина эпизод, аниқроғи ака-укаларнинг Юсуфни саҳродаги бир қудуққа ташлаб қайтганларидаги воқеани кузатайлик:

Яъқуб фарзандлари Юсуфни чоҳ қарига ташлаб, оталари ҳузурига ёлғондан фарёд кўтариб кириб келишди. Улар: “Эй ота, бизлар Юсуфни нарсаларимиз олдида қолдириб қувлашиб кетган эдик, уни бўри еб кетибди. Энди рост гапирсак ҳам сен бизларгааслоишонмайсан”, –деб хабар беришади. Яъқуб уларнинг бу хийлаларини сезади ва шундай деб жавоб қилди: “Йўқ! Сизларга ҳавойи-нафсларинг бирон (ёмон) ишни чиройли қилиб кўрсатган. Энди (менинг ишим) чиройли сабр қилмоқдир. Сизлар сўзлаётган бу нарса (айрилиқ-мусибат) устида мадад сўраладиган зот ёлғиз Оллоҳдир”.

Мазкур эпизоддаги Яъқуб алайҳис-саломнинг ўғилларига берган жавоби орқали унинг қиёфасини аниқ ва равшан кўриш мумкин. У ўғилларидан ота учун энг оғир мусибат – суюкли фарзандидан айрилгани ҳақидаги хабарни эшитганда ҳам ортиқча жазавага тушмай, босиқлик билан жавоб қайтаради. Яъқуб пайғамбарнинг бу жавобини икки томонлама талқин қилиш мумкин: Биринчисида, кишиларни нафс балосига берилмасликка, ундан сақланишга ундовчи панд-насиҳат кузатилади; иккинчисида, инсон бошига тушажак ҳар қандай бало-қазодан ёлғиз Оллоҳгина қутқариши, шунингдек, энг оғир дамларда ҳам киши ўзни тутга билиши ва қийинчиликларни сабр-матонат билан енгишга чорловчи илоҳий-ахлоқий масалага ургу берилади.

Юқорида таъкидлаганимиздек, булар Яъқуб образининг ижобий хусусиятларига мисолдир. Қисса воқеаларини кузатганимизда шу нарсага амин бўламизки, ака-укалар ўртасидаги кескин муносабатлар, улардаги ўзаро адоватнинг зўрайишида Яъқуб алайҳиссаломнинг ҳам таъсири бор. У оналари бошқа-бошқа бўлган ўн икки фарзанднинг отаси. Яъқуб учун фарзандларининг ҳеч бир ўғай эмас. Бироқ бу фарзандларнинг барчаси унинг учун бирдек сеvimли эдими? Йўқ, албатта. Яъқуб ўғиллари ичидан Юсуфга бўлакча меҳр қўйган эди. Бор муҳаббатини фақат унгагина берар эди. Туну кун ёнидан айирмас, қандай илтифот бўлса, шу ўғлига раво кўрар эди. Табиийки, қолган ўғиллар бундан ғазабда эдилар. Улар Юсуфдан, аввалига оталарини қизғана бошлайдилар. Бора-бора бу қизғаниш акаларда Юсуфга нисбатан катта нафрат, кучли адоватнинг юзага келишига омил бўлди. Шу сабаб улар Юсуфга душман нигоҳи билан қарайдиган бўлдилар, ҳатто, унинг жонига қасд қилиш даражасига етдилар.

Бундан ташқари, дostonлардаги яна бир воқеада Яъқубнинг ноҳўя амаллари кўзга ташланади. Хусусан, Дурбек асарида бир энага образи келтирилади. Унинг Башир исмли эмизакли ўғли бор эди. Яъқуб пайғамбар бу аёлни фақат ўғли Юсуфни эмизишга буюриб, унинг чақалогини зўрлик билан сотиб юборади. Муаллиф Башир ҳақидаги воқеани асар сўнгида келтириб, Яъқуб ва Юсуф бошига тушган барча мусибатларнинг сабаби ҳам мана шунда эди деб кўрсатади. Мазкур тасвирлар таъкидлаганимиздек, асарнинг сўнгида, аниқроғи Юсуф Мисрда оғаларининг гуноҳидан ўтиб, уларни отасини келтириш учун Каньонга юбораётган вақтда Жаброил тилидан баён қилинади:

Пираҳанин Юсуф ўшал дам магар,
Отосигаюборуручунбадар.
Қилдиэса, келдионгаЖабраил,
Дедиэруамрзи рабби жалил.
ПираҳанинғбербуБаширилгина,
Ожиуафгоруасирилгина.
Сенгауотонггаулэурсабаб,
Чектингизэсааламирўзушаб... [1, 58 бет]

Яъқубнинг бу қилмиши акс этган лавҳа турли вариантлар билан бошқа ижодкорлар асарларидан ҳам ўрин олган. Масалан, Рабғузий буни қуйидагича тасвирлайди: Қунларнинг бирида Башир билан Юсуф ҳар галгидек уйнагани чиқишади. Нимадир бўлиб, икковлари тортишиб қолишади ва Башир Юсуфнинг юзига тарсаки туширади. Яъқуб буни кўриб қолади ва ғазабдан Баширни онасидан шавқатсизларча тортиб олиб сотиб юборади.

Андалибда эса ҳеч қандай сабаб кўрсатилмайди. Унда бир куни Башир Яъқубнинг дилини оғритади ва шу тўфайли у Баширни сотиб юборади дейилади. Ижодкорлар томонидан Яъқуб алайҳиссаломнинг ноҳўя қилмишлари акс этган лавҳаларга ўрин берилиши бежиз эмас, албатта. Улар бу орқали инсон ким бўлишидан қатъий назар, ҳатто, у пайғамбар бўлса ҳам амалига мувофиқ муқофот ёки жазо олиши муқарралигини ифодалаганлар. Яъқуб алайҳиссалом ҳам, аввало, фарзандларини бир кўзда кўрмагани, уларни айро севгани учун, шунингдек, бир ожизага зулм қилгани боис бошига кўп мусибатлар ёғилди. Инсон бажараётган ҳар бир амалнинг ҳисоб-китоби бор, ҳеч бир иш Оллоҳнинг назаридан четда қолмайди. Достонларда акс этган ушбу воқеалар замирида ҳам мана шу ҳақиқат яширин.

Қисса-достонлардаги марказий қаҳрамонлар бу Юсуф ва Зулайхолардир. Ижодкорлар ўз асарларидаги асосий ғоя ва мақсадларини ана шу образлар орқали ифодалаганлар. Аввало, Юсуф образига тўхталиш ўринлидир. Таъкидлаш жоизки, барча достонларда Юсуф уч хил қиёфада гавдаланади. Биринчи навбатда у гўзаллик ва эзгуликнинг ёрқин тимсоли сифатида акс эттирилади. Иккинчи ўринда уни солиҳ фарзанд мисолида кўриш мумкин. Учинчи босқичда эса Юсуф адолатли, халқпарвар шоҳ сиймосида намоён бўлади. Юқорида қайд этганимиздек, шоирлар асар бошиданок Юсуф таърифига тўхталганларида унинг гўзалликда тенгсиз эканини алоҳида мадҳ этадилар. Дурбек:

Юсуф эди ўртада ун шамъижам,
Ўзгаси парвонау ул эрди шам.
Ўзгалари қакабу улмоҳ эди,
Ўзгалари ходиму ул шоҳ эди.
Ўзгалари заррау ул офтоб,
Борча садаф, ул эди дуррих ушоб.
Ўзгалари жисму ўшал жон эди,
Инсу малак юзига ҳайрон эди. [1, 96 бет]

Огаҳий таржимасида бу тасвирлар янада ёрқин жило топган. Унда айтилишича Юсуф шунчалик гўзалки, унинг жамолига, ҳатто, борлиқдаги бор мавжудоту махлуқот ҳавас қилади, унга яқинлашишдан қувонади, ундан узоқлашса ғамгин бўлади.

Кўриб ўтганимиздек, Юсуф пайғамбарзодалар ичида энг гўзали ва энг хушфеъли сифати тилга олинади. Шоирлар Юсуфнинг ички ва ташқи гўзаллигини омухталаштириб, унинг гўзал чехрасига монанд одоб-ахлоқ ва ақл-заковат соҳиби эканини ҳам эътироф қиладилар. Қиссаларда Юсуф “сабр-қаноатнинг улғувор фидойиси”, иймон-эътиқодли, Оллоҳнинг назари тушган юсак маънавиятли комил инсон сифатида гавдаланади. У бошига қанча мусибатлар келса ҳам катта матонат, бардош билан уларни енгиб ўтади. Ёшлигиданок Юсуф кўп азоб-уқубатларга гирифтор бўлади. Акалари Юсуфга ҳасад қилиб, отасидан айирганда ҳам, минг бир ситам кўргузиб чоҳга ташлаганларида ҳам у бошига келган бу кўргуликдан нолимайди. Худога бўлган ишончи ва эътиқоди сабаб бу синовларга бардош қилади. Сабр ва шукрни ўзига ёр қилади. Юсуфнинг чоҳга ташланганидаги кечинмаларини Андалиб унинг тилидан шундай тасвирлайди:

Шукр этойин Худойимнинг ишина,
 Қоронғу чоҳ бугун мунаввар бўлди.
 Инонмадим отам кўрган тушина,
 Манга ўзга жафо муяссар бўлди.
 Сабр айлагил ямон кунни ёд этма,
 Ҳақдин ўзгаларга инобат этма. [1, 102 бет]

Юсуф Мисрга қул бўлиб келгандан кейин ҳам бошидаги қора булутлар тарқамайди. У ерда Миср Азизининг хотини Зулайхо сабаб бир неча йил зиндон азобини кўради. Бироқ Худо ҳар доим Юсуф билан бирга эди. У қаноатлилиги ва софдиллиги, меҳнатсеварлиги, тadbиркорлиги ҳамда ақл-идроки билан ҳар ерда ўз ўрнини топар эди. Зиндонда ётган вақтда ҳам у бошқа бандиларга қўлидан келганча яхшилик қилишга интилар, уларга ёрдам қўлини узатар эди. Камтарин ва ҳалоллиги боис зиндон бошлиғининг кўнглига йўл топа олади. Тез орада Юсуфнинг илми ҳикмат соҳиби ва доно тadbиркорлиги ҳақидаги хабар бутун Миср халқига ёйилади. Миср шоҳи Райён ҳам унинг кўмагига эҳтиёж сезиб, Юсуфни зиндондан озод қилади ва улуг мақомга кўтаради.

Шу ўринда таъкидлаш жоизки, барча ижодкорларда Яъқуб ва Юсуф тимсолларини яратиш билан боғлиқ умумий ўхшашлик кузатилади. Яъни, уларнинг ҳаммасида Яъқуб ва Юсуф пайғамбар, барчасида улар илоҳий сифатларни ўзида мужассам этган, соф, покдил инсонлардир. Хуллас, юқорида келтириб ўтилган ушбу икки образга оид сифатлар ҳар бир қиссадостондаги Яъқуб ва Юсуф образига мос келуви хусусиятлар ҳисобланади. Бу билан уларнинг характер-хусусиятларида умуман фарқли жиҳатлар кўринмайди деган фикрда эмасмиз. Ҳар бир ижодкор Юсуф пайғамбар ҳақидаги ривоятлар асосида янги бир асар яратишга жазм қилганда, нафақат сюжет, ғоя, балки ундаги образлар устида ҳам жиддий бош қотирган. Ўзаро ўхшашликдан сақланишга уринишган. Бироқ, асарларда мазкур образларининг қиёфаси бир-биридан айтарли даражада, яъни тубдан фарқ қилмайди. Шу боис уларни алоҳида-алоҳида эмас, умумий тарзда таҳлил қилишни маъқул кўрдик.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Жомий. Юсуф ва Зулайхо. – Т.: “Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти”, 1977.
2. Жомий А. Юсуф ва Зулайхо. – Тошкент: Ўзбекистон КП МК нашриёти, 1983, 87 б.
3. Жомий Абдурахмон. Юсуф ва Зулайхо. Тузувчи, масъул муҳаррир ва сўзбоши муаллифи Азиз Қаюмов. Ўзбекистон КП МК нашриёти. – Тошкент 1983. 112 б.
4. Занд М. И. Шест веков славы, М., “Наука”, 1964.
5. Ёқубов Исломжон. Тарихий ҳақиқат ва бадиий талқин. // Ўзбек тили ва адабиёти // Тошкент: – Ўзбекистон Республикаси ФА “Фан”, 2008. №4.
6. Инжил. Таврот. Ибтидо. Иброҳим Абаев Таржимаси. – Стокгольм: Библияни таржима қилиш институти нашриёти, 1993.

Хурсанова Гулбахор
(Карши, Узбекистан)

СЛОГ КАК ФУНДАМЕНТАЛЬНАЯ ЕДИНИЦА РЕЧИ

Слог – это фундаментальная единица порождения и восприятия речи, в которой происходит взаимодействие сегментной и суперсегментной сфер фонологического пространства.

В лингвистике не сложилась единого определения слога, хотя проблема слога и слогоделения слова давно привлекает внимание исследователей. Одним из первых на эту тему высказался ещё в 1747 году В. Г. Тредиаковский. Значительный вклад в развитие этой области был внесен такими известными лингвистами, как Л. В. Бондарко, Л. Р. Зиндер, М. В. Панов, Л. В. Щерба, Р. И. Аванесов.

Были созданы несколько теорий слога и слогоделения:

- «волновые теории»: экспираторная, сонорная, теория мускульного напряжения, теория эксплозии-имплозии;

- теория открытого слога и др.

Экспираторная (физиологическая) теория. С точки зрения представителей этого направления: «Слог представляет собой звуковой поток, произносимый одним выдохательным толчком». Это теория было рождено в Германии в конце XIX века.

Сонорная теория. По этой теории: «Слог – это волна звучности, потому в слоге группируются звуки разной степени звучности». Эта теория была разработана датским лингвистом О. Есперсеном, а в России разрабатывалась Р.И. Аванесовым²⁰.

Звучность следует понимать как соотношение тона и шума (а не степень сонорности!) и можно условно обозначить цифрами: гласные – 4, сонорные – 3, звонкие – 2, глухие – 1:

[д'лс'á], [кóлбъ], [к'лнв'э'рт], [пр'э'л'ьс'т'], [в'эд'лвóс]

24 114 14324 14 32 431 13 4 341 1 2424241

Теория мускульного напряжения (динамическая). Представители этой теории понимают что «Слог – это отрезок звучания, произносимой одним толчком мускульного напряжения». Родоначальником теории является французский лингвист М. Грамон, а последователем в России стал Л. В. Щерба²¹.

Теория эксплозии-имплозии. В этой теории «Слог понимается как волна эксплозии и имплозии». Эту теорию, созданную Ф. де Соссюром применил к русскому языку А. М. Сухотин (в своем переводе «Курса общей лингвистики») и теория поддерживался российскими учеными как В. А. Богородицкий и Н. В. Крушевский, В. А. Богородицкий назвал гласных – рытораскрывателями, а согласных – ртосмыкателями.

Все перечисленные выше теории рассматривают слог как волну звучности, мускульного напряжения или эксплозии-имплозии, поэтому эти

²⁰ Аванесов. Р. И. Фонетика современного литературного языка. – М., 1956.

²¹ Щерба Л. В. , Матусеевич. М. И. Фонетика // Грамматика русского языка. М., 1952.

теории объединяются в так называемой «волновые теории» слога.

Теория открытого слога. Предшествующий согласный влияет на гласный значительно сильнее, чем последующий. Этот факт авторы ряда исследований (в первую очередь Л.В. Бондарко²²) интерпретируют как свидетельство наличия слоговых границ, разделяющих речевую цепь только на слоги типа СГ; соответственно единственным принципом слогоделения признается принцип открытого слога.

Каждая из этих теорий, как считает М.В. Панов²³, включает в себе только часть истины. Основными недостатками этих теорий является то, что, во-первых, они не объясняют того факта, что членение одной и той же звуковой последовательности может быть различным для разных носителей СРЛЯ (а часто и один носитель языка допускает различные варианты слогоделения); во-вторых, один изолированно применяемый принцип не позволяет правильно предсказать место слоговой границы во всех конкретных случаях.

Изучая теории можно дать различные определения слога, которые основываются на внимании к его артикуляционным или акустическим особенностям, т.е. разные подходы к определению слога зависят от того, какая сторона речи принимается во внимание – артикуляционная или акустическая.

Артикуляционное определение слога предлагается экспираторной теорией.

Наиболее распространенным артикуляционным определением слога является следующее: слог – это часть фонетического слова, состоящая из одного или нескольких звуков, произносимых одним толчком выдыхаемого воздуха.

С этих позиций определяется слог в школьных учебниках. Это определение наглядно может быть проверено дрожанием пламени свечи, перед которым будут произнесены слова: отклонение пламени свечи соответствует толчку выдыхаемого воздуха, например: *ма-ма* – пламя дрогнет два раза, в слове два слога. Но возможны и несоответствия. При произнесении смычных согласных эффект тот же, что и при произнесении гласных, т.е. воздушный поток будет разорван смычкой согласного, пламя дрогнет: *кто* – один слог, а пламя дрогнет дважды. Поэтому это не совсем точное определение, так как в этом случае не учитывается фонетическая сторона речи, особенности ее звучания.

Артикуляционное определение слога, предложенное Л.В. Щербой, основывается на теории пульсации. Согласно этой теории, слог – отрезок речи, соответствующий чередованию нагнетания и разрядки мускульного напряжения речевого аппарата. При этом слог образуется каждым нарастанием с последующим падением; в начале цепи может отсутствовать нарастание, а в конце – падение.

В других артикуляционных определениях слог характеризуется как последовательность речевых движений, которая образуется одним

²² Бондарко Л. В. Фонетика современного русского языка. СПб., 1998.

²³ Панов М. В. Современный русский язык. Фонетика. М., 1979.

дыхательным толчком (Р. Стетсон) или является результатом одной управляющей команды (Л. А. Чистович).

Акустическое определение слога связано с сонорной теорией, предложенной датским лингвистом О. Есперсеном и применительно к русскому языку разработанной Р. И. Аванесовым; С этой точки зрения деление слов на слоги связано со степенью звучности рядом стоящих звуков. Сонорная теория является наиболее признанной в современном русском языкознании. В соответствии с этой теорией слог – отрезок с вершиной сонорности и менее сонорным окружением, волна нарастания и ослабления звучности.

Таким образом, глубина взаимодействия становится источником теоретической неуловимости слога, разнообразия подходов к его описанию. Разные теории дополняют друг друга. Слог как просодическая единица относится к единицам второго типа, которые сами по себе не составляют инвентаря; в языке представлены не сами эти сущности, а лишь абстрактные типы или схемы, по которым они строятся (формируются) при построении высказывания, то есть мы храним в памяти не все существующие в языке слоги, а только их возможные типы.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Аванесов Р. И. Фонетика современного русского литературного языка. – М., 1956.
2. Панов М. В. Труды по общему языкознанию и русскому языку. Т. I. М., 2004.

Ҳафизова Мухлиса Абдигани кизи
Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат
ўзбек тили ва адабиёти университети
(Ташкент, Узбекистан)

ЛИРИКАДА БАДИИЙ ТАФАККУР

Annotatsion: *The given article deals with inner world and fictional description of the Uzbek poetry. There are different speculations about authors'skill. Analysed materials were taken from R.Parfi, A.Makhkam and related on theoretical input.*

Key words: *Individuality, literary interpretation, literary, idea, philosophic interpretation.*

Шеър – шоир ақлий салоҳиятидан яралган ҳолда ҳолис эстетик тадқиқот предметиға айланадиган нутқий шакл ифодаси бўлиб ижодкорнинг жонли импровизацияси ҳосиласи. Қолверса, у олам жумбоғи иллюзиясининг сўзга кўчиши ҳамда субъектив муносабатнинг объективлашган моҳияти далолатномаси бўлиш билан бар қаторда туйғу ҳамда онгнинг ғоявий ибтидода уйғунлашуви. Шунингдек, шеър – фалсафа, ахлоқ ва маърифат уйғунлиги бўлиб, оҳанг, маром ва мусиқанинг ҳиссий идрокда сараланишидир.

Шеърятнинг ўзига хослиги ҳақида А.Шаропов шундай мулоҳаза юритади: «Қаътий интизом – поэтик мазмун, шоир тафаккури талаби. Коинот, турли галактикалардаги ўз орбитасида ҳаракат қилаётган юлдузлар сабабсиз бир-бирлари билан тўқнашиб кетмаганидек, ҳақиқий шеърдаги бирон ташбеҳ, ҳатто сўз ҳам шоир ният чизигидан ташқарида ҳаракат қилмаслиги, шоирнинг эзгу ниятига зид бўлмаслиги зарур. Шеърда ана шундай мукамаллик юзага келгандагина, у ўқувчини юлдузли осмондай ўзига сеҳрлаб олади. Шеърга юклатилган руҳ эса ўта қудратли ва муқаддас» [1. 192].

Психологик тасвирнинг намоён бўлиши шеърятда анча мураккаб кечади. Негаки, асосан оний кечинма асосига қуриладиган лирик ифодада таҳлил ва талқин ўзаро уйғунлашади. Бу нарса бадий тафаккурнинг келгуси тараққиёт тамойилларини, реалистик тасвир маданияти имкониятларини, жанрлар ва ижодий услублар ранг-баранглигини асослайди.

Маълумки, диалог оғзаки ва ёзма нутқ бирикувидан ҳосил бўладиган шакл сифатида сўзловчи ҳамда тингловчи муносабатларининг узлуксизлигини таъминлайди. Унда синтактик танлов асосида қурилган баён услубий вазифадорлиги инъикос топган ҳолда адабий тил уч қатлами – китобий услуб, умумхалқ сўзлашув услуби ва луғавий бирликлар туркуми уйғунлашади. Шунинг учун ҳам унда руҳий ва ижтимоий бўёқдорлик бир-бирини тўлдиради. Агар драматик турга мансуб асарларда монолог ҳам диалоглашган моҳиятга бўйсундирилса, назмда мулоқот шакллари монологик ифодага сингиб кетади. Шу боисдан, шеърятда ушбу ҳолатни махсус усул сифатида ўрганиш мақсадга мувофиқ. Айнан бир томонлама мулоқот устуворлиги шундай хулоса чиқаришга туртки беради. Негаки, лирика «мен» руҳий кечинмалари негизида вужудга келади. Унда шахс мақоми борлиқнинг умумлашган, мавҳумлашган ҳамда уюшган моҳиятини акс эттиради.

Менга барглар шивирлар аста:

«Энди биров шеър ўқийдими!..»

Наҳот Сўздан қолмади нишон,

гарчи улар бозорда лак-лак...

Менга гуллар шивирлар гирён:

«Бугун шеъринг кимга ҳам керак!..» [2. 357].

Асқар Маҳкамнинг «Сўз жони» шеъри сўз, ижод ва эътиқод масаласига бағишланган. Асрлар мобайнида «покиза ҳилқат», «илоҳий неъмат» тарзида юсак мақомга кўтарилган сўзнинг қадрсизлиниши фожиавий оқибатларга олиб келади. Зеро, Оллоҳ Таоло ва бандаси орасида ришта вазифасини бажарган восита узилса, маънавий таназул ҳосил бўлади. Парчада санъат моҳияти фалсафага йўғрилади. «Сўзлар Аюбдек хаста» вазиятда ҳаддан ташқари жўнлашган конструкция энг қуйи граматик мазмунга тенглашади. Тушунча қудрати заифлашуви натижасида лирик қаҳрамон «Барглар шивирлар аста: «Энди биров шеър ўқийдими?», «Гуллар шивирлар гирён: «Бугун шеъринг кимга ҳам керак!..» каби хулосага келади.

Одам бўлмас ҳеч ким ўқимаи,

Мавлононинг Куллиётини!..

Ва Пайғамбар Раҳмат тоғида

тингламоқда илоҳий ваҳий.

Бутун олам аҳлин оғзида

Иқро бисми Роббикал-лазий!..» [2.357].

«Мавлононинг Куллиёти», «Илоҳий ваҳий» мақоми сўз қудратини ёрқин аск эттиради. Унинг таянч нуқтасини «Иқро бисми Роббикал-лазий!..» калимаси тайин этади. Шундай экан, барг ва гуллар шивири ҳазон каби тўзиб кетади. Негаки, «Одам бўлмас, ҳеч ким ҳеч қачон, Навоийнинг ўқимай сўзин!» каби сатрлар юсак ҳис-ҳаяжон пардаларида битилган. Унинг ҳажми «қадимий осмон»ларга қадар чўзилган. Унинг салмоғи «дард вазни» қадар оғир ва изтиробли. Унинг залвори «ўтлиг муҳаббат» қадар ҳасратларга қоник ва изтиробларга ҳамоҳанг. Унинг қисмати «англаш ҳукми»га уланган. Унинг моҳияти «ҳаёт зарварақлари»дек зиддият-у мураккабликлар билан пайвандланган ва табиати «рангин туйғу» тақдирига боғланиб кетган.

Монологик тафаккурга асосланган шеърда сўз, маъно, оҳанг ва маром омукталашади. Унинг қўлланилиш усули бадий самарадорликни ҳосил қилувчи етакчи унсур, унда шакл такомиллашуви маъно-мантиқини янгилайди ва услуб барқарорлашувига шароит туғдиради. Айнан, ифода бадий имкониятлари чексизлиги тасаввур миқёсларини ўқувчи онгига яхлит ҳолда кўчиришни тақозо этади. Ахборот тезкорлиги ҳамда руҳиятнинг аниқ чизгиси муштараклиги мушоҳада тиниқлигини таъминлайди. Шу ўринда таъкидлаш жоизки, ақлий тафаккур юксалиши туйғу теранлашувига йўл очади. Зотан, сезимни мулоҳазадан, тафаккурни нутқдан, муҳокамани таҳлилдан айириб бўлмаганидек, диалогик муносабатларни ҳам монологик онгдан ажратиш мушкул. Ваҳоланки, бадий чамбарчаслик қонунияти ҳаётни англаш ва идрок этиш бутунлигини етакчи таомил сифатида фалсафий-маънавий жиҳатдан тақозо этади.

Мозийга урилиб синар овозим,

Умр ўтиб борар бенафъ, бенаво –

Наҳотки бу – қўлим? Бу менинг созим?
 Аллоҳдан сўрайман – Нечун бу жафо?!
 Жами жудоликлар жонимга етди,
 Ол, дейман, Аллоҳим, омонатингни.
 «Тавба» қил, - деди Ул, бир Китоб тутди –
 Муродинг мустажоб, мингил отингни [2. 200].

Рауф Парфининг «Тавба» шеъридан олинган парчада банданинг Парвардигорга илтижоси ва иқрори тасвирланган. «Иймон бер руҳимга, жисмимга жон бер» дея мурожаат этаётган лирик қаҳрамон ўз моҳиятини англашга интилади. Маърифат илинжидаги одамзод камолотнинг чигал йўлида толиққан. «Жами жудоликлар» уни аросатда қолдиради. Муаллиф ёниқ мисралар воситасида персонаж ботиний оламига назар ташлар экан, мудоми Ҳақ ва ҳақиқат йўлини идроклашга уринган инсон табиатини бутунлаштиришга ҳаракат қилади. Бандасининг жами саволларига жавобан «Ул бир Китоб тутди». Муқаддас китоб одамзодни ҳидоят йўли сари етаклайди:

Уммонлар йўлингда, жангал йўлингда,
 Номаълум ҳар жойда қурилган доринг.
 Оламнинг калиди сенинг қўлингда,
 Жафо ҳабибингдир, хиёнат – ёринг.
 Аллоҳим, лаҳза – мен, сен эрса мангу,
 Таскин берганингми, шафқатингми, бу?! [2. 201].

Яратган уммат қисмат йўлини тасвирлаб беради. «Номаълум ҳар жойда қурилган дор» - инсон руҳияти зиддиятлари ҳосиласи! Маънавий юксалиш сўқмоқлари айнан инсон иродасини тоблайди, эътиқодини синовдан ўтказиши ҳамда нурафшон масканга етаклайди. «Оламнинг калиди» аслида одамзод саодатини далолатлайди. Бироқ мавжуд йўл «жангал», «уммонларга» туташ. Исёндан кейинги итоат мўминга роҳат-фароғат бағишлайди. «Аллоҳим... мен ўлдим... Мен Сенга етдим...» мурожаати замирида анланган моҳиятнинг анланмаган қирралари жилваланади. Бинобарин, лаҳзага ўхшатиш билан одам қисмати китобда ёзилганидек силлиқ ҳамда бенуқсон кечмайди. Унда Оллоҳ Таоло куч-қудрати ва меҳр-шафқати ўзининг ифодасини топади.

«Шоирлик - аслида шеърни шеъриятга алоқаси йўқ нарсалардан тозалай билишдир. Чунки шеърнинг гўзаллиги, аввало, ана шу мусаффоликда акс этади. Шеърдаги софлик – туйғу ва тушунчадаги софлик эмас. Шеър билан шеърхон орасидаги давомли ички алоқа шундай бошланади... Зеро, ҳақиқий адабиёт – санъаткорлик завқи ила яратилган асардан бошқа бир нарса эмас. Унинг билан тўғридан-тўғри муносабат ўрнатишгина шахсий таассурот ва тасаввурни юзага келтиради. Бироқ, ҳеч қандай адабий матн, муайян бир усул, тушунча ва ҳақиқатга таянилиб ўқилмагунча, ўз-ўзидан туйғу ва фикр уйғотолмайди» [3. 162].

Шеъриятда руҳий кечинма онг ҳамда лирик қаҳрамон муносабатларини бошқаради. Унда бадиий тасвир моҳияти кенгайиб теранлашган ҳолда тасвир миқёси мавҳумлашади ҳамда ўзгаради. Шунингдек, ифода давомийлиги ўз ҳисобини алмаштиради ҳамда таянч нуқталар ўлчамини янгилайди. Қолаверса, таҳлил вазифадошлиги ҳаракатни кескинлаштириб, тасвирдаги ҳолатни муайян вазиятга мувофиқлаштириш билан бирга ривоя субъекти

объективлашган талқинни ҳосил қилади ҳамда ҳиссий-маънавий босимни кучайтиради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбек адабий танқиди тарихи антологияси. –Т.: Турон-Иқбол, 2011.
2. XX аср ўзбек шеърияти антологияси. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2007.
3. Ҳаққулов И. Ижод иқлими. –Т.: Фан, 2009.

SECTION: PHILOSOPHY

**Djasanova Sayyora, Razzoqova Go'zal
(Jizzax, O'zbekiston)**

AYOLLAR JAMIYATNING – IMTIYOZLI QATLAMI

Rezyume. *Ushbu maqolada jamiyatning ma'naviy yangilanishida xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi va ularni jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tahlil qilingan.*

Summary. *Since the beginning of our independence the social activity of women grew in Uzbekistan. Because they are support of society nation in person's perfection and ethical perfection based on the fundamental persons.*

Резюме. *В статье анализируется усиление социальной активности женщин в нашем независимом обществе и их место в прогрессе общества.*

Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning tarkibiy qismlaridan biri sifatida davlat va jamiyat tomonidan xotin-qizlarning ijtimoiy-hayotdagi ishtiroklari, oilani har tomonlama rivojlantirish, yoshlar tarbiyasida oilaning va onalarning o'rnini yanada yuksaltirish kabi qadriyatlarga ham ayollarning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadlaridan kelib chiqib muhim e'tibor berila boshlandi.

Milliy mustaqillik yillarida onalar va bolalar jamiyatning eng imtiyozli ijtimoiy qatlamiga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va amaldagi qonunlarning barchasida ayollarning u yoki bu huquqlari, ijtimoiy turmush tarzi himoya qilinishining o'zi ham bu sohaga katta ahamiyat berilayotganligini anglatmoqda. Konstitusiyamizning alohida bir qismi - XIV bobi «Oila» deb atalishi ham bejiz emas. Uning 65-moddasida quyidagi so'zlar bitilgan: «Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi» [1, 13].

Mamlakatda aholisining yarmini tashkil etgan xotin-qizlarning oila va jamiyatdagi erkinligi va huquqlarini yuqoriga ko'tarish, ular mehnat sharoitlarini yaxshilash, onalik va bolalikni har tomonlama ijtimoiy himoya qilish masadlarida katta islohotlar amalga oshirildi.

Mamlakatda ayollarning uzoq davrlardan buyon erkaklar bilan ijtimoiy va siyosiy mavqei jihatidan tengligini ta'minlashdagi muammolarni bartaraf etish maqsadlarida, shuningdek ayollarning kelajak avlodni shakllantirishdagi alohida xizmatlarini e'tirof etib, ularga nisbatan kuchli ijtimoiy himoya siyosatini qllab kermoqda.

Mustaqillik yillarida davlatning qo'llab-quvvatlashi bilan xotin-qizlarni ijtimoiy va siyosiy sohalaridada qo'llab-quvvatlash maqsadlarida katta ishlar amalga oshirildi. Mahallalarda ayollarni axborotlar bilan ta'minlash, zamonaviy kasblarga o'qitish, ayollarni diniy bilimlar va milliy-diniy an'analar asoslarini egallashi hamda diniy eksremizm va aqidaparastlikka qarshi kurashishga doir turli bilimlarni egallashiga ko'maklashishga doir qator tadbirlar amalga oshirildi. Mahalla fuqarolar yig'inlarining diniy ta'lim va ma'naviy-axloqiy tarbiya bo'yicha maslahatchilar faol,

tajribali va ma'lumotli ayollardan bo'lishiga erishildi. Ular uchun har oyda yirik va taniqli mutaxassislar jalb qilingan seminarlarni o'tkazish an'anaga aylanib qoldi. Xotin-qizlar qo'mitalari vakillari endi ko'proq mahalla va boshqa yashash joylaridagi aholi bilan yaqin aloqalar o'rnatishga kirisha boshladi. Bu sohadagi islohotlar taboro chuqurlashib bormoqda.

Shunga qaramay, o'tish davrida ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolliklari o'sdi. Ayollar endilikda jamiyatning teng huquqli a'zosi, davlat va jamoat ishlarini boshqarishda ham erkaklar bilan teng darajadagi inson sifatida ham o'z madaniy, siyosiy va huquqiy saviyalarini oshirib bormoqdalar. Hozirgi davrda ayollar hayotidagi muammolarni o'rganish, ularning yechimlarini topish, bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish maqsadlarida ilmiy-tadqiqotlar olib borishni hayotning o'zi rivojlanish kun tartibiga qo'ymoqda.

Ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini yuksaltirish. Ularning jamiyatdagi mavqei va nufuzini oshirish maqsadlarida rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish, bu sohadagi ko'plab muammolarni yechimlarini topish, mamlakatda ayollarni huquq va erkinliklarini himoya qilish va ta'minlashni yaxshilashga doir xulosalar, tavsiyalar, takliflar ishlab chiqish o'z yechimini kutayotgan dolzarb masaladir. Chunki, hozirgi davrda davlat siyosatining asosiy diqqat-e'tibori xotin-qizlarni jamiyatdagi va davlat boshqaruvidagi o'rnini yanada yuqori darajalarga ko'tarishga qaratilganligi fikrimizning dalilidir.

Ayollar ijtimoiy maqomi yoki nufuzi kabi tushunchalarni o'rganish zaruriyati feminizm tushunchasini bilishni talab etadi. Feminizm (lotincha- «femina» so'zi «ayol» ma'nosini anglatadi) xotin-qizlar huquqi va erkinlashuvini himoya qiluvchi mafkura va harakat sifatida XVIII asrda Fransiya, Angliya, AQShga kirib keldi[2, 86].

Hozirgi davr ijtimoiy-falsafiy fanlarida feminizm quyidagi yo'nalishlar bo'yicha talqin etiladi va bu yo'nalishlar o'zaro bir-birlariga ta'sir ko'rsatadilar:

- ayollarning global tarzda kamsitilishi nazariyasi va ularning erkaklarga bo'ysunishini ifodalash tushunchasi;
- xotin-qizlarni global kamsitish va ularni erkaklarga itoat qilishining umumiy nazariyasi;
- ayollarning erkaklar ustunligi va ular zulmidan ozod qilishning sosio-siyosiy nazariyasi va amaliyoti;
- gender - sinfiy tizim bilan strategik ziddiyatlardan tashkil topgan ijtimoiy harakat;
- ayollarni kamsituvchi barcha mafkuralarga qarama-qarshi nuqtai nazarda turgan mafkura.

Tarixiy rivojlanish jarayonlarida xotin-qizlar ijtimoiy nufuzi yoki maqomining vujudga kelishi shuni ko'rsatdiki, xotin-qizlarning erkinlikka chiqarish harakati o'z-o'zidan paydo bo'lgan emas, balki ayollarning jamiyat tomonidan kamsitilishiga qarshi kurashi va uni davomiyligi hamda rivojlanishi sifatida ro'y bermoqda. Angliyada bu harakat ildizlari XVII asrdan boshlangan. Shu tariqa feminizm ayollar mafkurasiga aylandi, u o'z oldiga ayollarni barcha insonlar bilan tengligini amalga oshirishni asosiy maqsad qilib qo'ydi.

Oilada ayollarga zulm qilishga qarshi dastlabki ayollarning ommaviy harakati 1853 yilda Angliyada birinchi xotin-qizlar uyushmasi tomonidan «Ayollar va bolalarga zulm qilishni bartaraf etish va jazolash» haqida hujjat qabul qilinishi bilan boshlandi. Bu hujjat sezilarli darajada oilada erkak zulmini qisman bo'lsa-da

chegaralay oldi. Shuningdek, 1857 yilda yana «Matrimonial ishlar to'g'risida» hujjat qabul qilinib, unga binoan juda cheklangan holatlarda (ya'ni, oilada o'zaro xiyonat, er yoki xotinni ruhiy kasalligi tufayli) nikohdan ajralishga huquq berildi. Lekin, madaniy-ma'rifiy feministik harakatning taniqli arbobi Frensis Pauer Kobb faol sa'y-harakatlari tufayli ayollar huquqlari 1878 yilga kelib yanada kengaydi. Erkaklar esa bu harakatga qarama-qarshi bo'lgan «Ayollarni kaltaklash klubi»ni tashkil etdilar. Bu klub ayollarni kaltaklagan erkaklarni jarima to'lashida yordam berish maqsadida tuzilgan edi [3, 67].

XX asr boshlariga kelib, «xotin-qizlarni ozod qilishning insonparvarlik yo'llari» ga doir yangi g'oyalar tug'ila boshlandi. Bu g'oyalar targ'ibotchisi feministik orzular muallifi Sh.P. Gilman ayollar ijtimoiy ongini oshirishni ayollar kurashining muhim shakli, deya hisobladi. U xotin-qizlarni ozod qilishning mavjud an'anaviy g'oyalariga qarama-qarshi ravishda «sotializm g'oyalari bilan ayollarning tinch yo'l bilan jamoaviy chiqishlari»ni yo'lga qo'yishning insonparvarlik nazariyasini ishlab chiqdi. Uning yozishicha, xayoliy mamlakat - «Xyorlend»da sotializmni siyosiy rahbarlik vositasida qurish mumkin. Bu rahbarlik ayollar tomonidan amalga oshiriladi. Jamiyatni olim ham, harbiy ham, rohib ham, usta ham boshqarmaydi, balki unda onalar - hozirgi va kelajak zamonlarni bog'lovchi kuch sifatida harakat qiladi [4].

XX asr boshlarida qator mamlakatlarda xotin-qizlar o'zlari orzu qilgan siyosiy huquqlarning anchasini qo'lga kiritdilar. Lekin bu huquqlar ularning hayotini unchalik yaxshilamadi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda ayollar huquqlari uchun kurashgan amerikalik va angliyalik ayollar demokratik huquqlarni himoya qilish kurashlariga qo'shilib ketdilar.

Amerikalik feminist ayollar faollashuvi B. Fridanning «Ayollik mistikasi» (1963 yil) nomli kitobini nashr etilishi bilan bog'liqdir. Bu kitobning asosini sosiologik tadqiqotlar (xotin-qizlar so'rovnomasi, xotin-qizlar matbuoti tahlili) tashkil etdi. Unda ayollarning uy-ro'zg'or ishlaridan toliqishi va o'zining mavjud ekanligini his etmaslik holatlari taxlil etildi. B.Fridan ayollarning bu holatdan chiqish uchun isyonga chaqiradi va shunday xulosani o'rtaq tashlaydi: «Faqat bemor jamiyat o'z muammolariga tik qarolmaydi, o'z a'zolariga keng imkoniyatlar yaratib berolmaydi, ayollarning qobiliyatlariga ahamiyat bermay qo'yadi. Faqat bemor va yetilmagan jamiyatgina hayotga kirib kelayotgan tengliklarni ko'rishni istamaydi. Buning sabablari erkaklar ayollarni uy ichiga qamab qo'yib, maishiy turmushda yashashga va uni umrlarining asosiy maqsadlariga aylantirishga urinishlaridan kelib chiqadi»[5, 223].

B. Fridanning bu kitobi o'rtahol xotin-qizlari qatlamining qomusiga aylandi. Uning maslakdoshlari xotin-qizlarning milliy tashkilotini tuzdilar. Bu tashkilot talablaridan biri – «xotin-qizlar mehnatiga haq to'lashda kamsitilishga barham berish va ayollar imkoniyatlarini cheklovchi qonunchilikka o'zgartirishlar kiritishdan» iborat edi [5, 43]. Bu tashkilot o'z mafkurasida liberal feminizm kayfiyatini ifodaladi va mamlakat xotin-qizlarini erkinlikka chiqarish harakatining tarkibiy qismiga aylandi.

Hozirgi davrda ayollar huquqiy nufuzini ta'minlashda Butunjahon xotin-qizlar To'rtinchi konferensiyasida tenglik qoidasi va xotin-qizlar maqomini mustahkamlashga doir qarorlari jamiyatning asosiy markaziy masalasi darajasiga ko'tarildi. Konferensiya xujjatlarida keltirilishicha, «xotin-qizlar muammosi va ularning yechimini topishdagi siljishlar bo'shliqda hal etilmaydi. Shuningdek, «xotin-qizlar masalasi o'z holicha paydo bo'lmagan, balki u ayollar huquqini kamsitilishi,

ularga qarshi to'sqinliklar oqibatida kelib chiqdi. Xotin-qizlar maqomi ayollarning jamiyatda va oiladagi ahvoli bilan o'zaro munosabatga kirishadi. Shuning uchun ham agarda biz ayollar nufuzini ko'tarmoqchi bo'lsak, bu jarayonga erkaklarni ham jalb etishimiz zarur. Mashaqqatlarni yengib o'tish yo'lini jamiyat va oilada ayollar va erkaklar rolini tahlil qilish orqali izlash lozim, bu muammolar esa har ikkala tomon - erkak va ayol ishtirokida hal qilinadi».

Xotin-qizlarning Pekinda bo'lib o'tgan IV Butun jahon konferensiyasida ayollar ahvoriga doir qabul qilingan qarorlarida ularning maqomlarini ta'minlash sohasidagi muammolar ochiq ko'rsatib o'tildi. Bu anjuman xujjatlari qayd etishicha, aksariyat mamlakatlarda hali ham xotin-qizlar amalda iqtisodiy qarorlarni qabul qilish jarayonlarida juda ham kam ishtirok etadilar. Jumladan, moliyaviy, byudjet, tijorat va boshqa turdagi iqtisodiy siyosatni shakllantirish sohalarda ayollar umuman ishtirok etmaydilar. Shuningdek, ish haqini nazorat qilib turuvchi soliqlarni belgilash va uning me'yorlarini tashkil etuvchi soliq siyosati ham asosan erkaklar tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, milliy axborot, milliy qonunlar, kodekslar va ijtimoiy sug'urta doirasidagi me'yorlar, xalqaro bitimlar va konvensiyalar kabilarni korporasiyalar tomonidan nazorat etish tavsiya etiladi. Agar ana shu sohalarda ayollar yoki ularning tashkilotlari vakillari ishtirok etmas ekan, ular maqomini oshirish umuman mumkin emas. Shuning uchun ham iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan siyosat va dasturlarga xotin-qizlar ham ishtirok etishini ta'minlaydigan mexanizmlarni yaratish, makro va mikroiqtisodiy, ijtimoiy siyosatni qayta ishlab chiqish jarayonlari tahliliga gender muammolarini kiritish ham o'z yechimini kutayotgan sohalardan biridir [6, 12].

Ayollar bilan erkaklarning markaziy va mahalliy hokimiyat organlari boshqaruvlarida teng huquqlilik asosida ishtirok etishidagi masalalar Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) tomonidan tahlil etilib, ulardan xulosalar chiqarib borilmoqda. Shuningdek, Pekinda o'tkazilgan ayollarning IV Butun jahon konferensiyasi qarorlarida xotin-qizlarni davlat boshqaruvidagi vakillarini kamligi, bu holat barcha mamlakatlar ijroiya hokimiyati va vazirliklarida mavjudligi ta'kidlandi [7, 93-96]. Pekin konferensiyasida qabul qilingan xujjatlarda hukumat va jamoatchilik tashkilotlariga davlat va xususiy sektorlardagi barcha darajadagi turli rahbarlik lavozimlariga xotin-qizlar vakillarini tavsiya etilishini doimiy nazorat qilishni, bu sohaga muhim ahamiyat berishni tavsiya etadi. Jumladan, barcha davlatlarga har yili barcha darajadagi hukumat ishlarida ishtirok etayotgan xotin-qizlar va erkaklarga davlat tomonidan qayd etilgan lavozimlarga teng imkoniyatlar berishni ta'minlash tavsiya etildi [8, 28-31].

Milliy mustaqillik yillarida ayollarni ijtimoiy himoya qilish, ularni oiladagi nufuzini ko'tarish, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ijtimoiy mavqeiini oshirish, ularning mehnat sharoitlarini yaxshilash, bolali onalarni ijtimoiy muhofaza qilish, ayollarni davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtiroklarini ta'minlash, ularni huquqiy jihatlardan muhofaza qilish, xullas ularni sivilizasiyaga erishgan mamlakatlar uchun xos bo'lgan shart-sharoitlarda yashashi va mehnat qilishlari uchun ko'plab qonunlar va boshqa huquqiy aktlar qabul qilindi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi.-Toshkent: O'zbekiston, 2003.
2. Ayollar - huquq - jamiyat. Toshkent, 1999.
3. Девис А. Женщины, раса, класс. - Москва, 1987.
4. Gilman Ch. Herland. N.Y., 1997. P. XI.
5. Freidan B. The Feminine mystique. N. Y., 1974.
6. Xotin-qizlar ahvoli va roli to'g'risida BMT materiallari. - Toshkent, 2001.
7. Doklad chetvertoy vsemirnoy konferensii po polojeniyu jencin.-Pekin:OON, 1995.
8. Xotin-qizlar uchun ishchi o'rinlari: ko'proq va a'loroq bo'lsin. - Jeneva: Xalqaro Mehnat Tashkiloti, 1996.

Mirkamilov Axror Maxmudovich
(Jizzax, O'zbekiston)

**DEMOKRATIK BOSHQARUVDA FUQAROLIK JAMIYATI
VA MAHALLANING O'RNI**

Bugungi globallashuv davrida jamiyatda siyosiy, demokratik islohotlarni chuqurlashtirishda yangi, yuqori bosqichka ko'tarilishi, avvalambor, aholining faolligini kuchaytirish, jamiyatda manfaatlar va qarama-qarshi kuchlar o'rtasida muvozanatni taminlaydigan kuchli mexanizmlarni shakllantrish zarur. Demokratiyaning eng muhim tamoyili: odamlarning saylov huquqi o'z hohish irodasini erkin ifodalash, o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish uchun haqiqiy shart -sharoit, qonuniy-huquqiy zamin yaratilishidir. Davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini shakillantrish jarayonlarni erkinlashtirish masalasi ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi vazifalar bir -biridan, mustaqil holda ish yuritish tamoyillarini mustahkamlash, hokimiyat vakolatlarini nodavlat va jamoat tashkilotlariga fuqarolarni o'z-o'zini boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borish, ularni haq-huquqlari va erkinliklarini muhofaza etishni kuchaytrishdan iborat. Fuqorolik jamiyat qurilishda fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlariga katta umid bog'lanadi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. Karimov "Biz fuqarolik jamiyati qurishga intilmoqdamiz, buning ma'nosi shuki, davlatchligimiz rivojlanaborgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish yani o'z-o'zini boshqarish organlarini yanada rivojlantrish demakdir" degandilar. O'z-o'zini boshqarish organlarini tashkil qilishda, shakllantrishda O'zbekistonning o'ziga xos xususiyati shundaki, ushbu masalani hal qilishga milliy an'analarni, tarixiy qadriyatlarini tiklash aholining tub manfaatlariga xos keluvchi yo'lni tanlash nuqtai nazardan yondashish bo'ladi. Xususan, O'z-o'zini boshqarishda asosiy tayanch qilib mahhalar belgilandi. Ular inson qalbida, vatan tuyg'usining shakllanishiga, milliy g'ururning vujudga kelishida, millatchilik illatlaridan xoli bo'lishda katta tasir ko'rsatib kelgan. O'z-o'zini boshqarish organlari yoki mahhalarining vazifasi: aholining davlat va jamiyat ishlarida ishtirokini taminlash, kamtaminlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishda ishtirok etish bilan cheklanib qolmaydi. Ularni muhim vazifasi har bir shaxsning ongini ma'naviy kamolotini oshirish uchun millatchlik, mahaliychilik kabi salbiy jihatlarini yuqotish uchun ish olib boorish va milliy qadriyatlarini urf-odatlar an'analarga, vatanga, davlatga va boshqa fuqarolarning manfaatiga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalashdir. Bugungi davrida milliy qadriyatlarimizni saqlab qolish, biz yoshlarni yurtimizga munosib farzandlar etib tarbiyalashda mahallaning o'rni va ahamiyati yanada oshmoqda. Xalqimizning **"Mahalla ham ota, ham ona", "Bir bolaga yeti qo'shni ota-ona"** degan maqollar zamirida teran ma'no mujassam. Yosh avlodning ma'naviy olamning yuksaltirish, ularni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash mahallamiz faolyatining muhim yo'nalishiga aylangan. Shuning uchun mahallalarning hayotimizdagi o'rni va tasiri bugungi kunda ortib bormoqda. Davlatimiz rahbari tashabusi bilan mahalla faolyatining tashkiliy asoslarini takomillashtirish, uning vazifa va vakolatlarini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlar tizimidagi rolini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. **Xususan muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning** "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatni birgalikda

barpo etamiz” asarlarida: Mahalla xalq bilan davlat o’rtasidagi ko’prik bo’lishi va mahalla ahli bir oila kabi ishonchli, mustahkam rishtalar bilan o’zaro uzviy bog’lanishi kerak” dep qayd etganlar. Mahalla tushunchasi **“Shahar ichidagi shahar”** ma’nosini anglatadi va uning kelib chiqish tarixiga e’tibor beradigan bo’lsak, tarixchi olim **Narshaxiy** “Buxoro tarixi” asarida: Bundan 1100 yil ilgari mahalla xalqning boshqaruv uslubi ekanligini va qadimdan mahalla nafaqat ijtimoiy, balki ma’muriy-hududiy tuzulma tarzida e’tirof etilganligini bilishimiz mumkin. **Alisher Navoiyning** “Hayratul-abror”(Yaxshi kishilarning hayratlanishi) asarida quyidagi band uchraydi: Shaharlar otini maholat etib, Bo’ldichu yuz shahar Hiri ot etib. Mahallaning “Shahar ichidagi shaharcha” degan mazmunida yuqoridagi tashbehdan ko’rinib turibdiki, o’rta asrlarda Hiri dep atalgan Hirot shahri yuzta kichik shaharlar-mahallardan tashkil topgan ekan. Demak qadim zamonlardayoq ozini-o’zi boshqarish organlarining ilk kurtaklari kishilarning o’z manfaat va qiziqishlarini, jamiyatdagi munosabatlarda ifodalash va himoya qilish maqsadida mahalla sifatida namoyon bo’la boshlagan. Mening naznimcha, yosh oilalarni har tomonlama qo’llab-quvatlash, oila tayanchi bo’lgan ayollar og’irini yengil qilish, jamiyatda sog’lom turmush tarzini qaror toptirishda, birinchi navbatda mahallaning vazifasi bo’lmog’l lozim. Mahallani katta bir oilaga qiyoslash mumkin –deydilar buvimim, chunki mahallada yashayotganhar – bir insonning hayoti,quvonchi va tashvishlari barchaning e’tiborida bo’ladi. Biz yoshlarning yuksak ma’naviyatli barkamol bo’lishimizga oilada onajon va buvijonlarning ham hissasi bor. Mening buvim **Azimqulova Paxta**, buvimning mahallada “chaqqon buvi” deyishsa hamma taniydi. Bor mehrlarini bolalarning quvonchi uchun bag’ishlagan buvijonim 75 yoshni qarshilaganlar, shu 75 yil davomida hayotdagi va turmushdagi barcha qiyinchiliklarni mardonovor boshlaridan o’tkazdilar, va olti nafar bolani oq-yuvib, oq tarab vatan,el-yurt koriga yaraydigan qilib tarbiyaladilar. Buvim dala yumushlari, uy-ro’zg’or ishlari, bola tarbiyasi –hammasini o’z-o’rnida bajarganlar. Mahallada yig’in bormi, hashar bormi, doimo odamlarni uyushqoqlikka da’vat etib yelib-yugurganlar. Ularning bunday jonkuyarligi kimlargadir yoqmas, ammo yon-atrofimiz obodligi ular kabi fidoyi keksalarmiz tufayli desam xato bo’lmaydi. Mahalla fuqarolar yig’inida xotin-qizlar bilan ishlash bo’yicha komissiya rais vazifasida xizmat qildilar. Sobiq SSSR davrida mamlakatimizda mahalla nomi, uning faoliyati qay yo’sinda bo’lganligini buvimning suhbatlari davomida mamlakatimizda mahalla faoliyati mazmuni va vazifalari butunlay izdan chiqqanligini, mahalla o’zining huquqiy maqomini yo’qotganligi va ularning asosiy faoliyati sobiq kommunistik partyaning mahalliy tashkilotlarning qo’llab-quvatlashligini, shuningdek mahalliy anana va urf-odatlar, odob-ahloq meyorlarini tashviqot-targ’ibot qilishligini, oilalardagi marosimlar va boshqa tadbirlarni o’tkazishda kommunistik partyaning “ko’zi va qulog’i” bo’lib turishganligini va mahallaning maqsad va vazifasi shular bo’lganligini aytib berganlar. Qadimdan ma’naviyat, ta’lim va tarbiya masalalarni hal etib kelgan mahallarning o’rni deyarli yo’qqa chiqarilgan. Faqatgina O’zbekistonda mahallar milliy mustaqillik davriga kelib o’zini-o’zi boshqarish organiga aylandi va mustaqil tashkilot sifatida qaytadan mustahkamlandi. Mahalla rivojlangan mamlakatlardagi tushunchada aniq belgilangan ijtimoiy–demografik madaniy-ma’naviy va hududiy–ma’muriy birlik sifatidagi maqomga erishdi. U o’z hududidagi fuqorolar o’rtasida an’analar va urf-odatlar insoniy, huquqiy munosabatlar birligini tashkil etgan holda fuqorolarning o’zaro ijtimoiy munosabatlarni bog’lab turish vositasiga aylandi.

Bugungi rivojlanayotgan fuqorolik demokratik jamiyatimizda taklif etilayotgan yangi loyihalar va ko'plab o'zgarishlar mahallar o'rnini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarmoqda. Mahallalar o'z zimasiidagi vazifalarni samarali bajarish uchun huquqiy asoslar bilan birga yetarli shart-sharoitlarga ham ega bo'lmog'li lozim “ deydilar **Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev**. Xozirda mahalla idorasining zamonaviy binosida barcha sharoitlar yaratilgan, shu sababli mahalla jamiyatimizdagi adolat tamoyillarining ko'zgusiga aylanishi, bu yerda odamlar kelib fikirini, taklifni, dardini aytadigan, muomosa yechim topadigan joy bo'lishi, mahalla raisi va ma'sul shaxslar hududagi har bir oilaning ahvolidan xabardor bo'lishi lozim. Xozirda mahalla markazlarida choyxona, novvoyxona, do'konlar, sport va bolalar maydonchalari bo'lishi odamlarning zarur ehtiyojlari qondirishi uchungina bu ishlar amalga oshmoqda, bu xayrli ishlar mahallarni obodonlashtirish, ozoda saqlash, ayniqsa yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa qiladigan bo'lsam, **MAHALLA BU-KATTA OILA** fuqorolik jamiyatning muhim bo'g'ini hisoblangan mahallaga davlatimiz tomonidan katta imkoniyatlar berilgan. Oilaning tinchligi, farzandlar tarbiyasi bevosita mahalla bilan chambarchas bog'liq. Mahalla ahil tinch bo'lsa, jamiyatda tinchlik bardavom bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy, “Hayratul-abror”(Yaxshi kishilarning hayratlanishi) asari
2. Narshaxiy, “Buxoro tarixi” asari
3. Sh.M. Mirziyoyev, “Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatni birgalikda barpo etamiz” asari

Тоғаев Нодиржон Эргашевич
Самаркандский государственный университет
(Самарканд. Узбекистан)

ЁШЛАРНИ МИЛЛАТПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШНИНГ МАЪНАВИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Аннотация: В настоящей статье изложены проблемы всестороннего воспитания взрослеющего молодого поколения в национальном духе, воспитания молодежи в национальном духе воплощающей в себе национальные и общечеловеческие ценности.

Ключевые слова: молодежь, национальность, прогресс, социальный прогресс, мир.

Annotation: The present article outlines the problems of comprehensive education of the maturing young generation in the national spirit, the education of youth in a national spirit embodying national and universal values.

Keywords: youth, nationality, progress, social progress, peace, prosperity

XXI аср бошқа давлатлар сингари Ўзбекистоннинг ҳам олдига ўз ечимини топиши зарур бўлган бир қатор муаммоларни кўйди. Бу муаммоларнинг ечими бевосита ёшлар ҳаёти билан чамбарчас боғланган бўлиб, ёшлар эртанги куннинг яратувчилари сифатида ўзларининг миллий давлатчилиги тарихини чуқур англаб етиши, ўз қалбларида миллатпарварлик туйғуларини барқ урдириб яшашлари керак. Шу боис ёш авлодни баркамол инсонлар қилиб тарбиялашда авваломбор миллатпарварлик муҳим эканлигини унутмаслигимиз лозим. Биздаги бундай миллий туйғулар бевосита аждодларимиз томонидан яратиб қолдирилган бой тарихи ва унинг маданий мероси орқали келажакка муҳрланиб қолади. Бу ҳақда Мамлакатимиз Президенти Ш. М. Мирзиёев “Бизнинг ҳавас қилса арзийдиган буюк тарихимиз бор. Ҳавас қилса арзийдиган улў аждодларимиз бор. Ҳавас қилса арзийдиган беқиёс бойликларимиз бор. Ва ишонаман худо хоҳласа ҳавас қилса арзийдиган буюк келажакимиз ҳам бўлади” – деб таъкидлайдилар. [1: 415]

Миллатпарварликнинг ёшлар онига сингиб бориши ва унинг жамиятда тутган роли доимо долзарб миллий муносабатлар билан уйғунлашган тарзда амалга ошади. Унинг ёшларга таъсири серқирра ва сермазмун бўлиб, Биринчи Президентимиз Ислон Каримов асарларида ёшларни миллатпарварлик руҳида тарбиялашнинг бир қатор йўналишлари кўрсатиб берилган. Буларга тарихни ҳолисона ўрганиш, аждодларимиз қолдирган бой илмий, маданий меросни тиклаш ва ривожлантириш, ёшларда янгича тафаккур маданиятини шакллантириш ва мустақилликни янада мустаҳкамлаш бўлиб ҳисобланади.

Тарихни ҳолисона ўрганиш йўналиши мураккаб ва мукаммал бўлган илмий тадқиқот ва изланишларни талаб этади. Тарих миллатнинг бутун ижтимоий тараққиёти жараёнида эришилган ютуқлари ва камчиликларини кўрсатиб берар экан, унинг мазмун ва моҳиятини англаб етиш ҳар бир фуқаронинг айниқса, ўсиб келаётган ёш авлоднинг асосий мақсад ва вазифаси эканлигини унутмаслигимиз лозим. Миллат ва унинг келажаги билан қизиқиш,

ундаги униб-ўсиб келаётган ёшларни миллатпарварлик руҳида тарбиялаш ана шу жараёнда ўзлигини намоён этади. Бундай дунёқараш бугунги кунда тарихимизда улкан из қолдирган аجدодларимизнинг бой илмий ва маданий меросини қайта тиклаш ва ривожлантиришга асос бўлади.

Бой маданий меросимиз жамиятда ёшларни миллатпарварлик руҳида тарбиялашга хизмат қилар экан, у ҳеч вақт бир миллатнинг мақсади учун фаолият олиб бориши мумкин эмас. У фақатгина халқнинг дунёқарашига асосланиши лозим. Айни пайтда демократик тамойилларга асосланиб фуқаролик жамиятининг маънавий қиёфасини ривожлантиришга илдам қадамлар билан кириб бораётган мамлакатимизда, авваломбор, бозор муносабатларининг юксак маънавиятга асосланишини яратиш, миллий ўзлгимизни диний ва дунёвий қадриятлар билан уйғунлигини кенг жамоатчилик онгига етказиб бериш, ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий соҳалардаги ислохотларда ёшларнинг дунёқарашини аجدодларимизнинг миллий бой тажриба ва кўникмалари билан қуроллантириш долзарб назарий-фалсафий масалалардан биридир.

Биринчи Президентимиз Ислам Каримов бу борада шундай деган эди: „Биз ҳаётга катта орзу-умидлар билан кириб келаётган ёшларимизга бир ҳақиқатни, яъни, „Эй болам, сенинг Ватанинг битта – барчамизга азиз, бетакрор мана шу Ўзбекистон. Ота-боболарингнинг ҳоки шу ерда ётибди. Шу муқаддас замин сени дунёга келтирган, сен уни обод этишинг, ҳимоя қилишинг шарт. Нафақат сенинг ўз ҳаётинг, балки сенга умид кўзини тикиб турган ота-онанг, опа-сингилларинг, ёш гўдаклар, нуроний қарияларимизнинг ҳаёти ҳам ана шу бурчингни нечоғлик адо этишингга боғлиқ“ деган тушунчани уларнинг қалбига, онгу шуурига синдиришимиз даркор“ [2: 273].

Ёшларни миллий руҳда тарбиялаш ва миллатпарварлигини олижаноб ҳис-туйғулар билан камол топтириб бориш маънавий баркамолликка етишишдаги биринчи қадамдир. Бундай ёш авлоддаги юксак маънавий фазилатлар қандайдир ғайритабиий кучлар ёки тақдирнинг инъоми эмас, у ижтимоий ҳаётнинг турли жабҳалари, маънавий ворислик ва муайян давр, жамият таълим-тарбия тизимининг, оила ва муҳитнинг маҳсулидир. Шунинг учун ҳам бугунги кунда ёшларнинг миллатпарварлигини шакллантириш аввало „мактабларда, ўқув юртларида, давлатга оид тарбия масканларида ўқув-тарбия ишларининг асосида янгича дунёвий дунёқарашни шакллантириш ётмоғи лозим“ [3: 128]. Буларнинг барчаси ёшларнинг миллий тафаккури ва миллатпарварлигининг камол топишига, жамиятимиз эҳтиёжига жавоб берадиган кадрлар бўлиб етишишига хизмат қилади.

Халқимиз учун миллий мафқуранинг нақадар долзарб ва ўта муҳимлиги, ҳар бир шахс фуқаролик жамиятида эскича дунёқарашдан озод бўлиши кераклигини бир қатор фикрлари орқали И. Каримов содда ва ҳикматомуз тарзда қуйидагича таъкидлаган эди: „Олдимизга қўйилган олижаноб мақсад-муддаоларимизга етиш, эски мафқуравий асоратлардан батамом халос бўлиш, ғоявий бўшлиқ пайдо бўлишига йўл қўймаслик, бегона ва ёт ғояларнинг хуружидан ҳимояланиш, бундай тажовузларга қарши тура оладиган ҳар томонлама баркамол инсонларни вояга етказиш зарурати халқимиз ва жамиятимиз манфаатларига мос янги мафқурани шакллантиришни тақозо этмоқда“ [4: 220].

Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда демократик ислохотлардан кўзланган асосий мақсад ёшларнинг юксак маънавий маданиятга эришувини таъминлаш, соғлом авлодни тарбиялаб вояга етказиш, ҳар томонлама янгича тафаккурлайдиган маънавий баркамол инсонни шакллантириш, ахлоқий ва руҳий жиҳатдан пок ҳамда етук ёш авлодни камол топтириш эди. Ана шу мақсадда кўп миллатли мамлакатимизда „миллатлараро ва динлараро тинч-тотувликни мустаҳкамлаш, - дейди Ислом Каримов, - маънавий ва ахлоқий тарбияни кучайтириш, тарихий илдизларимизга, миллий ўзлигимизга қайтиш, аҳолининг сиёсий онги ва ҳуқуқий маданиятини оширишга доир аниқ мақсадга йўналтирилган ишларимиз муҳим аҳамият касб этганини таъкидлаш жоиз“ [5: 33].

Ёшлар миллатпарварлиги ахлоқий қадриятлар қонун-қоидаларига риоя қилган ҳолда миллий руҳда тарбиялаш биринчи навбатда баркамол авлодда меҳнатсеварлик, инсонпарварлик, ватанпарварлик, меҳр-оқибат сингари фазилатларни шакллантириш демакдир. Миллий қадриятлар эса, ўз навбатида, жамият тараққиётининг инсонийлашуви, халқнинг фаровонлиги ҳақидаги тасаввурларининг рўёбга чиқиши ва оммавийлашувида жуда катта ижтимоий аҳамият касб этади. Бу ҳақда Президентимиз Ш.М. Мирзиёев шундай дейди: „биз улуғ боболаримизнинг муносиб давомчилари бўладиган етук инсонларни тарбиялаш масаласига, афсуски, етарлича аҳамият бермадик. Ҳолбуки, интеллектуал ва маданий салоҳиятнинг қандай ноёб бойлик экан, нодир талант эгаларини тарбиялаб камолга етказиш ҳал қилувчи аҳамиятга эга эканини унутишга ҳаққимиз йўқ.“ [6: 140].

Хулоса ўрнида, ёшларни бир мақсад сари бирлаштириш, уларнинг маънавий оламида Ватан туйғусини аждоқларимизнинг бой фалсафий, илмий, маънавий ва маданий мероси билан қуроллантириш долзарб вазифадир. Шу боис ёшларимизда миллатпарварликни ривожлантиришда тарихимизнинг зарварақларини ҳолисона тадқиқ этиш, ундаги ҳар бир саҳифани нодир манбалар сифатида эъзозланишини йўлга қўйиш, уларда янгича дунёқарашни ривожлантириш жамиятимизнинг эртанги фаровон келажаги учун муносиб хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ш. М. Мирзиёев. Озод ва обод ватаннинг баркамол фарзандлари // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т. 1-жилд. Т.: „Ўзбекистон“, 2018, 415-бет.
2. Каримов И. А. Ватанимизнинг тинчлиги ва хавфсизлиги ўз куч-қудратимизга, халқимизнинг ҳамжиҳатлиги ва букилмас иродасига боғлиқ // Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. 12-жилд, - Тошкент: Ўзбекистон, 2004. 273-бет.
3. Эркаев А. Маънавият – миллат нишони. - Тошкент: Маънавият, 1997, 128б.
4. Каримов И. А. „Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар“ рисоласидаги сўз боши // Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. 9-жилд, - Тошкент: Ўзбекистон, 2001. 220-бет.
5. Каримов И. А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли // Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида. 16-жилд. - Тошкент: Ўзбекистон, 2007. 33-бет.

6. Мирзиёев Ш. М. „Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси“ // Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд, - Тошкент: Ўзбекистон, 2018. 140-бет.

SECTION: PHYSICAL CULTURE

Ахматова Х. М.
(Тошкент, Ўзбекистон)

МАМЛАКАТДА ЖИСМОНИЙ-ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РЕСУРСЛАРНИ ОММАВИЙ СПОРТ АСОСИДА ТИЗИМЛИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Аннотация: В данной статье рассматривается экономическая сторона массового спорта, а также социальная роль в формировании капитала здоровья нации. Кроме того предлагается новое социально-экономическое научное понятие «Физические и интеллектуальные ресурсы».

Ключевые слова: капитал, ресурс, оздоровление, массовый спорт, социальный капитал, капитал здоровья, национальное богатство, физический, интеллектуальный.

Аннотация: Мазкур мақолада оммавий спорт соҳасини иқтисодий жиҳатлари ва ушбу ижтимоий ҳодисани миллат капиталини шакллантиришдаги ўрни кўриб чиқилган, бундан ташқари янги жисмоний-интеллектуал ресурс иқтисодий ва ижтимоий илмий тушинча таклиф этилмоқда

Калим сўзлар: капитал, ресурс, соғломлик, оммавий спорт, ижтимоий капитал, соғломлик капитали, миллий бойлик, жисмоний, интеллектуал

Annotation: For application in the social direction of new scientific concept the quality and quantitative index of extent of improvement of the person (barkamollik) is proved in this article as physical and intellectual resources. Besides the role of the mass sports movement in formation of the capital of health of the nation is considered.

Ўзбекистонни инновацион модели асосида иқтисодий юксалиши, янги ижтимоий механизмни шакллантиришга боғлиқ бўлиб, инсон салоҳиятини ривожлантиришга асосланган. Давлатни кучли иқтисодий-ижтимоий ривожини ва унинг келажагини таъминлаб берувчи асосий манба – аҳоли ва ундаги ёшлардир. Юрт аҳолиси қанчалик жисмоний соғлом, кўп билимга эга, маънавий жиҳатдан камол топган ҳамда келажакка интилган одамларни бирлаштирган бўлса, юқори иқтисодий тарраққиёт босқичига ва фаровон ҳаётга шунча тез эришади.

Европа Иттифоқида аҳолини жисмоний ҳаракат орқали соғломлаштиришга самарали жалб этишда ҳамда бошқа муҳим ижтимоий-иқтисодий масаларни ечимини топишда, оммавий спортни ўрни алоҳида таъкидланмоқда (1).

Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш билан боғлиқ чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарорида аҳолининг барча қатламларини жисмоний тарбия ва

оммавий спорт билан тизимли равишда қамраб олиш вазифаси белгиланди (2).

Муаммони белгилаш. Оммавий спортни тизилмасида инсон унинг бош объекти ва субъекти ҳисобланади, функционал-хусусиятлари учта группага - **соғломлаштириш, ижтимоий ва иқтисодий** бирлаштирилган.

Тадқиқот мақсади – оммавий спорт соҳасини иқтисодий жиҳатларини аниқлаш, ва унинг асосида ушбу ижтимоий ҳодисани, инсонни соғлом ҳаёт тарзининг генератори сифатида, янада ривожлантириш шартларини ишлаб чиқишдан иборатдир.

Постиндустриал даврида инсонни жисмоний соғломлиги, интеллекти ва меҳнатга бўлган қобилияти, унинг капитали сифатида бўлмоқда. Хозирги кунда, инсон капитали қимматли ижтимоий ресурс деган тушинча барчани қамраб олмоқда, чунки мазкур ресурс табиий ресурсдан ёки тўпланган мол-мулк бойлигидан анча муҳимлироқдир, у инсонга наслдан ўтиши ҳам мумкин.

Мамлакат иқтисодини постиндустриал жамиятига муваффақиятли уйғунлаштиришда аҳоли ресурсларини оммавий спорт орқали ривожлантириш мустақилликни илк даврларида кўзланди: “Ўзининг саломатлиги ҳақида шахсан ғамхўрлик қилиб бориш маданиятини ёшлиқдан, оила, мактаб, маҳалла, соғлиқни сақлаш тизими, жисмоний тарбия ва спортнинг кўмагида сингдириш керак. Шуниси муҳимки, одамлар сўзда эмас, балки амалда ўз саломатлигининг қадрига етиб, уни **миллий бойлик сифатида** авайлаб-асрасинлар” (4).

Саломатликни миллий бойлик сифатида асраш тўғрисидаги сиёсат, инсон капиталидаги соғломлик ресурсининг спорт орқали ошириш ва аҳолини оммавий равишда соғломлаштириш ишларини ўрганишга туртки бўлди Шунга биноан юртни иқтисодий ва ижтимоий ўсишини таъминлайдиган, ўқувчи-ёшларни ресурсларини спорт ҳаракати орқали ривожлантиришга қаратилган, янги тизилмали моделни шакллантириш ва амалиётга қўллаш назарда тутилди.

Ҳар қайси давлатни рақобатбардошлигини асосий элементи миллат капитали (бойлиги) ҳисобланади, чунки у инсон ресурсларини янгиланишига боғлиқдир, бунинг ҳисобига иқтисодиётни ўсиши узоқ муддатларга таъминланади.

Шунга биноан, миллатни ҳақиқий бойлигини пул билан эмас, балки интеллектуал ва ахлоқий капиталлари ҳамда миллатни маънавий бойлигини ўсиши ва ҳаётини сифат даражасини кўтарилиши билан, унинг фаолият муҳитини яхшилайдиган - таълим, спорт, тиббиёт, маданият, фундамента фан билан ўлчанади. Буларни барчасини инсон капитали дейилади

Ижтимоий фикрда, узоқ муддатгача миллий бойлик фақат материал ва ишлаб чиқариш қийматларга боғликлиги ҳақида фикр-мунозара юритилиб келинди. Чунки, табиий бойликлар истеъмол мафқурасига асосланиб, меҳнат орқалий яратилмай табиатдан олингани учун, миллий бойлик қаторига қўшилмаган эди (5). Кейинчалик табиий бойликларни экспорти давлат бюджети ва миллий даромад даражасига таъсир эта бошлагандан кейин, табиий ресурсларни баъҳолаш методологиясини мазмунини, миллий бойликни номатериал ишлаб чиқариш ресурсларга қаратилди.

Инсон капитали деган тушинча XX асрни 50-60 йилларда илмий

оборотга киритилди. Инсон капитали тўғрисидаги замонвий назария ва концепцияни асосчилари, иқтисод йўналиши бўйича Нобель мукофатини совриндорлари Т. Шульц, Г. Беккер томонидан ўз ривожини топди, улар инсон капиталини асосида - соғлиқни ҳамда меҳнат фаолияти орқали олинган билимни тасоввур қилганлар (5, 6). Инсон капитали ташинчаси муаммолари билан боғлиқ илмий ишлар, асосан фаннинг иқтисодий йўналишларида акс этилган (7).

Иқтисодчи олимлар инсон капиталини куйдагиларга ажратдилар: - **жисмоний капитал**(соғломлик капитали); - **интеллектуал капитал** (билим, таълим, шу билан бирга умумий махсус билим, профессионал маҳорат ва компетенция, тажриба, ижодий салоҳият ва ихтидор, инновация ва тадбиркорликка қобилият); - **ижтимоий капитал** (ходимларни умумий маданият даражаси, уни мулоқат қилиш тажрибаси, мотивация, маънавий сифатлари, ташкилчиликка бўлган хусусиятлари, тезкорлик билан ечим топиш қобилияти) ўз ичига олади.

Илмий адабиётларда, миллий бойликни қайта яратилишида инсон капитали бош омил эканлиги ва у, зарурий элемент сифатида бўлиши кўрсатилмоқда. Инсон капиталини шаклланишида асосий омиллардан бири - жамиятни ривожланиш босқичларида, унинг тўплаган материал ва интеллектуал бойлик ҳисобланади. Хозирги даврда, тадқиқотчилар томонидан инсон капиталини бир бирига боғланган специфик-ўзига ҳос бўлган ресурслар йиғиндиси сифатида куйдагича кўрсатмоқдалар: биринчи, **“тақрорланадиган ресурс”** - инсонни сифат кўрсаткичларини жамиятда керакли даражасида ушлаб туриш имкони; иккинчи, **“физиологик ресурс”** - жисмоний, ижтимоий, маънавий - психологик соғломлик; учинчи, **“ижтимоий ресурс”** - бошқарув санъати, тутган йўли, асослаш ва мулоқатга кириш қобилияти, ижтимоилашиш ва корпоратив даража, қонунга итоаткорлик; тўртинчи, **“ахборот ресурс”** - билим, кўникма, ишбилармонлик, мутахассислик бўйича меҳнат стажы, илмий унвон борлиги, интеллектуал меҳнат натижалари

Ресурслар: - биринчидан,табiiй; -иккинчидан, инсонники; -учинчидан, инсон орқали яратилган бўлиши мумкин. Инсоннинг билим ва профессионал тайёргарлик даражаси ҳамда унинг саломатлик кўрсаткичлари - ресурси қанчалик юқори бўлса, ундаги капитални сифати ушбу даражада юксалади, шунга биноан тўпланган ресурсини ишлатиш даври узоқ давом этиши кузатилади (8). Инсон ресурси – бу одамларни меҳнатга қодир бўлган салоҳиятини моддий асоси бўлиб, унинг жисмоний ва интеллектуал қобилиятларини имконият даражасини белгилайди (8)

Оммавий спорт ўзига ҳос хусусиятларга эга, у инсоннинг ривожланиш даврида, ижтимоий ва биологик жихатларини таъбиий равишда бир-бировига боғлайди.

Инсонни соғломлик ресурсини ривожлантириш, бу узоқ давом этадиган жараён ҳисобланади, шунга биноан соғломлик тизилмасидаги интеллектуал ва социал элементлар эса, энг долзарб бўлмоқда, чунки жисмоний ва интеллектуал фаолиятни уйғунлигининг фундаменти, айнан, оммавий спорт эканлигини эътироф этилмоқда. Спорт биологик ва ижтимоий ходиса сифатида инсонни жисмоний даражасига унинг руҳиятига ҳамда мақомига сезиларли таъсир кўрсатиши мумкин.

Қадимий Греция, Индия, Япония, Хитойда жисмоний ҳаракатни инсонни интеллектига ижобий таъсир этиши, азалдан маълум бўлган. Тибет ва Шаолин монахлари жисмоний машқларни ва назарий билимларни иккисини аҳамиятлигини инобатга олиб уларни бир қаторга қўйишган (9).

Ўзбекистонда саломатликни миллий бойлик сифатида асраш, инсон капиталидаги соғломлик ресурсининг спорт ҳаракати орқали ошириш, аҳолини барча қатламларини оммавий равишда соғломлаштириш ишларига жалб этиш борасида олиб борилаётган концептуал қарашларга биноан, юртда «Соғлом авлод учун» биринчи ордени ва халқаро хайрия жамғармаси ташкил этилди, оналар ва болалар саломатлигини мустаҳкамлаш, соғлом бола, соғлом насл йўлида амалий қадамлар қўйилди.

Маълумки, Ўзбекистонда оммавий спорт ҳаракати умуман, бутун тизимли яхлитлик шаклида яратилган бўлиб у инсонни ривожланишида жисмоний, интеллектуал ва ижтимоий ҳамда биологик жиҳатларини бирлаштирувчи кўприк сифатида, жуда кўп функцияларни бажаради.

Тадқиқотчилар оммавий спортни беъвосита соғлом турмуш тарзи қадриятларини ишлаб чиқарадиган, истимол қиладиган, алмашадиган ва тақсимлайдиган жараёни эканлигини, уни инсонларни руҳий соғломлигини ва маънавий бойлигини асоси эканлигини тасдиқламоқдалар. Уларни фикрига кўра спорт - аълоқалар ва муносабатлар тизими бўлиб, унинг асосий "маҳсулоти" соғлом ва фаол инсондир. Шундай қилиб, спорт инсон капиталини шакллантиради ва бу, унинг ижтимоий моҳиятида номоеъ бўлиб, ақлни ўсиш суратларини ҳамда интеллектни (ақл-идрокни) алоҳида томонларини ривожлантиришга таъсир этади..

Инсоннинг билим ва профессионал тайёргарлик даражаси ҳамда унинг саломатлик кўрсаткичлари - ресурси қанчалик юқори бўлса, ундаги капитални сифати ушбу даражада юқори бўлиши ва ишлатиш даври шунчалик узоқ давом этиши кузатилади.

Ўзбекистонда соғломлик - миллий бойлик сифатида қабул қилиниши, инсон бойлигини такомиллаштиришда, айнан, оммавий спорт ҳаракати, таълим, соғлиқни сақлаш ва фан билан баробар эканлиги тўғрисидаги фикрни олдинга сурмоқдамиз. Чунки, инсонни оммавий спорт ҳаракати орқали ишлаб чиқазган соғломлик капиталининг ҳажми ва сифати жамиятни иқтисодий ва ижтимоий ривожига тўғридан-тўғри боғлиқдир - бу, миллий бойликни ўсишини таъминлайди (8).

Соғломлик капиталини ҳамда интеллектуал капитални солиштирма таҳлили, уларни бирҳиллигини, ва шу билан бирга, ўзига хос хусусиятлар билан фарқ қилишини кўрсатмоқда. Соғломлик ва интеллектуал капитал қисмларининг бирулуғлиқ ҳоссалари, куйдагиларда намоён бўлади: -инсон капиталини иккала – соғломлик ва интеллектуал қисми инвестиция ҳамда жисмоний ҳаракат ҳисобига йиғилади ва заҳирани ташкил этади; соғломлик ва интеллектни шаклланиши катта сарф-харажатни ҳамда ортиқча маблағ ва вақтни талаб этади, улар кундаги истимолга зиёни бўлади; соғломлик ва интелект капиталлари узоқ муддатларда инсонни фаровон ҳаётини ташкил этади, лекин чекланган хизмат муддатида бўлиб, сўниб-камайишга мойилдир; -икки капитал меҳнатни қўшимча соҳаларда қўллашни кенгайтиради.

Икки капитал инсон ресурсини асосий манбаси эканлигини инобатга

олиб, **соғломликни жисмоний ресурс** тушунчаси билан белгиладик.

Бундан ташқари, юқорида ҳулосалардан келиб чиқиб, мамлакат тараққиётини уни бойлигини, фақат жисмонан соғлом ва ақл заковати ўткир инсонлар яратишини инобатга олиб, биз мазкур йўналишга асосан, инсоннинг баркамоллик даражасини сифат ва миқдор жиҳатдан кўрсатувчи "жисмоний-интеллектуал ресурс" деган янги тушунчани ижтимоий йўналишда қўллаш учун таклиф қилдик.

Жисмоний-интеллектуал ресурсларни ўзаро ривожлантириш, тасарруф этиш жараёни табиий ресурслардан фойдаланиш жараёнидан тубдан фарқ қилади. Баркамол инсонни шакллантириш жараёни жисмоний-интеллектуал ресурслардан фойдаланиш ва уларни ривожлантириш ишини миллий-маънавий ресурслар билан уйғунлаштирган ҳолда олиб боришни талаб қилади.

Демак жисмоний-интеллектуал ресурслар табиий ресурслардан ҳам миқдорий, ҳам сифат жиҳатидан даврий такрорланиши ва қайтарилиши билан фарқ қилади. Ўзини физиологик жиҳатдан қайта тиклаш ва камол топтириб бориш жисмоний-интеллектуал ресурснинг ўзидан кейинги босқич имкониятларини миқдор ва сифат жиҳатдан самаралироқ бўлишини таъминлайди. Бу авлодларнинг генетик ўзгаришига ижобий таъсир қилиб, уларни ҳар жиҳатдан баркамоллаштириш хусусиятига эга.

Бундан ҳулоса, жисмоний-интеллектуал ресурс, ўзини, яна қайта сифатли қилиб ярата олувчи куч сифатида бўлади.

Ҳулоса. Оммавий спортни нафақат соҳломлаштиришда, балки кенг ижтимоий ва гуманитар масалалар даражасида ётадиган таълим ва ривожланиш соҳаси сифатида қўриш мумкин

Юқорида келтирилган фикрлар мамлакат даражасида жисмоний-интеллектуал ресурсларни тизимли бошқарув ҳаракат механизмларини ишлаб чиқишга стратегик йўналиш ҳамда методологик вазифаларни белгилашга асос бўлади

АДАБИЁТЛАР

1. Дутчак М. "Экономические аспекты спорта для всех" // Наука в олимпийском спорте. № 1-2, 2010г., С-101.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентини 03.06.17й «Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари» тўғрисидаги 30-31 сонли қарори.
3. Ислам Каримов "Ўзбекистон буюк келажак сари" Тошкент "Ўзбекистон" 1998йил, 60бет.
4. Карпов Г. В. "Теория и методология моделирования оценки нематериально составляющей национального богатства" Автореферат 2010г.
5. Becker G. Investment in Human Capital: Theoretical Analysis [Text] / G. Becker // The Journal of Political Economy. – 1962. – P. 9–49.
6. Schultz T. Investment in Human Capital // The American Economic Review. 1961. March. № 1. – P. 1–17).
7. Акулинина А. М. "Человеческий капитал молодежи как стратегический ресурс развития общества" Автореферат 2010г
8. Лубышева Л. И. Социология физической культуры и спорта. – М.: Изд-ий центр «Академия», 2010. – С.57

Сатторов М. С., Соатов Э. М.
(Тошкент, Ўзбекистон)

МУШАК КУЧИ ВА ТЕЗЛИК-КУЧ СИФАТЛАРИНИНГ ФИЗИОЛОГИК АСОСЛАРИ

Аннотация: Мазкур мақолада спорт билан шуғулланишда спортчиларнинг мушак кучи ва тезлик-куч сифатларининг физиологик асослари ҳамда спорт машғулоти бажарилиши пайтида, мушак қисқаришларининг нисбатан катта кучи ва тезлиги намоён бўладиган мушакнинг максимал ихтиёрий кучининг физиологик хусусиятлари ҳақида маълумотлар ёритилган.

Калит сўзлар: Мушак, куч, максимал ихтиёрий куч, изометрик, периферик, синергист, анатомик, нисбий марказий, асаб.

Аннотация: В этой статье представлена информация о физиологических свойствах максимальной силы мышц-спортсменов, которая является результатом физиологической основы атлетической силы мышц и скоростно-силовых характеристик, а также относительной силы и скорости сокращения мышц во время упражнений.

Ключевые слова: мышца, сила, максимальная произвольная сила, изометрическая, периферическая, синергическая, анатомическая, относительная центральная, нервная.

Annotation: This article provides information on the physiological properties of maximum muscle strength in athletes, which is the result of the physiological basis of athletic muscle strength and speed-strength characteristics, as well as the relative strength and speed of muscle contraction during exercise.

Keywords: muscle, force, maximum arbitrary force, isometric, peripheral, synergistic, anatomical, relative central, nervous.

Мушак кучи, ҳаракатнинг тезлигига тескари боғлиқ эканлиги ҳаракатнинг тезлиги қанчалик юқори бўлса, намоён бўладиган куч шунчалик кичкина бўлади ва аксинча. Турли спорт машқлари, «куч-тезлик» эгри чизиғининг ҳар хил нукталарига мос келади. Мушакнинг максимал изометрик кучига яқин ёки тенг бўлган ташқи юкламалик машқлар хусусан кучли машқлар ҳисобланади. Масалан, «қўлларда туриш», «крест» каби гимнастик машқлар, ҳалқаларда «олдинги мувозанат», максималга яқин ёки максимал оғирликдаги штанга билан бажариладиган оғир атлетика машқлари, шулар жумласидандир.

Ташқи қаршилик камайган пайтида ҳаракат тезлиги ортади, намоён бўладиган мушак кучи эса пасаяди. Бажарилиши пайтида, мушак қисқаришларининг нисбатан катта кучи ва тезлиги намоён бўладиган, максимал изометрик кучдан 40-70% га тенг ташқи юкламага, яъни катта қувватга эга бўлган машқлар, тезлик-куч машқлари турига, (қисқа масофага югуриш, сакрашлар) киради.

Кичик масса (максимал изометрик кучдан 40% дан кам) билан бир жойдан иккинчи жойга кўчадиган ҳаракатларда катта тезликка эришилади,

бунда намоён қилинадиган мушак кучи нисбатан кичик бўлади. Бундай машқлар (масалан, кичкина түпни бир жойда туриб улоқтириш, юклама берилмаган қўл-оёқларнинг ҳаракатлари) тезликка мос.

Мушак кучининг физиологик асослари

Изометрик қисқариш шароитларида, мушаклар максимал статик кучни намоён қилади.

Мушакларнинг максимал статик ва максимал ихтиёрий статик кучи. Изометрик қисқараётган мушак, ўзи учун имконият даражасидаги максимал бўлган кучланишни намоён қилади. Бунда, бир вақтнинг ўзиде, қуйидаги учта шарт бажарилиши лозим:

ушбу мушак барча ҳаракат бирликларининг (мушак толаларининг) фаоллашуви; унинг барча ҳаракат бирликларида тўлиқ тетанус режими бўлиши; тинчлик ҳолатида мушакнинг қисқариши.

Бундай ҳолатда, мушакнинг изометрик қисқариши, унинг максимал статик кучига мос келади.

Мушак томонидан юзага келтириладиган максимал куч (МК), мушак узунлигини ҳосил қиладиган мушак толаларининг сонига ва уларнинг йўғонлигига боғлиқ. Толаларнинг сони ва йўғонлиги мушакнинг умумий йўғонлигини ёки, бошқача айтганда, мушак кўндаланг кесимининг (анатомик кўндаланг кесими) юзасини белгилайди. Мушак максимал кучини, унинг анатомик кўндаланг кесимига нисбати — *мушакнинг нисбий кучи* дейилади. Бу куч, 1 см^2 га тўғри келадиган нютонларда ёки килограммларда ўлчанади (П/см^2 ёки кг/см^2). Мушак кучи, унинг ихтиёрий кучланиб, керак бўлган мушакларни максимал қисқартиришга интилганида ўлчанади. Шунинг учун, одамнинг мушак кучи тўғрисида гапирганда, унинг *максимал ихтиёрий кучи* (МИК) (педагогик амалиётда бунга эквивалент тушунча «мушакларнинг абсолют кучи» тўғрисида гап юритилади. Бу куч, иккита: мушаклар (периферик) ва мувофиқлаштирувчи марказий асаб омилига боғлиқ.

Максимал ихтиёрий кучни белгиладиган мушак (периферик) омилларига қуйидагилар киради: мушак тортиш кучига механик таъсир шартлари мушак кучи таъсир ричагининг елкаси ва ушбу кучни суяклар ричагларига таъсир қилиш бурчаги; мушаклар узунлиги, мушакнинг кучланиши унинг узунлигига боғлиқ; фаоллашувчи мушакларнинг кўндаланг кесими (йўғонлиги) қисқараётган ихтиёрий мушакларнинг кўндаланг кесими йиғиндисига қанча катта бўлса, юзага келаётган мушак кучи, бир хил шароитларда шунча катта бўлади; мушаклар композитсияси яъни тез ва суст қисқараётган мушакларда мушак толаларининг нисбати.

Мувофиқлаштирувчи (марказий асаб) омилларга, мушак аппаратини бошқаришнинг марказий асаб мувофиқлаштирувчи механизмларининг бирлиги мушак ичидаги мувофиқлаштирувчи механизмлар ва мушакни мувофиқлаштирувчи механизмлар киради.

Мушак ичидаги мувофиқлаштирувчи механизмлар, айти мушак мотонейронлари импульсларининг сони частотасини ва улар импульс-сиясининг вақт бирлигидаги боғлиқлигини кўрсатади. Бу механизмлар ёрдамида марказий асаб тизими, мушакнинг максимал ихтиёрий кучини бошқаради, яъни мушак ихтиёрий қисқаришининг кучи, унинг максимал кучига қанчалик яқинлигини белгилайди. Ҳаттоки, битта бўғимнинг ҳар қандай мушак

гуруҳини максимал ихтиёрий кучи кўрсаткичи, кўп мушакларнинг қисқариш кучига боғлиқ. *Мушак мувофиқлашувининг мукамаллиги* «керакли» мушак-синергистларни адекват танлашда ва бошқа бўғимлардаги мушак синергистларни «керак бўлмаган» фаоллигини чегаралашда ва кўшни бўғимларнинг фиксациясини таъминловчи мушак антагонистларнинг фаоллигини кучайишида намоён бўлади. Шундай қилиб, максимал ихтиёрий кучни намоён қилиши талаб қилинганида мушакларни бошқариш марказий асаб тизими учун мураккаб вазифа ҳисобланади. Шундан келиб чиққан ҳолда, нима учун оддий шароитларда мушакларнинг максимал ихтиёрий кучи, уларнинг максимал кучидан дан кичик эканлиги тушунарли бўлади. Мушакнинг кучи ва унинг максимал ихтиёрий кучи ўртасидаги фарқ *куч дефисити* деб аталади.

Мушак аппаратининг марказий бошқариш қанча мукамал бўлса, мушак гуруҳининг куч дефисити шунча кам бўлади. Куч дефиситининг катталиги учта омилга:

1) ўрганилаётган кишининг психологик, ҳиссий ҳолатига (берилган кўрсатмага);

2) бир вақтда фаоллашадиган мушак гуруҳларининг зарурий сонига;

3) уларни ихтиёрий бошқаришнинг мукамаллашганлик даражасига боғлиқ.

Биринчи омил инсон айрим ҳиссий ҳолатларида шундай кучни намоён қилиши мумкинки, бу куч, оддий шароитлардаги унинг максимал имкониятларидан анча катта бўлади. Бундай ҳиссий (стресс) ҳолатларга, хусусан, спортчининг мусобақа пайтидаги ҳолати киради. Тажиба шароитларида, максимал ихтиёрий куч кўрсаткичларининг анча ортиши (яъни, куч дефиситининг камайиши), ўрганилаётган спортчида кучли ҳиссий реакцияни юзага келтирадиган ҳолатларида, унинг кучли мотивацияси пайтида топилган, масалан, қўлланмадаги кескин овоз чиққанда (ўқ отилганда). Бунда, ижобий самара максимал ихтиёрий кучнинг ортиши, куч дефиситининг камайиши машқ бажармаганларда кучлироқ ва яхши машқ билан кўп шуғулланганларда кучсизроқ ифодаланади ёки умуман бўлмайди. Бу, спортчиларда мушак аппаратининг марказий бошқарилиши юқори даражада мукамаллигини кўрсатади.

Иккинчи омил. Бир хил шароитда ўлчанганда, бир вақтда қисқараётган мушак гуруҳларининг сони қанчалик кўп бўлса, куч дефиситининг катталиги, шунчалик юқори бўлади. Масалан, фақат қўлнинг бош бармоғини ишга туширувчи мушакнинг максимал ихтиёрий куч ўлчанаётган пайтда, турли иштирокчилардаги куч дефисити, ушбу мушакларнинг максимал кучидан 5-15% ни ташкил қилади. Бош бармоқни ишга туширувчи ва унинг фалангасини букувчи мушакнинг максимал ихтиёрий кучи аниқланганда, куч дефисити 20% га ошгани маълум бўлган. Болдирнинг катта гуруҳ мушакларини максимал ихтиёрий қисқариши пайтида, куч дефисити 30% га тенг бўлади.

Учинчи омил. Бу омилнинг роли турли тажибаларда исботланган. Масалан, қўлнинг маълум бир ҳолатида ўтказилган изометрик машқ, ўша ҳолатда ўлчанадиган максимал ихтиёрий кучнинг анча ортишига олиб келганлиги кўрсатилган.

Агар, ўлчашлар қўлнинг бошқа ҳолатларида ўтказилса, унда максимал

ихтиёрий кучнинг ўсиши унча катта бўлмаган ёки умуман ўсмаган. Агар, максимал ихтиёрий кучнинг ўсиши машқ қилаётган мушакнинг (периферик омил) кўндаланг кесимининг ортишигагина боғлиқ бўлганда, у, қўлнинг ҳар қандай ҳолатидаги ўлчашларда ҳам топилган бўлар эди. Шундан келиб чиққан ҳолда, ушбу ҳолатда максимал ихтиёрий кучнинг ўсиши, айнан ушбу машқ ҳолатида, машқдан олдингига нисбатан, мушак апаратининг анча мукаммал марказий бошқарилишига боғлиқ бўлади.

Шундан келиб чиққан ҳолда, тизимли машқ бажаришлар, мушакларни ихтиёрий бошқаришнинг мукаммаллаштиришга кўмаклашиши мумкин. Машқ бажармаган қўл мушакларнинг максимал ихтиёрий куч ҳам, охириги омил ҳисобига бирмунча ортган, чунки бу қўл мушаклари кўндаланг кесимининг юзаси ўзгармаган. Бу шуни кўрсатадики, мушакларни анча мукаммал марказий бошқариш, симметрик мушак гуруҳларига нисбатан намоён бўлиши мумкин.

АДАБИЁТЛАР

1. Азимов И., Собитов Ш. Спорт физиологияси. — Т.: 1993.
2. Проблемы физиологии спорта. Под. общ. ред. В.С. Гиппенрейтра, М., Фис, 2003.
3. Қурбонов Ш., Қурбонов А.Ш., Жисмоний машқларнинг физиологик асослари. Т., 2003.
4. Алматов К. Т., Алламуратов Ш. И. Одам ва ҳайвонлар физиологияси. — Т.: Университет. 2004.
5. Алматов К. Т., Клемешева Л. С., Алламуратов Ш. И. Улғайиш физиологияси. — Т.: Университет. 2004.
6. Хамракулов А. К., Ташмухамедова М.И. Умумий физиологиясидан мустақил текшириш ишлари. Т., 2005.
7. Сологуб А. С., Солодкова Е.Б. Физиология человека: Общая, Возрастная, Спортивная: Учебник.-М., 2010.
8. Пулатова М. Д. “Ёш физиологияси” ўқув қўлланма. Т., 2011.

SECTION: PSYCHOLOGY SCIENCE

Тоштемирова Дилафруз
(Джизак, Узбекистан)

**ДЕВИАНТНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ДЕТЕЙ В ПОДРОСТКОВОМ
И ЮНОШЕСКОМ ВОЗРАСТЕ**

Сегодня школа уже не может ограничиваться только усвоением детьми определённой системы знаний и навыков, воспитанием высоких моральных качеств. Обучение и воспитание должны быть направлены на повышение морального и интеллектуального творческого потенциала, на формирование у всех детей, у каждого отдельного ребёнка, разносторонних способностей для инициативного и творческого участия в любых сферах жизни (в общественных отношениях, производительном труде, науке искусстве, спорте).

В связи с этими, потребность и необходимость, разработки новых принципов оценки эффективности всего процесса воспитания и обучения, создание методов учёта качества данного процесса встали со всей остротой. Конечно, можно учитывать эффективность учебно-воспитательной работы по конечному продукту, т.е. по тому, как проявляют себя получившие полное среднее образование в общественной жизни, общественном производстве. Однако, процесс развития необратим, ибо в нём не возможны рекламации - нельзя вернуть юношу в школу для "доделки", "до развития". Да и переделка сформированной личности - дело очень тяжёлое и трудоёмкое. Практика показывает, что проведение простых дополнительных занятий, с целью ликвидации пробелов в знаниях и навыках, не всегда приводит к положительному результату; более того, может иметь отрицательные последствия, усугубляя отчуждённость ученика в классе. Поэтому в ряде случаев целесообразно начинать работу не с первичных нарушений, а с вторичных, ликвидация которых создаёт предпосылки для работы и над первичными нарушениями. При этом необходимо иметь ввиду, что неуспевающий труден не только для педагогов и родителей, но в первую очередь трудности переживает сам ребёнок, именно ему трудно. Он ищет выход из создавшегося положения, видя часто его не там, превращаясь из простого неуспевающего, в ребёнка трудного поведения. Как известно, многим детям свойственны временные отклонения от поведения. Как правило, они легко преодолеваются усилиями родителей, учителей, воспитателей. Но поведение какой-то части детей выходит за рамки допустимых шалостей и проступков, и воспитательная работа с ними, протекая с затруднениями, не приносит желаемого успеха. Таких детей относят к категории "трудных".

Когда говорят о трудных детях, обычно имеют в виду педагогическую трудность. При этом чаще всего берётся за основу одна сторона заявления - трудность работы с этими детьми и не рассматривается вторая - трудность жизни этих детей, трудность взаимоотношений этих детей с родителями, учителями, сверстниками, взрослыми.

Состав трудных детей далеко не однороден, и причины этой трудности неодинаковы. Трудность школьников обуславливается тремя основными факторами:

- **педагогической запущенностью;**
- **социальной запущенностью;**
- **отклонениями в состоянии здоровья.**

Вопрос о трудных детях, подростках, школьниках не новый. В 20-30 годы им занимались многие педагоги, психологи, психоневрологи и юристы. Был создан специальный институт по изучению трудных детей. Написано немало интересных статей и монографий о природе происхождения и формах проявления трудного детства. Рассматривая трудное детство как результат неблагоприятного воздействия среды, неправильного воспитания в семье и школе, они делили трудных детей на педагогически запущенных, социально запущенных и нервнобольных (страдающих отклонениями в психике). Были и другие попытки группировать трудных детей (Н.В. Чехов, А.Н. Граборов, П.И. Озерский). С развитием педологии трудными детьми стали заниматься в основном педологи.

Изучение трудных школьников (учащихся общеобразовательных школ и специальных учреждений) показывает, что состав их неоднороден. Учителя, родители, работники других детских учреждений включают в число трудных, неподдающихся воздействию, неуспевающих и недисциплинированных школьников, с которыми им трудно работать. Кроме того, сюда относят также детей, поступки которых носят характер правонарушений. Трудность этих детей (в данном случае речь идёт педагогической трудности, а не о какой-либо другой) обуславливается педагогической и социальной запущенностью, какими-то отклонениями в состоянии психического и физического здоровья, а также особенностями переходного периода и эпизодическими трудностями жизни. В первом случае педагогическая трудность носит устойчивый характер, во втором - кратковременный.

На основании анализа современной педагогической литературы можно выделить три существенных признака, составляющих содержание понятия "трудные дети". Первым признаком является у детей или подростков отклоняющегося от нормы поведения.

Под "трудными" школьниками понимаются, во-вторых, такие дети и подростки, нарушения поведения которых нелегко исправляются, корректируются. В этой связи следует различать термины "трудные дети" и "педагогически запущенные дети". Все трудные дети, являются педагогически запущенными. Но не все педагогически запущенные дети трудные, некоторые относительно легко поддаются перевоспитанию.

"Трудные дети", в третьих, особенно нуждаются в индивидуальном подходе со стороны воспитателей и внимании коллектива сверстников. Это не плохие, безнадежно испорченные школьники, как неправильно считают некоторые взрослые, а требующие особого внимания и участия окружающих).

"Трудные" школьники были, есть и, конечно, будут. Трудные дети, детская исключительность, умственная, психологическая, физическая недостаточность - такова плата за противоречия исторического процесса, за несовершенство общественной организации, за дефекты в образовании и воспитании взрослых людей. Сила современного учителя в любви к детям. Желание им добра, признание уважения личности воспитанника.

SECTION: TECHNICAL SCIENCE. TRANSPORT

Saxanova Liza Jamixatovna, Aytimbetov Yusupbay Mambetyarovich
Nukus state pedagogical institute
(Nukus, Uzbekistan)

USE OF WEB-TECHNOLOGY FOR SELF-IMPROVEMENT

One of the priority tasks of improving the quality of education and ensuring the innovative nature of its development is the creation of a system of continuous education, training and retraining of personnel, postgraduate training, an increasingly important part of which is self-education.

Modern continuous postgraduate education of educational workers is carried out mainly through the system of continuing professional education (DPE). Advanced training, implemented for an overwhelming number of specialists once every five years, today is not enough to master new knowledge, skills, abilities for the implementation of professional activities. All the above fully applies to the field of teacher education. Moreover, since the development of education becomes a catalyst for innovation in the economy, changes in knowledge and technology in the field of education are gaining even more momentum. Under these conditions, advanced training and the ability of teachers to successfully retrain through self-education is becoming increasingly important and relevant.

An important role in the development of the system of continuous education is assigned to distance education. The problems of distance pedagogical education, in particular, in the system of advanced training, are devoted to research by A. A. Andreeva, E. S. Polat, A. N. Tikhonov, A. B. Khutorsky, and others, who reasonably believe that the remote training of teachers leads to the emergence of new subjects of educational activities (tutor, organizer, etc.) endowed with specific functions, which will lead to reviewing the functional requirements for the teacher and updating the content of educational resources.

According to a number of scientists – A. A. Andreev, C. B. Bogdanov, T. G. Brazhe, V. G. Vorontsov, F. C. Komrakov, E. M. Nikitin. A. M. Novikov, E. S. Polat, V. I. Soldatkin, A. G. Chernyavskay, I.D. Chechel and others - modern models of advanced training, operating in the system of vocational education of teachers, do not reflect the current state of their professional activities. The need to introduce new forms and methods of pedagogical activity stems from the need for continuous training and the rapid pace of development of education. A generalization of the results of the analysis of the state of the modern system of vocational education of teachers (T. G. Brazhe, S. G. Vershlovsky, Yu. V. Krichevsky, Yu. N. Kulyutkin, G. S. Sukhobskaya and others) shows that the main causes hindering the development of the system The APE are: the regulated temporal nature of the refresher process; traditional inefficient and resource-cost forms and advanced training models; teaching innovative educational technologies and their application not by "action", but in a lecture audience; the complexity of the

organization of retraining and advanced training of teachers with complete separation from the professional activity; insufficient development of distance learning technologies in the field of retraining and advanced training of teachers, the organization of their professional communication; the unified nature of advanced training programs that do not reflect the needs of specific teachers.

Among the obvious shortcomings of the system of advanced professional education should also be attributed to the inefficient educational Internet portals of the advanced training system, where databases of educational electronic resources, databases of electronic catalogs of libraries, databases of current and planned activities, databases on computer learning tools, etc would be accumulated.

Today it is already clear that advanced training that meets the modern requirements of a developing information society It is necessary to lead in the information and communication educational environment (ICOS) using modern information and communication technologies (Internet, Web-technologies) and in conditions of continuous self-education. The most important condition for this is the formation of teachers' readiness for independent professional development in an information and communication educational environment saturated with ICT means, that is: the formation of a motivational readiness (psychological readiness) of a teacher for independent work in self-education; creation of conditions (information and communication educational environment, network environment) for the organization of independent work in the process of advanced training; development of funds (educational content), allowing yourself to improve their skills.

The possibility of using modern information technologies, on the one hand, and the new educational tasks facing advanced training of education workers, on the other hand, no longer allow only orientation and seminar classes, which form the basis of the traditional process of advanced training, to navigate. Teachers need to participate and create professional networking communities themselves, use newsgroups, thematic forums, and social networks to engage colleagues in the process of self-education, initiate all sorts of ways of pedagogical interaction through various types of communication, communication, etc. Today, in this way, we can already speak about the collective form of independent professional development.

Thus, self-education becomes the leading component of the continuous training system. In turn, the process of self-education under the prevailing conditions is quite specific. When choosing a manifestly insufficient educational resources for self-education, it is necessary to seek new forms and methods of interaction in a networked environment (online communities, e telekommuiikatsioiny projects, social networks, collective resources, newsgroups, forums, etc.) for the purpose of joint continuing education.

REFERENCES:

1. Севрук А. И. Мониторинг как технология информационного обеспечения качества образования (Текст). А. И. Севрук, И. В. Филимонова, Е. А. Юнина //Стандарты и мониторинг в образовании – 2002. - №3 – С. 35-40.

2. Проблемы решения профессиональной квалификации (Текст)/
Е. В. Груданов, В. Ю. Кричевский, С. С. Лебедева и др.: под ред.
Е. П. Тонконогой. – М.: центр «Педагогический поиск». 2000. С. 25.

**Нурниязов Арман Арзубай улы, Мэльсова Дилнора Амангелдиевна
Нукусский филиал Ташкентского университета информационных
технологий имени Мухаммеда аль-Хорезмий
(Нукус, Узбекистан)**

МЕТОДЫ ЗАЩИТА ИНФОРМАЦИИ В ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ СЕТЯХ ПРЕДПРИЯТИЯ

В настоящей Рекомендации описываются различные механизмы защиты сетей синхронной цифровой иерархии (SDH), их цели и их приложения.

Схемы защиты классифицируются как защита дорожек SDH (на уровне раздела или пути) и в качестве защиты от подсетей SDH (с встроенным мониторингом, не интрузивным мониторингом и мониторингом подуровней). Надежность и доступность волоконно-оптических систем: эта Рекомендация определяет минимальный набор параметров, необходимых для характеристики надежности и доступности волоконно-оптических систем. Приводятся различные параметры надежности и обслуживания системы, надежности активного оптического устройства, надежности пассивного оптического устройства и надежности оптического волокна и кабеля.

Эта Рекомендация также содержит рекомендации и методы для расчета прогнозируемой надежности устройств, узлов и систем. Защита от электромагнитных эффектов окружающей среды отвечающий за исследования, касающиеся защиты сетей и оборудования электросвязи от помех и молнии, а также исследований, связанных с электромагнитной совместимостью (ЭМС). Выполняя свою миссию, ИК 5 работала над несколькими Вопросами и разработала ряд Рекомендаций и Справочников, которые способствуют обеспечению безопасности сети против электромагнитных угроз. Электромагнитные угрозы связаны с вредоносными искусственными переходными явлениями высокой мощности, такими как высоковольтный электромагнитный импульс (HEMP) и высокоомощная микроволновая печь (HPM). Кроме того, электромагнитная безопасность может включать утечку информации из сетей электросвязи путем неожиданного радиоизлучения от оборудования.

Характер вредоносных угроз и соответствующих методов смягчения аналогичен тем, которые применяются к естественным или непреднамеренным электромагнитным возмущениям. Таким образом, традиционная деятельность 5-й Исследовательской комиссии, связанная с защитой от молнии и управлением электромагнитными помехами (EMI), способствует защите сети от вредоносных техногенных угроз. В настоящее время на SG 5 имеется шесть вопросов, которые имеют отношение к электромагнитной безопасности телекоммуникационной сети.

Хотя существует много сходств между злонамеренными искусственными электромагнитными угрозами и непреднамеренной или естественной электромагнитной средой, существуют определенные существенные различия. Выполняя свою миссию, SG5 работала над несколькими Вопросами и разработала ряд Рекомендаций и Справочников,

которые способствуют обеспечению безопасности сети против электромагнитных угроз.

Таким образом, на предприятии должен быть создан следующий набор средств и методов для защиты информации в сети (табл. 1.1)

Таблица 1.1

Средства и методы защиты информации в сети предприятия

Минимальный пакет	Оптимальный пакет (в дополнение к минимуму)
Средства антивирусной защиты рабочих станций, файловых и почтовых серверов	Антивирусные средства в программно-аппаратном исполнении; средства контроля содержимого (Content Inspector) и борьбы со спамом
Программный межсетевой экран (МЭ)	Программно-аппаратный МЭ, система обнаружения атак (Intrusion Detection System)
Программные средства формирования защищенных корпоративных сетей (VPN - Virtual Private Network)	То же в программно-аппаратном исполнении и интеграции с межсетевым экраном
Аппаратные средства аутентификации пользователей (токены, смарт-карты, биометрия и т. п.)	То же в интеграции со средствами защиты от несанкционированного доступа (НСД) и криптографическими средствами
Разграничение доступа пользователей к конфиденциальной информации штатными механизмами защиты информации и разграничение доступа операционных систем, прикладных программ, маршрутизаторов и т. п.	Программно-аппаратные средства защиты от НСД и разграничения доступа
Программные средства шифрования и электронной цифровой подписи (ЭЦП) для обмена конфиденциальной информацией по открытым каналам связи	Аппаратные шифраторы для выработки качественных ключей шифрования и ЭЦП; интеграция со средствами защиты от НСД и аутентификации
Средства "прозрачного" шифрования логических дисков пользователей, используемых для хранения конфиденциальной информации	Средства "прозрачного" шифрования конфиденциальной информации, хранимой и обрабатываемой на серверах
Средства уничтожения неиспользуемой конфиденциальной информации (например, с помощью соответствующих функций шифраторов)	Аппаратные уничтожители носителей информации
Средства резервного копирования, источники бесперебойного питания, уничтожители бумажных документов	

Поскольку ИКТ-отрасли уже подвержены летучим технологическим и рыночным изменениям, для регулирующих органов телекоммуникаций, ИТ и сетей радиовещания важно реагировать на меняющиеся условия. Благодаря эффективному разрешению конвергенции ИКТ, правительственные регулирующие органы могут выступать в качестве катализаторов сетевого и

экономического развития. Например, для создания национальной широкополосной сети правительственные учреждения должны предоставлять адекватный спектр, чтобы индустрия ИКТ могла развертывать мобильные широкополосные сети, позволяющие жителям сельских районов извлекать выгоду из национальных инициатив. Тем не менее, спектр во многих странах является дефицитным ресурсом, главным образом используемым военными, радиовещательными, телекоммуникационными и ИТ-отраслями. Это отсутствие доступности широкополосного спектра ограничивает услуги, конвергенцию ИКТ и возможности для экономического развития. Одним из способов максимизировать этот дефицитный ресурс является выделение ресурсов спектра на основе эффективности отрасли. Отвечает за исследования, связанные с сетями передачи данных, для исследований, связанных с применением открытых системных коммуникаций, включая сетевое взаимодействие, каталог и безопасность, а также технические языки, метод их использования и другие проблемы, связанные с программными аспектами телекоммуникационных систем.

Наконец, некоторые страны способствуют конвергенции ИКТ путем прямого инвестирования в инфраструктуру и услуги. Государственные инвестиции могут обеспечить значительную выгоду на ранних этапах конвергенции и способствовать тому, чтобы политическая позиция правительства была прозрачной для заинтересованных сторон. Одно из исследований показало, что подключение домов с оптоволоконными сетями возможно в финансовом отношении в городах, только если подписывается более 25% домов, главным образом из-за высоких затрат на развертывание.6 Прямые инвестиции в инициативы сообщества для обеспечения широкополосного доступа могут помочь населению затратить на развертывание и развитие Jumpstart.

**Нурниязов Арман Арзубай улы, Мэльсова Дилнора Амангелдиевна
Нукусский филиал Ташкентского университета информационных
технологий имени Мухаммеда аль-Хорезмий
(Нукус, Узбекистан)**

ПРИЕМНОЕ АБОНЕНТСКОЕ ОБОРУДОВАНИЕ ЦИФРОВОГО НАЗЕМНОГО ТЕЛЕВИЗИОННОГО ВЕЩАНИЯ


Высокая четкость (HD) означает, что число строк и число пикселей в каждой строке телевизионной картинки существенно увеличены по сравнению с телевидением стандартной четкости (SD). За счёт этого число элементов изображения, передаваемых за одну секунду в формате HD повышено в 5 раз, что позволяет существенно увеличить чистоту, чёткость и детализацию изображения на плоскостельных дисплеях большого размера или на проекторах в домашних кинотеатрах. Высококачественная HDTV-картинка в сочетании с пространственным звуковоспроизведением в формате Dolby Digital отличается высокой привлекательностью для зрителей. Приём HD-каналов требует наличия телевизионного приёмника с соответствующими возможностями экранной панели.

